O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MEXRI NORBOSHEVA

O‘YIN PSIXOLOGIYASI

«ILM ZIYO ZAKOVAT»
Toshkent – 2023

UDK: 331.116.22.
BBK: 889.015.002
A 13

MEXRI NORBOSHEVA

O`yin psixologiyasi (Monografiya) – **Toshkent.: "Ilm ziyo zakovat",** 2023 yil. 120 b. **Norbosheva Mexri Achilovna**

Monografiya Termiz davlat pedagogika instituti Kengashi tomonidan 2023 yil 4 iyuldagi 10- sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan

Taqrizchilar:

Qodirov U.D. - Psixologiya fanlari doktori, professor

Jo'raeva S.N. - Psixologiya fanlari doktori, dotsent

ISBN 978-9910-9157-2-7

© MEXRI NORBOSHEVA.
© «Ilm ziyo zakovat» 2023 y.

MUNDARIJA

KIRISH	**4**
1– BOB. O‘YIN PSIXOLOGIYASI TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA	
1.1.“O‘yin” so‘zi ta’riflar va talqinlar. O‘yinning kelib chiqish tarixi	5
1.2. O‘yin turlari va asosiy shakllari	8
1.3. O‘yinning ijtimoiy tabiati haqidagi qarashlar.	10
1.4. O‘yin psixologiyasi fan sifatida	12
2–BOB. O‘YIN NAZARIYALARI	
2.1.O‘yinchoqlar tarixi haqida	14
2.2.O‘yin faoliyatining tarixiy kyelib chiqishi haqidagi qarashlar	17
2.3. O‘yinning umumiy nazariyalari: K.Gross, S.Xoll, Y.Xyeyzinga,	18
2.4. O‘yin yetakchi faoliyat sifatida: L.Vigotskiy, A.Leontev, D.Elkonin	21
2.5. D.Elkoninning “O‘yin psixologiyasi” asari haqida	28
2.6. Psixologiya fanida o‘yin psixologiyasi muammolari o‘rganilganligi	30
3–BOB. ONTOGENEZDA O‘YINNING PAYDO BO‘LIShI	
3.1. Bola hayotining birinchi yilida harakatlar va kattalar bilan muloqotning o‘sishi.	34
3.2. M.Lisina: ”Bola – katta (odam)” hamda “bola- predmetli harakat – katta odam” munosabatlari haqida	37
3.3. Bolaning predmetli harakatlari va kattalar bilan muloqoti rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari	39
3.4. Maktabgacha yoshda o‘yinning rivojlanishi	42
3.5. O‘yinlarda rollarning rivojlanib borishi	44
4-BOB. SHAXS SHAKLLANISHIDA XALQ O‘YINLARI IJTIMOIY PSIXOLOGIK VOSITA SIFATIDA	
4.1. O‘zbek xalq o‘yinlari tarixidan	45
4.2. Xalq o‘yinlarida etnopsixologik xususiyatlarning ko‘rinishi	51
4.3. Xalq o‘yinlarining rivojlantiruvchi funksiyalari	54
4.3.“Besh tosh” milliy o‘yinining etnopsixologik xususiyatlari	55
5–BOB. O‘YIN VA PSIXIK TARAQQIYOT 5.1. O‘yin va motivatsion-ehtiyojlar sohasi rivoji. O‘yin va bilishga bo‘lgan egotsentrizmni yengib o‘tish.	57
5.2. O‘yin va aqliy harakatlar taraqqiyoti: N. N. Ladigina-Kots, S. L. Novoselova	60
5.3. Ixtiyoriy xulq rivojlanishida o‘yinning ahamiyati	64
6–BOB. O‘YIN MOHIYATI VA PSIXOLOGIK TAHLILI 6.1. O‘yin turlari klassifikatsiyalari	66
6.2. O‘yin turlari va ularning psixologik xususiyatlari. O‘yin va bilish jarayonlarining rivojlanishi.	68
6.3. Ijodiy o‘yinlar va uning ahamiyati. Rolli va syujetli o‘yinlar.	81
6.4. Jamoaviy o‘yinlar tabiati va ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish	84
7–BOB. O‘YINNING AMALIY PSIXOLOGIYADA QO‘LLANILISHI	
7.1. O‘yin psixoterapevtik vosita sifatida	98
7.2.Psixologik o‘yinlar va ulardan foydalanish	101
7.3.Rolli o‘yinlar va psixologik trening-o’yinlar	103
7.4. Psixokorreksiyada o‘yinlardan foydalanish	108
7.5. Psixologik kouching va o‘yinlar	114
Adabiyotlar	**119**

Kirish

O‘yin faoliyatida bola ijtimoiy voqelikni taqlid, rol orqali ijro etishga harakat qiladi va shu yo‘sinda atrof-muhit to‘g‘risidagi, ijtimoiy turmushdagi shaxslararo munosabatlarni o‘zlashtira boradi. Ijtimoiy turmushdagi u yoki bu hodisani rol orqali ijro qiladi.

Ma’lumki, o‘yin faoliyati pedagogika va psixologiya sohalarida turli pozisiyalardan tadqiqot ob’ekti sifatida tadqiq etilgan.

O‘yin faoliyatida bola ijtimoiy voqelikni taqlid, rol orqali ijro etishga harakat qiladi va shu yo‘sinda atrof-muhit to‘g‘risidagi, ijtimoiy turmushdagi shaxslararo munosabatlarni o‘zlashtira boradi. Ijtimoiy turmushdagi u yoki bu hodisani rol orqali ijro qiladi.

Monografiya 7 bobdan iborat bo‘lib har bir bobda qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. 1– bobi “O‘yin psixologiyasi tadqiqot predmeti sifatida” deb nomlanib, unda “O‘yin” so‘zi ta’riflari va talqinlari, o‘yinning kelib chiqish tarixi, o‘yin turlari va asosiy shakllari, o‘yinning ijtimoiy tabiati haqidagi qarashlar batafsil bayon etilgan. 2–bobda esa o‘yinning umumiy nazariyalari (K.Gross, S.Xoll, L.Vigotskiy, A.Leontev, D.Elkonin Y.Xeyzinga, Garri L. Lendret), o‘yin yetakchi faoliyat sifatida, o‘yinchoqlar tarixi, o‘yin faoliyatining tarixiy kelib chiqishi va qayta ishlanganligi, rolli va syujetli o‘yinlar, bolalar o‘yinlarini tadqiq etish masalasi, psixologiya fanida o‘yin psixologiyasi muammolari o‘rganilishi; 3–bobda ontogenezda o‘yinning paydo bo‘lishi, bolaning predmetli harakatlari va kattalar bilan muloqoti rivojlanishida o‘yinning roli, maktabgacha yoshda o‘yinning rivojlanishi, o‘yinlarda rollarning rivojlanib borishi masalalari keng yoritilgan.

Monografiyada alohida e’tiborga molik bo‘lgan 4-bobi “Shaxs shakllanishida xalq o‘yinlari ijtimoiy psixologik vosita sifatida” deb nomlanib, o‘zbek xalq o‘yinlari tarixi, xalq o‘yinlarida etnopsixologik xususiyatlarning ko‘rinishi, xalq o‘yinlarining rivojlantiruvchi funksiyalari, “Besh tosh” milliy o‘yinining rivojlantiruvchi funksiyalari va etnopsixologik xususiyatlari xaqida tadqiqotlar natijasida atroflicha yoritib o‘tilgan. 5-bobida o‘yin va psixik taraqqiyot xususida to‘xtalgan bo‘lsa, 6-bobda o‘yin mohiyati va psixologik tahlili yuzasidan bir qator tadqiqotchi olimlar qarashlari keltirilgan. Monografiyaning 7-bobida o‘yinning psixoterapevtik vazifasi, psixokorreksiya va psixologik treninglarda o‘yinlarning o‘rni hamda psixologik kouchinglarda umuman amaliy psixologiyada o‘yinlarni qo‘llash masalalariga e’tibor qaratilgan.

1– BOB. O‘YIN PSIXOLOGIYASI TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA

1.1. “O‘yin” so‘zi ta’riflar va talqinlar. O‘yinning kelib chiqish tarixi.

O‘yin faoliyatida bola ijtimoiy voqelikni taqlid, rol orqali ijro etishga harakat qiladi va shu yo‘sinda atrof-muhit to‘g‘risidagi, ijtimoiy turmushdagi shaxslararo munosabatlarni o‘zlashtira boradi.

O‘yin - buyumli-predmetli va ijtimoiy voqelikda harakat qilish va uni anglashga yo‘naltirilgan jarayondir. U o‘zining kelib chiqishiga ko‘ra, yunalish va mazmuniga ko‘ra ijtimoiy voqelik hisoblanadi

Bolalar o‘yinlarining dastlabki ilmiy tahlili rus olimi E. A. Pokrovskiy tomonidan 1887 yilda amalga oshirilgan. Uning fikriga ko‘ra, “o‘yin” to‘g‘risidagi tushunchalar o‘ziga xos talqinda tushuntirilgan, turli xalqlarda turlicha ma’noni bildiruvchi “o‘yin” so‘zi masalan, qadimgi rimliklarda faqat bolalarga xos harakatlar deb qaralgan bo‘lsa, yevreylarda “hazil va kulgu” ma’nosini bergan, yoki qadimgi nemis tilida “o‘yin (spilan)” odamga rohat baxsh etuvchi yengil va ohista harakat deb tushuntirilgan. Muallifning tahliliga ko‘ra, o‘yin xullas turli davr va xalqlarda bir-biridan farqli tushuncha bo‘lsada, pirovardida “o‘yin insonlarga xos xatti-harakatlar, bir tomondan, og‘ir mehnat emas, ikkinchi tomondan insonlarga shodlik va lazzat ulashadi”gan faoliyat deyish mumkin.

Oradan yarim asr vaqt o‘tgandan keyin 1933 yilda “o‘yin” tushunchasining etimologik tahlilini amalga oshirgan va uning o‘ziga xos alomatlarini tasniflashga harakat qilgan golland olimi F.Boytendayk hisoblanadi. Boytendayk o‘yinning alomatlari qatoriga quyidagilarni kiritadi: “u yoqqa va bu yoqqa” harakat, ixtiyorsizlik va erkinlik, quvonch va ermaklik. Bunday alomatlardan qanoatlanmagan muallif, uning fenomenini bolalar faoliyatini kuzatish orqali aniqlash mumkin, chunki o‘yinning qiymati va ahamiyati ularning o‘zlari tomonidan oqilona baholash, degan xulosaga keladi.

O‘yinni vujudga kelish tarixiga ilmiy yondashish nemis psixologi V.Vundtga 1887 yilda nasib etdi. Uning mulohazalariga ko‘ra, o‘yinning manbai huzur qilish, rohatlanishdan iboratdir. V.Vundt bildirgan fikrlar yoyiq xususiyatga ega bo‘lib, o‘yinning u yoki bu jihatlarini yoritishga xizmat qiladi. Uning fikricha, o‘yin – bu bolalarning mehnatidir. Hech bir o‘yin yo‘qki, u jiddiy mehnatning u yoki bu shaklining prototipi bo‘lmasin, hamisha uning vaqtdagi va fazodagi haqiqiy holatini o‘zida aks ettirmasin. Yashash zarurati insonni mehnat qilishga majbur qiladi. Mehnat orqali inson o‘z kuch-qudratini baholashga o‘rgana boradi, huzur qilish va rohatlanishining manbai ekanligiga iqror bo‘ladi. Olimning ta‘kidlashicha, o‘yin mehnatning foydali jihatini yo‘qotib boradi. Shuningdek, mehnat jarayonidagi eng yoqimlilik, uning natijasi maqsadga aylanadi. V.Vundt mehnat predmetini harakat usullaridan alohida hukm surishiga ishora qiladi. Bu bilan u psixologiya tarixida ustunlik qilib kelayotgan “o‘yin insonning biologik jabhasi” degan g‘oyaga qo‘shimcha tariqasida unga ijtimoiy-tarixiy jihatni kiritadi. V.Vundtning ushbu g‘oyasi psixologiya fani uchun alohida ahamiyat kasb etadi va o‘yinning tadqiqotiga keng imkoniyatlar ochadi.

Jahon psixologiyasi fanida o‘yin nazariyasiga yirik ulush qo‘shgan olimlardan biri – K.Gross hisoblanadi. Yigirmanchi asrlarning boshlarida o‘yin nazariyasi uchun eng qulay va sermahsul davr bo‘lgan. U o‘z zamondoshlari D.A.Kolossa va G.Spenserlarning fikr va mulohazalariga asoslangan holda o‘yin nazariyasini yaratdi. K.Gross o‘z g‘oyasini umumlashtirib, uni “mashqlantirish nazariyasi” yoki o‘z-o‘zini tarbiyalash deb ataydi va uni quyidagicha tasniflashga harakat qiladi:

1. Har qaysi tirik mavjudod irsiy beriluvchanlik, mayl xususiyatiga ega bo‘lib, uning xulq-atvorida maqsadga muvofiqlikni kasb ettiradi. Yuksak darajadagi jonivorlarning tug‘ilishidan berilgan xislatlari qatoriga faoliyatga impulsiv intilishni kiritish mumkin, chunki u jismoniy o‘sish davrida yaqqol namoyon bo‘ladi.

2. Yuksak darajadagi mavjudodda, xususan insonda irsiy javob harakatlari murakkab hayotiy muammolarni bajarishga yetarli emasdir.

3. Har qaysi yuksak taraqqiy etgan mavjudod hayotida bolalik davri mavjud bo‘lib, u o‘sish va rivojlanish xususiyatiga ega. Lekin mustaqil hayot va faoliyatni ta’minlay olmaydi. Chunki unga bunday imkoniyatni ota-onaning parvarishi yaratadi va u tug‘ma mayl va moyilliklarga asoslanadi.

4. Bolalik davri hayot uchun eng zarur shart-sharoitlarga va ularga moslashuvni egallash maqsadiga tabiiy ravishda yo‘nalgan bo‘ladi. Biroq irsiy javob harakatlariga bevosita asoslanmaydi. Inson zotiga uzundan-uzun bolalik davri beriladi. qanchalik faoliyat mukammal bo‘lsa, unga shunchalik ko‘proq tayyorgarlik joiz.

5. Bolalik xususiyatiga binoan hayotga ko‘nikish yo‘llari turli-tumandir. Ko‘nikish yoki moslashish yo‘lining eng tabiiysi va shuning bilan eng zaruri shundan iboratki, bunda faoliyatga nisbatan impulsiv ehtiyojning mavjudligi irsiy reaksiyalar o‘z-o‘zicha namoyon bo‘lishiga zamin hozirlaydi. Bunday sharoit irsiy harakatlarga asoslangan holda yangi malakalarni egallashni vujudga keltiradi. Avvalo yangi odatiy harakatlar yaraladi.

6. Ko‘nikish yoki moslashish yo‘llari insonni taqlid qilishda o‘z ifodasini topuvchi nasliy intilish, mayl orqali amalga oshiriladi. Bu narsa keksa avlodning qobiliyatlari va odatlari bilan uzviy bog‘liq ravishda kechadi.

7. Shaxsiy ichki qo‘zg‘alish xususiyatiga ko‘ra, rivojlanuvchi individuum hech qanday maqsadning tashqi ko‘rinishisiz o‘z mayli hamda intilishini namoyon qiladi, mustahkamlaydi va o‘stiradi. Bu o‘yinning dastlabki nishonalaridan dalolat beradi.

K.Byuler K.Grossning ogohlik nazariyasini tan olib, o‘yin filogenezga taalluqli ekanligini ta’kidlab, uning dressura bosqichi uchun ogohlik ekanligini uqtiradi. U o‘yinning mohiyati va tomonlarini ochishda o‘zining gedonalogik (huzur qilish) reaksiyaning birlamchiligi nazariyasiga asoslanadi. K.Byuler Z.Freydning rohatlanishga intilishdan iborat g‘oyasini e’tirof etsa-da, lekin inson faoliyati va rivoji uchun harakatlantiruvchi emas ekanligini uqtiradi.

O‘yin nazariyasiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan olimlardan biri – bu Boytendaykdir. U K.Grossning ogohlik nazariyasiga ikki xil mazmunda e’tiroz bildiradi.

1. O‘ynay bilmagan hayvonlar instinkt darajasiga ko‘ra zaif deyishga hech qanday dalil yo‘q. Chunki instinktiv faoliyatda mashqlanishning roli yetarli yuksak emas. Shuning uchun faoliyatning instinktiv shakllari mashqlanishga bog‘liq bo‘lmasdan, balki ulardan tashqari muhitda takomillashadi.
2. Mashqlanish o‘yinning mohiyatida yotmaydi, lekin uning tayyorgarlik mashqlari mavjud bo‘lib, ular o‘yin deyilmaydi.

F.Boytendayk o‘yin predmetining tanishligi yoki notanishligi o‘rtasidagi munosabatini uning obrazliligi deb ataydi. Obrazning affektiv va gnostika munosabati (notanish yoki hayotiy) fantaziyani keltirib chiqaradi. Binobarin, antropomorfizm sahovati sifatida fantaziyalashgan obrazlar, tasavvurlar vujudga keladi.

1.2. O‘yin turlari va asosiy shakllari

O‘yin nazariyasiga oid ilmiy qarashlar E.Klapared, Dj.Kollarits (1940,”ilmiy o‘yin” termini), F.Shiller (1935, o‘yin orqali estetik roxatlanish), G.Spenser (1897, estetik lazzatlanish), V.Vund (1887, o‘yin mehnatning bolasi), Dj.Bruner kabi xorijiy psixologlar asarlarida o‘z ifodasini topgan. Har biri o‘yinning turlari xususida o‘z qarashlariga ega bo‘lgan.

O‘yinlarning syujeti xilma-xilligiga qaramay, ularni maxsus guruhlarga biriktirish imkoniyati mavjuddir. Masalan, psixolog Ye.A.Arkin o‘yinlarning quyidagi tasnifini taklif qiladi:

1. Ishlab chiqarishga (texnikaga): sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, kasb-xunarga oid o‘yinlar;
2. Maishiy va ijtimoiy siyosatga: bog‘cha, maktab, kundalik turmushga oid o‘yinlar;
3. Harbiy: urush-urush o‘yinlari;
4. Dramalashtirilgan: kino, spektakl va boshqalarga oid o‘yinlar.

D.B.Elkonin maktabgacha yoshdagi bolalarga xos rolli o‘yinlarning syujetiga ko‘ra uchta guruhga ajratishni tavsiya qiladi:

1. Maishiy mavzu syujetiga oid o‘yinlar.
2. Ishlab chiqarish syujetiga taalluqli o‘yinlar.
3. Ijtimoiy-siyosiy syujetli o‘yinlar.

D.B.Elkonin harakatli o‘yinning qoidalari mazmuni o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqib, ularni besh guruhga ajratadi:

1. Harakatga taqlid qilish: taqlidiy-prosessual o‘yinlar.
2. Muayyan syujetni dramalashtirilgan o‘yinlar.
3. Syujetli o‘yinlar.
4. Syujetsiz o‘yinlar.
5. Aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport o‘yinlari.

Bolalar o‘yinlari ichida xarakatli yoki koidali o‘yinlar xam muhimdir. Chunki xarakatli o‘yinlar bolalarni jismoniy jixatdan chiniktiradi, dadil, qo‘rqmas, epchil bo‘lishga undaydi. Bolalarga tashabbuskorlik, jamoa bilan hamkorlik, burch xislarini o‘stiradi. Bunga «Kim birinchi?», «koptok», «Oq quyoncha o‘tiribdi», «Etib ol» o‘yinlari kiradi.

Maktabgacha ta’limda qo‘llaniladigan bolalar o‘yini o‘zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko‘ra xilma-xildir, umumlashtirgan holda, uni 2 guruhga tasniflash mumkin:

1) ijodiy o‘yinlar 2) qoidali o‘yinlar.

Ijodiy va syujetli o‘yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birlikda individual (shaxsiy) xislatlari ham shaklllanadi.

Harakatli o‘yinlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida asosan sayr va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida, maktablarda esa turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda va sport musobaqalari doirasida o‘tkaziladi.

Dramalashtirilgan o‘yinlarni ham bolalar sevib o‘ynaydilar. Bu o‘yinlar turli xil ertak va xikoyalar sahnalashtiriladi, rollarni esa bevosita bolalarni o‘zlari ijro etadilar. Masalan: «Qizil shapkacha», «Zumrad va Qimmat», «Sholg‘om»,

“Yolg‘onchi cho‘pon” dramali o‘yinlar bolalarni nutqi, xayol va ijodiy qobiliyatlarini tarkib toptiradi, asosiysi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantiradi.

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar o‘yinlari orasida qurish-yasash o‘yinlari bolalar uchun xam qiziqarli ham ta’limiy hisoblanadi.

O‘yin faoliyati bolalarni individual ravishda o‘rganish imkonini beradi. Ayrim bolalar jamoa bo‘lib o‘ynashni yoqtiradilar bu bolani umumiy psixologik taraqqiyotiga ta’sir etadi. Shuning uchun pedagoglar jamoa o‘yinlarga bolalarni jalb qilish kerak.

Shu nuqtai nazardan o‘yin maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ta’lim – tarbiya ishlarini samarali tashkil etishda asosiy markaziy o‘rinda turadi. Demak, maktabgacha ta’lim muassasadagi ta’lim– tarbiya ishlarini muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bolalarning o‘yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog‘liqdir.

1.3. O‘yinning ijtimoiy tabiati haqidagi qarashlar

Inson hayotining dastlabki soniyalaridan boshlaboq bolada faoliyatning oddiy shakllarini o‘zlashtirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Ulardan birinchi o‘yin faoliyati bo‘lib hisoblanadi. O‘yin shu qadar universal, shu qadar ko‘p qirrali va qudratli faoliyatdirki, barcha yoshdagi bolalarni o‘yindan boshqa faoliyatda kamolga etkazishni tasavvur etish qiyin.

O‘yin faqat tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni bilish vositasi bo‘libgina qolmay balki, qudratli tarbiya vositasi hamdir. Bog‘cha yoshidagi bolalarning syujetli va rollarga bo‘linib, o‘ynaladigan o‘yinlari deyarli hamma vaqt jamoa holda amalga oshiriladi. Syujetli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlar bolalarning ko‘pgina psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘yin sharoitining o‘ziyoq bolalar diqqatini atrofdagi narsa va hodisalarga faol yo‘naltirishini talab qiladi. Bu esa, o‘yin faoliyati davomida bolalarni nihoyatda faollashtiradi, ya’ni ular kuzatuvchan, tez esda olib qoladigan, har bir narsani atroflicha va chuqur tahlil qiladigan bo‘ladilar.

Bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi xilma xil o‘yin faoliyatni takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N. M. Aksarinaning ta’kidlashicha o‘yin o‘z- o‘zidan vujudga kelmaydi buning uchun kamida uchta sharoit bo‘lishi lozim, ya’ni

1) taassurotlar tarkib topish;

2) har –xil ko‘rinishdagi o‘yinchoqlar va tarbiyaviy ta’sir vositalarning muhayyoligi;

3) bolalarning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishishi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta’sir ko‘rsatish uslubi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

D.B.Elkonin o‘z tadqiqotida rolli o‘yinning syujeti bilan bir qatorda, uning mazmuni xam mavjud ekanini yozadi. Uning fikricha, o‘yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirishi o‘yinning mazmunini tashkil qiladi.

A.P.Usovaning tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, rolli o‘yin ishtirokchilarining safi yosh ulg‘ayishiga qarab, jinsiy tafovutlarga binoan kengayib boradi:

a) uch yoshli bolalar 2-3 tadan guruhga birlashib, 3-5 daqiqa birga o‘ynay oladilar;

b) 4-5 yoshlilar guruhi 2-5 nafar ishtirokchidan iborat bo‘lib, ularning hamkorlikdagi faoliyati 40-50 daqiqa davom etadi, o‘yin davomida qatnashchilar soni ortib ham boradi;

v) 6-7 yoshli bolalarda rolli o‘yinni guruh yoki jamoa bo‘lib birga o‘ynash istagi vujudga keladi, natijada avval rollar taqsimlanadi, o‘yinning qoidalari va shartlari tushuntiriladi (o‘yin davomida bolalar bir-6irlarining xarakatini qatgiq nazorat qiladilar)

D.B.Elkonin harakatli o‘yinning qoidalari mazmuni o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqib ularni besh guruhga ajratadi:

1) harakatga taqlid qilish;

2) muayyan syujetni drammalashtirilgan o‘yinlar;

3) syujeti oddiy o‘yinlar;

4) syujetsiz qoidali o‘yinlar;

5) aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport o‘yinlari.

Bolani o‘yinga undamagan omil uning katta yoshdagi odamlarning borliq to‘g‘risidagi va shaxslararo munosabati haqidagi tasavvuri hamda ularni o‘z shaxsiy faoliyatida sinab ko‘rish istagidir, shuningdek, jamoa bo‘lib o‘ynayotgan tengqurlari bilan bevosita muloqotga kirishish ishtiyoqidir. Bolalar psixologiyasi fanida to‘plangan ma’lumotlar tahliliga asoslanib, mazkur yosh davri bo‘yicha quyidagi xulosani chiqarish mumkin:

1) o‘yin faoliyatida bola turli harakatlarni to‘laligicha namoyish etishga, ularni bajarish usullarini ko‘rsatishga ishtiyoqmand bo‘ladi;

2) keyinchalik esa barcha xatti-harakatlarni umumlashtirib aks ettirishga urinadi.

1.4. O‘yin psixologiyasi fan sifatida

Psixologiyada mumtoz nazariyalardan biri hisoblangan A.N.Leontevning faoliyat nazariyasiga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bo‘lmish o‘yinni har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish doimo psixologiyada dolzarb masala bo‘lib kelgan. Ma’lumki, o‘yin san’at(shunoslik), madaniyat(shunoslik), tarix va manbashunoslik, etnografiya, etnopedagogika, psixologiya kabi sohalarda tadqiqot ob’ekti sifatida tadqiq etilgan.

D.B.Elkoninning “O‘yin psixologiyasi” asarida o‘yinni turli soha vakillari tadqiqotlaridagi talqinlari juda keng tahlil etilgan va aynan ushbu asar bolalar psixologiyasi qatorida o‘yin psixologiyasi ham alohida fan sifatida o‘rganilishiga asos bo‘la oladi. Chunki, ancha ilgaridan faoliyat turlari sifatida mehnat va ta’lim psixologiyasi alohida o‘rganilib kelinadi hamda tadqiqotlar natijalariga asoslangan manbalar asosida fan sifatida shakllangan. Shu sababli bolalar o‘yinlariga bag‘ishlangan pedagogika va psixologiya yo‘nalishlarida olib borilgan tadqiqotlarga tayangan holda o‘yin psixologiyasi ham alohida fan sifatida o‘qitilishi zaruratga aylandi.

Ayniqsa, bolalar psixologiyasi, pedagogik psixologiya, yosh davrlari psixologiyasi va hozirda rivojlanayotgan amaliy psixologiyada o‘yin faoliyatning bir turi sifatida, ta’lim samaradorligini oshirishda vosita sifatida, treninglar tarzida keng foydalanilmoqda. Shaxs shakllanishida uning faolligi naqadar ahamiyatli

bo‘lsa, o‘yin ham faoliyat sifatida shaxsning yoshi, faoliyati mazmunidan qat’iy nazar, ijtimoiy hayotda har bir shaxsga yuklatilayotgan rollarni ijro etish mahorati kabi ahamiyatlidir.

O‘yin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo‘lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O‘yin bolaning kelajakdagi o‘quv, mehnat faoliyati hamda shaxslararo munosabatlari uchun tajriba maktabi bo‘la oladi. Shuningdek, zarur bo‘lgan bilimlar, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishi uchun tajriba qay darajada shakllanishini belgilab beradi.

O‘yin bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik jihatdan tarbiyalashda katta o‘rin tutadi. O‘yinning maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar hayotida tutgan o‘rnini inobatga olib, bo‘lg‘usi Pedagog-pedagoglar uchun o‘yin psixologiyasini o‘rganishi zarurat hisoblanadi.

Mazkur fanda o‘yin nazariyalari, ontogenezda o‘yinning rivojlanishi, o‘yin mohiyati, o‘yinning psixologik tahlili, maktabgacha yoshdagi turli bosqichlarda yetakchi o‘yin turlari, bola shaxsi ijtimoiylashuvida o‘yinning o‘rni, amaliy psixologiyada o‘yinning psixokonsultativ va psixoterapevtik vazifalari, psixologik treninglarda o‘yinlarni qo‘llash, milliy o‘yinlarning rivojlantiruvchi vazifalari, pedagogik faoliyatda o‘yinlardan foydalanish kabi masalalar nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilishi nazarda tutiladi.

II BOB. O‘YIN NAZARIYALARI

2.1. O‘yinchoqlar tarixi haqida

O‘yinchoq bolalarda – ma’naviy-axloqiy tuyg‘ularni (mehribonlik, avaylash, e’tiborlilik) shakllantiradi, atrof-muhitga ijobiy munosabatni uyg‘otadi. O‘yinchoqlar tanlashda bolaning yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlari, istaklari hisobga olinadi. Maqsadga qaratilgan bunday yondoshuv - o‘yinchoq tanlashga bo‘lgan talabni yanada oshiradi. Asosan, pedagogik, gigienik, badiiy talab orqali o‘yinchoq tanlanadi.

O‘yinchoq - bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab ularga yo‘ldosh quvonch manbaidir. O‘yinchoq bolaning o‘ynashi uchun mo‘ljallangan va boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan buyum hisoblanadi. Unda buyumlarning tipik xususiyatlari umumiy tarzda aks etadi.

Pedagog A.S.Makarenko, «O‘yinchoq o‘yinning «material asosi», o‘yinchoq o‘yinni yaratishda ishtirok etadi, bolaning o‘ziga xos sherigi sifatida namoyon bo‘ladi, uning shaxsiga ta’sir ko‘rsatadi», - deb ta’kidlaydi. Rus pedagoglari o‘yinchoq bolalarga atrofdagi mavjud voqelikni o‘rganishga yordam beradigan, ranglar, buyumlar ko‘lamini ularning materiallarini farqlash malakasini rivojlantiruvchi vosita deb ta’kidlab, bola dunyoqarashini kengaytirishdagi ahamiyatini ko‘rsatib berdilar.

Xalq pedagogikasida o‘yinchoqlarning butun bir tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, bular bolaning sensor qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O‘yinchoqlar bolalarning nutqiy faolligini uyg‘otadi, lug‘at boyligini oshiradi, ularda tahlil qilish, yaxlit holatga keltirish, umumlashtirish, taqqoslash, tavsiflash, diqqatni jamlash kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi.

- *Ijodiy o‘yinchoqlarning* asosini xalq o‘yinchoqlari tashkil qiladi. Ular o‘ynashda bola o‘z-o‘zini nazorat qiladi. Xilma-xil mozaykalar sensor qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ulardagi o‘yin vazifasi naqshlar, rasmlarni tanlash va joylashtirishdan iborat.

- *Harakatli o‘yinlarga* mo‘ljallangan o‘yinchoqlar: suv, qum bilan o‘ynaladigan o‘yinchoqlar, koptoklar, arg‘amchilar, chambaraklar, arqonlar, tayoqchalar, kegli va boshqalar. Ularning asosiy vazifasi bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashdir.

- *Musiqali va teatrlashtirilgan o‘yinchoqlar* bolalarning musiqaviy ohang va ritmni eshita olish qobiliyatini o‘stirishga yordam beradi. Katta yoshdagi bolalar ertaklarni sahnalashtiradilar.

- *O‘yinchoq-ovutmachoqlar* harakatchan, ko‘pincha ovoz chiqaradigan bo‘ladi. Ular bolalarni o‘zlarining ajoyib xatti-harakatlari bilan quvontiradilar, ijodiylari esa zavq bag‘ishlaydi.

- *Qo‘lbola o‘yinchoqlarni* kattalar bolalar bilan birgalikda tayyorlaydilar va turli ertak, hikoyalarni sahnalashtiradilar.

O‘yinchoqlarni materialiga ko‘ra: hunarmandchilik, qo‘lbola usulida, fabrikada tayyorlanadi.

Taniqli pedagog A.S.Makarenko o‘yinchoklarning 3 turini ajratib ko‘rsatgan edi: tayyor o‘yinchoqlar, yarim tayyor o‘yinchoqlar va o‘yin materiallari. *Birinchi turi* bolalarni buyumlar va narsalarning rang-barangligi bilan tanishtiradi, tasavvurini o‘stiradi. *Ikkinchi turi* boladan faol faoliyatni talab qiladi, mantiqan va aqlan o‘sishga yordam beradi. *Uchinchi turi* bevosita bolaning ijodiy faoliyatini ta’minlaydi.

Jahon psixologiyasi fanida o‘yin nazariyasiga yirik ulush qo‘shgan olimlardan biri – K.Gross hisoblanadi. Yigirmanchi asrlarning boshlarida o‘yin nazariyasi uchun eng qulay va sermahsul davr bo‘lgan. U o‘z zamondoshlari D.A.Kolossa va G.Spenserlarning fikr va mulohazalariga asoslangan holda o‘yin nazariyasini yaratdi. K. Gross o‘z g‘oyasini umumlashtirib, uni “mashqlantirish nazariyasi” yoki o‘z-o‘zini tarbiyalash deb ataydi

D.B.Elkonin harakatli o‘yinning qoidalari mazmuni o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqib ularni besh guruhga ajratadi:

1) harakatga taqlid qilish;

2) muayyan syujetni drammalashtirilgan o‘yinlar;

3) syujeti oddiy o‘yinlar;

4) syujetsiz qoidali o‘yinlar;

5) aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport o‘yinlari.

Bolani o‘yinga undaydigan omil uning katta yoshdagi odamlarning borliq to‘g‘risidagi va shaxslararo munosabati haqidagi tasavvuri va ularni o‘z shaxsiy faoliyatida sinab ko‘rish istagidir, shuningdek, jamoa bo‘lib o‘ynayotgan tengqurlari bilan bevosita muloqotga kirishish ishtiyoqidir. Bolalar psixologiyasi fanida to‘plangan ma’lumotlar tahliliga asoslanib, mazkur yosh davri bo‘yicha quyidagi xulosani chiqarish mumkin:

1) o‘yin faoliyatida bola turli harakatlarni to‘laligicha namoyish etishga, ularni bajarish usullarini ko‘rsatishga ishtiyoqmand bo‘ladi;

2) keyinchalik esa barcha xatti-harakatlarni umumlashtirib aks ettirishga urinadi.

2.2. O‘yin faoliyatining tarixiy kelib chiqishi haqidagi qarashlar

Psixologiya fanida o‘yin faoliyati nazariyasini ishlab chiqqan tadqiqotchilardan biri Ye.A.Arkin bo‘lib hisoblanadi. Uning fikricha, bolalar o‘yini va o‘yinchog‘i o‘yin nazariyasiga negiz bo‘lib xizmat qilishi mumkin. O‘yinchoqlar tarixiga asoslanib, u ularni quyidagi turlarga ajratadi:

1. Ovozli o‘yinchoqlar – tartarak, vizillagich, qo‘ng‘iroqlar, shaqildoqlar va boshqalar;

2. Harakatlanuvchi o‘yinchoqlar – bizbizak, koptok, varrak, bilbok kabilar;

3. Qurol-yaroq o‘yinchoqlari – kamalak (yoy), o‘q, bumerang singari;

4. Obrazli o‘yinchoqlar – hayvonlar, qo‘g‘irchoqlar(odamlar), ertak qaxramonlari;

5. Arqon o‘yinlari – shakllar yasash, sakrash va hokazolar.

Bolalar o‘yinlari — bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biri. Bolalar o‘yinlari bolalarning har tomonlama kamol topishiga katta ta’sir qiladi. O‘yin vaqtida sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat,

iroda, hissiyot va b. ruhiy jarayonlar ishtirok etadi. Bolalar o‘yinlarining 3 asosiy xususiyati bor. Birinchidan, bola o‘yin faoliyatini erkin, o‘z xohishi bilan bajaradi. Ikkinchidan, mazkur faoliyatning ijodiy va faolligidir. Uchinchidan, o‘yin harakatlarining jo‘shqinligi: bola o‘yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, unda o‘rtoqlik hissi kuchayadi va h. k.

Bolalar o‘yinlari mazmuniga qarab o‘yinchoqli, voqeaband (syujetli), harakatli va didaktik o‘yinlarga bo‘linadi:

1) o‘yinchoqli o‘yinlar asosan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o‘yinlaridir (sodda o‘yinchoqlar, mas, shiqildoq, kubiklar o‘ynash; qum b-n o‘ynash);

2) voqeaband o‘yinlarda bolalar kattalar faoliyatiga taqpid qilishadi. Bu o‘yinlar bolaning tashqi muhitidagi voqelikni aks ettiradi (mas, «bola boqish», «ovqat pishirish», «bog‘chabog‘cha» o‘ynash va b.) Bolalar ulg‘aygan sari ularning voqeaband o‘yinlari ham murakkablasha boradi;

3) harakatli o‘yinlarni bolalar yakkayakka yoki birgalikda bajaradilar (mas, koptok o‘ynash, tez yugurish va b.). Bu o‘yinlar maktab yoshidagi bolalarga ayniqsa foydalidir: bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlaydi, ularni irodali qilib tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarning sport o‘yinlari ham harakatli o‘yinlardandir;

4) didaktik o‘yinlarni pedagoglar o‘ylab topadi. Bu o‘yinlar bog‘chalarning katta guruxlarida tarbiyalanadigan va boshlang‘ich sinflarda o‘qiydigan bolalarga mo‘ljallanadi (mas, tabiiyilmiy mavzularga, chet tili so‘zlarini eslab qolishga oid, loto o‘ynash va h. k.). Bu o‘yinlar bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, zehn kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolani sog‘lom va baquvvat bo‘lib o‘sishiga imkon beradi.

2.3. O‘yinning umumiy nazariyalari: K.Gross, S.Xoll, Y.Xeyzinga

Dastavval yuzaga kelgan va keng tarqalgan nazariya Shiller va Spenserning “ortiqcha kuch” nazariyasidir. Bu olimlar fikricha, bolalar kundalik xayotlari davomida o‘zlaridagi bor kuchni sarf qilib ulgura olmaydilar. Natijada ularda har kuni, guyoki, ortiqcha kuchi orqali chiqarib yuboradilar. Demak, bolalar o‘yin

faoliyatining asosiy manbai, guyoki bolalarda har kuni yig‘ilib qoladigan “Ortiqcha kuch”da bo‘lishi kerak.

Mashhur olimlardan Stenli Xoll bolalar o‘yin faoliyatining manbaini va mazmunini biogenetik qonun nuqtai-nazaridan tushuntiradi. Stenli Xollning fikricha, bolalar o‘yini- insoniyat taraqqiyoti davomida bosib o‘tilgan sodda xayotiy usullarning maxsus solnomasidan (yilnomasidan) bo‘lak narsa emas. Soddaroq qilib aytganda, bolalar o‘zlarining o‘yin faoliyatlarida uzoq o‘tmishdagi avlodlarimizning hayotiy yo‘llarini, mehnatlarini umumiy tarzda qayta yo‘llarini, mexnatlarini umumiy tarzda qayta takrorlaydilar. Masalan, bolalarning daraxtlarga chiqib, qushlarning uyalari buzishlari. Kamalakdan o‘q-yoy otib o‘ynashlari guyoki insoniyatning qadim zamondagi ovchilik bilan hayot kechirgan davrlarni eslatar emish.

Stenli Xollning nazariyasi bolalar o‘yinining kelib chiqish sabablarini noto‘g‘ri tushuntiradi. Agar biz bolalarning o‘yin faoliyatlariga diqqat bilan nazar solsak, Stenli Xollning fikri batamom xato ekanligini ravshan ko‘ramiz. Bolalar o‘zlarining xilma-xil o‘yin faoliyatlarida insoniyat tarixiy taraqqiyotidagi ayrim epizodlarni qayta takrorlash bilangina cheklanmaydilar. Bolalar aksincha, o‘zlari yashab turgan konkret sharoit bilan bog‘liq bo‘lgan zamonaviy o‘yinlarni ko‘prok o‘ynaydilar.

Stenli Xollning asosiy xatosi, bolalar o‘yining mazmuni va tuzilishini ular yashab turgan ijtimoiy muhitga hamda ular olayotgan ta’lim-tarbiya tizimlariga bog‘liq ekanligini hisobga olmaganidandir. Shu sababli Stenli Xoll bolalar o‘yinining mohiyatini va kelib chiqish sabablarini ilmiy ochib bera olmagan.

Agarda Stenli Xoll bolalar o‘yin faoliyatlarining mohiyatini insoniyatining uzoq o‘tmish hayoti bilan bog‘liq tushuntirmoqchi bo‘lsa, Jahon psixologiyasi fanida o‘yin nazariyasiga yirik ulush qo‘shgan olimlardan biri – K.Gross hisoblanadi.

Yigirmanchi asrlarning boshlarida o‘yin nazariyasi uchun eng qulay va sermahsul davr bo‘lgan. U o‘z zamondoshlari D.A.Kolossa va G.Spenserlarning fikr va mulohazalariga asoslangan holda o‘yin nazariyasini yaratdi. K.Gross o‘z g‘oyasini umumlashtirib, uni “mashqlantirish nazariyasi” yoki o‘z-o‘zini tarbiyalash deb ataydi K.Gross bolalar o‘yini faoliyatlarining mohiyatini insonning kelajak

hayoti bilan bog‘liq tushuntirishga intiladi. Gross nuqtai-nazaridan bolalar o‘yining mohiyati kelajakdagi ko‘p qirrari murrakab hayotga xozirlik ko‘rishdan iboratdir. K. Gross nazariyasining afzal tomoni shundaki, u bolalar o‘yinini ularning kamol topa borishlari bilan bog‘lab tushuntirishga intiladi. Biroq, Gross ham bolalar o‘yin faoliyatlarining manbalarini (motivlarini) ochib bera olmaydi. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, K. Grossning o‘yin nazariyasi ijtimoiy emas, balki biologik xarakterga egadir. Chunki, K.Gross o‘zining o‘yin nazariyasini Darvinning yashash uchun kurash g‘oyasi asosida tushuntirishga harakat qiladi. Shuning uchun K.Gross qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yib, bolalar o‘yini bilan hayvonlarda uchraydigan o‘yinni bir-biriga o‘xshatadi. Uning fikricha, bolalarning ham hayvonlarning ham o‘yinlari kelib chiqish va taraqqiy etish qonuniyat jihatidan bir xildir.

K.Grossning fikricha odam va yuksak darajada taraqqiy etgan hayvonlarning bolalari yosh bo‘lganlari uchun o‘ynamaydilar, aksincha ularning yoshlik davri o‘ynash uchun berilgandir. Odam bolasiga o‘ynash uchun berilgan davr hammadan ko‘p bo‘lganligi tufayli odam taraqqiyot darajasi jihatdan boshqa hayvonlardan ustun turadi.

Shunday qilib, Gross bolalar o‘yin faoliyatining mohiyati va ahamiyati biologik jihatdan maqsadga muvofiqligida aks etadi deb xulosa chiqaradi. K. Grossning mana shu xulosasidan ko‘rinib turibdiki, uning o‘yin haqidagi keng tarqalgan nazariyasi biologik xarakterga ega. Chunki, u o‘zining yuqoridagi nazariyasi bilan hayvonot olami uchungina mansub bo‘lgan biologik qonunni(yashash uchun kurash) mexanistik ravishda ijtimoiy hayotga, inson hayotiga tatbiq etmoqchi bo‘ladi. Bola nima uchun o‘ynaydi, o‘yinning asosiy motivi nimada, degan savolga Gross bola yaqin kelajak hayotiga duch keladigan qattiq kurashlarga hozirlik ko‘rish uchun o‘ynaydi, deb javob beradi.

Shu narsa xarakterliki, bolaning ayni davrdagi real taraqqiyoti uchun o‘yinning ahamiyati, bolalar o‘yinining mazmuni turli-tumanligi va o‘ziga xos asosiy xususiyatlari Grossning diqqat doirasidan chetda qolib ketadi. Shu sababga ko‘ra, Gross bolalar o‘yinining asosiy mohiyatini ilmiy asosda ochib bera olmagan.

Yana bir yirik psixologlardan K.Byuller ham bolalarning o‘yin faoliyatini o‘zicha tushuntirishga harakat kilgan. K.Byullerning fikricha, bolalar o‘yinining asosida shu o‘yin jarayonidan rohatlanish va lazzatlanishga yotadi. Bolalar faqat rohatlanish uchungina o‘ynaydilar. Byuller bolalarning o‘yin faoliyatlariga qaratilgan kuchli ehtiyojlarni rohatlanish bilan almashtirib yuboradi.

Psixologiya fanida o‘yin faoliyati nazariyasini ishlab chiqqan tadqiqotchilardan biri Ye.A.Arkin bo‘lib hisoblanadi. Uning fikricha, bolalar o‘yini va o‘yinchog‘i o‘yin nazariyasiga negiz bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bolalar o‘yin faoliyatining mohiyati mashhur psixologlaridan L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, D.B.Elkonin va boshqalarning asarlarida chet el psixologlarining o‘yin nazariyalarini qattiq tanqid ostiga olishlari bilan birga bolalar o‘yin faoliyatining mohiyatini chuqur va ishonchli ilmiy nuqtai-nazardan tushuntirib berganlar. Bu jihatdan xususan S.L.Rubinshteyn, E.A.Arkin, A.N.Leontevlarning asarlari diqqatga sazovordir.

Ma’lumki bolaning yoshi ulg‘ayib mustaqil harakat kilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar dunyosi ham kengayib boradi. Bolaning maktabgacha yoshidagi davrida, uning faoliyat doirasiga atrofidagi kuchi yetadigan, qo‘lidan keladigan hatti-harakatlardan tashqari, kattalarning faoliyatiga doir hatti - harakatlar ya’ni bolaning hali mutlaqo aqllari yetmaydigan faoliyatlar ham kiradi. Chunki, bolaning turmush tajribasi yetarli emasligi (ijtimoiy tajribani egallash nuqtai nazardan) va binobarin, haddan tashqari qiziquvchanliklari tufayli atrofdagi hamma narsa va hodisalarning bilishga intilaveradilar. Shu sababli bolalar kattalarning hatti-harakatlariga taqlid qilib turli o‘yinlarni tashkil qiladilar.

2.4. O‘yin yetakchi faoliyat sifatida: L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev.

O'yin faoliyati muammosi bilan ko'plab olimlar shug'ullangan: K. Gross, P. P. Blonskiy, D. B. Elkonin. L. S. Vygotskiy bolaning aqliy rivojlanishida o'yinning roliga katta e'tibor bergan. “O‘yinning mohiyati shundan iboratki, u istaklarni amalga oshirishdir, lekin individual istaklarni emas, balki umumlashgan istaklarni”, deb

yozgan edi L. S. Vygotskiy [1, 64-bet]. Maktabgacha yoshdagi davrda bolaning butun rivojlanishi uchun juda muhim bo'lgan turli xil ehtiyojlar va motivatsiyalar paydo bo'ladi. Bu yoshda bolada amalga oshirib bo'lmaydigan istaklar paydo bo'ladi, bu esa bevosita o'yinga olib keladi.

Bola o'yin faoliyatining motivlarini tushunmasdan o'ynaydi. Bu o'yinni ish va boshqa faoliyatdan sezilarli darajada ajratib turadi. Motivlar, harakatlar, motivlar ongga faqat o'smirlik davrida to'liq kirish mumkin bo'ladi. O'yin faoliyati bolalar faoliyatining boshqa shakllaridan farq qiladi, chunki o'yinda xayoliy vaziyat yaratiladi. Bu maktabgacha yoshda paydo bo'ladigan ko'rinadigan va semantik maydonlar o'rtasidagi tafovut natijasida yuzaga keladi. Xayoliy vaziyat xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga oladi. Bola o'zini ona, qo'g'irchoqni esa bola sifatida tasavvur qiladi, demak, u onalik xatti-harakatlari qoidalariga bo'ysunishi kerak. Xayoliy vaziyatga ega bo'lgan har qanday o'yin qoidalarga ega o'yindir va qoidalarga ega har qanday o'yin xayoliy vaziyatga ega o'yindir. Misol uchun, shaxmat o'ynash xayoliy vaziyatni yaratishni anglatadi, chunki parchalar faqat qoidalarda ko'rsatilgandek harakatlanishi mumkin.

O'yin faoliyatida bolaning intellektini rivojlantirish, vizual-samarali fikrlashdan majoziy va og'zaki-mantiqiy fikrlash elementlariga o'tish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Bolalarda juda erta yoshda namoyon bo'ladigan ijodiy jarayonlar eng yaxshi o'yinlar orqali ifodalanadi. Qo‘g‘irchoq bilan o‘ynab, o‘zini uning onasidek tasavvur qiladigan qiz, o‘yin davomida ovchiga, askarga, dengizchiga aylanadigan bola – bu o‘yindagi bolalarning barchasi eng haqiqiy va haqiqiy ijod namunalarini ifodalaydi. O'z o'yinlarida bolalar ko'rgan narsalarini takrorlaydilar. Bolalar o'yinlarida taqlid juda katta rol o'ynaydi.

Bolaning o'yinlari ko'pincha u kattalardan ko'rgan va eshitgan narsalarining aks-sadosi bo'lib xizmat qiladi, lekin bolaning oldingi tajribasining bu elementlari hech qachon o'yinda haqiqatda qanday bo'lsa, xuddi shunday tarzda takrorlanmaydi. L. S. Vygotskiyning fikricha, o'yin - bu tajribali taassurotlarni qayta ishlash, ular asosida bolaning o'zi ehtiyojlari va istaklariga javob beradigan yangi voqelikni

qurishdir [3,7b]. O'yindagi tasavvur oldingi tajribaga va o'yinchoqlarning real tabiatiga bog'liq. O'yin stsenariysiga jalb qilinganidan so'ng, bolalar o'yinning umumiy realizmini buzadigan g'oyalar yoki harakatlarni kamdan-kam qabul qiladilar. Misol uchun, ular mashinaning orqa o'rindig'ida o'tirib, o'zlarini haydovchi bo'lib ko'rsatishni xohlamaydilar. Bola haydovchining oldingi o'rindiqda o'tirganda mashinani boshqarishini tushunadi.

L. S. Vygotskiyning ta'kidlashicha, xayoliy rolni qabul qilish bolaning proksimal rivojlanish zonasini yaratadi. “Maktabgacha yoshning oxiriga kelib, tasavvur o'zi shakllangan tashqi tekislikdagi faoliyatdan nisbatan mustaqil bo'ladi. Taxminan xuddi shu davrda tasavvurda ijodkorlik elementlari paydo bo'ladi. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolaning tasavvurining bu xususiyatlari maktabga tayyorgarlik ko'rish uchun juda muhimdir, bunda bola to'plangan tushunchalar asosida o'z tajribasida hali uchramagan ob'ektlarning tasvirlari bilan harakat qilishi kerak" . O'yinda bola narsadan kelib chiqadigan motivlar va impulslarga emas, balki ichki moyillik va motivlarga tayangan holda, aqliy vaziyatda, ya'ni aqliy vaziyatda harakat qilishni o'rganadi.

K. Levin narsalar bolaning harakatlariga nisbatan harakatlantiruvchi kuchga ega deb hisoblardi. Masalan, qo'ng'iroq bolani jiringlash uchun, velosiped - uni minish uchun jalb qiladi. Ammo o'yinda narsalar o'zining motivatsion xarakterini yo'qotadi. Bola bir narsani ko'radi, lekin ko'rinadigan ob'ektga nisbatan butunlay boshqacha tarzda harakat qiladi. Bola o'z xulq-atvorida faqat biror narsa yoki unga ta'sir qiluvchi vaziyatni to'g'ridan-to'g'ri idrok etish bilan emas, balki bu vaziyatning ma'nosi bilan ham qat'iy bo'lishni o'rganadi.

O'yinda bolalar tuzilmani - ma'no-narsani yaratadilar, bu erda semantik tomoni, so'z va narsalarning ma'nosi uning xatti-harakatini belgilaydigan asosiy narsadir. Bola so'zni narsaning xususiyati sifatida qabul qiladi, u so'zni ko'rmaydi, lekin uning orqasida u belgilagan narsani ko'radi. Bola uchun tayoqqa tenglashtirilgan "ot" so'zi: "ot bor" degan ma'noni anglatadi, ya'ni u so'z orqasida turgan narsani aqlan ko'radi. Yosh bolada so'zlarning narsalar bilan yaqin birlashishi sodir bo'ladi, bunda semantik va ko'rinadigan sohalarning farqlanishi mumkin emas. Ikki yoshli bola,

oldida o'tirgan bolaga qarab, takrorlashi kerak: " Anvar yugurmoqda", lekin u o'z iborasini o'zgartirib: "Anvar o'tiribdi", deydi. O'yin maktab yoshidagi ichki jarayonlarga, ichki nutqqa, mantiqiy xotiraga va mavhum fikrlashga o'tadi. O'yinda bola eng ko'p xohlagan narsani qiladi va shu bilan birga u o'z xohish-istaklaridan voz kechib, qoidalarga bo'ysunadi. Ikki tomonlama affektiv reja paydo bo'ladigan vaziyat yaratiladi. Bola, masalan, tish shifokori qabulidagi bemor kabi o'ynab yig'laydi, lekin kimdir o'ynagandek quvonadi. Bola o'z xatti-harakatlarini muvofiqlashtiradi, har bir harakatini o'yin qoidalariga bo'ysundiradi. Qoidalar bilan o'ynash tufayli bolaning irodasi tug'iladi va rivojlanadi.

L. S. Vigotskiy qoidalarga rioya qilish qobiliyatini maktabda o'qishga tayyorgarlikning kaliti, tasavvur qilish qobiliyatidan butunlay mustaqil deb hisobladi. O'yin davomida o'zgarishi mumkin bo'lgan yashirin qoidalarga ega o'yinda ishtirok etish aniq va doimiy qoidalarga ega o'yinga qaraganda kognitiv, ijtimoiy va og'zaki ko'nikmalarning yuqori darajasini talab qiladi. Bundan tashqari, o'yinlarda tasvirlardan foydalanish, masalan, taxta yoki sport kabi qoidalarga ega o'yinlarga qaraganda ancha murakkab va uzoq fikrlash jarayonini o'z ichiga olgan yuqori kognitiv darajaga to'g'ri keladi .

O'yinning rivojlanishga bo'lgan munosabatini o'rganishning rivojlanish bilan bog'liqligi bilan solishtirish kerak. O'yinning orqasida ehtiyojlarning o'zgarishi va umumiy xarakterdagi ongdagi o'zgarishlar mavjud. O'yin rivojlanish manbai bo'lib, shuning uchun u proksimal rivojlanish zonasini yaratadi.

L. S. Vigotskiy ta'kidlaganidek, "xayoliy maydonda, xayoliy vaziyatda harakat qilish, o'zboshimchalik bilan niyat yaratish, hayot rejasini shakllantirish, irodaviy motivlar - bularning barchasi o'yinda paydo bo'ladi va uni rivojlanishning eng yuqori darajasiga qo'yadi, ko'taradi. uni to'lqinning cho'qqisiga ko'tarib, uni maktabgacha yoshdagi rivojlanishning to'qqizinchi to'lqiniga aylantiradi, u suvlarning butun chuqurligi bilan ko'tariladi, lekin nisbatan sokin bo'lganlar" [1;67]. Bola o'yin faoliyati orqali harakat qiladi. Harakat xayoliy vaziyatdan boshlanadi, haqiqiy holatga juda yaqin. Dastlabki vaziyatda qoida siqilgan shaklda. Vaziyatning xayoliy tabiati ham juda kichik. O'yin tasavvurga qaraganda ko'proq xotiraga o'xshaydi.

O'yin - bu bolaning maqsadli faoliyati. Maqsad boshqa hamma narsa uchun qilingan narsaga aylanadi. Maqsad, yakuniy nuqta sifatida, bolaning o'yinga bo'lgan ta'sirchan munosabatini belgilaydi. Sport o'yinlari oxiridagi maqsad o'yinning asosiy nuqtalaridan biri bo'lib, ularsiz o'z ma'nosini yo'qotadi.

O'yinning rivojlanishi oxirida qoida paydo bo'ladi va u qanchalik qat'iy bo'lsa, u qanchalik ko'p boladan moslashishni talab qilsa, bolaning faoliyatini qanchalik tartibga solsa, o'yin shunchalik shiddatli, o'tkir va qiziqarli bo'ladi. Shunchaki maqsadsiz, qoidasiz yugurish bolalarni hayajonlantirmaydigan sust, zerikarli o‘yin. Bolaga birinchi bo'lib yugurish yoqimli, chunki u g'alabasidan mamnun bo'ladi. O'yin qoidalari axloqiy qoidalardan sezilarli darajada farq qiladi, masalan, ruxsatsiz boshqa odamlarning narsalariga tegmaslik yoki o'qituvchiga salom aytmaslik. Bu farq bolaning o'zi uchun o'yin qoidalarini o'rnatishi bilan bog'liq. Bu ichki o'zini o'zi belgilash va o'zini o'zi cheklash qoidasi.

O'yinda bola erkindir, chunki u o'z harakatlarini o'zining "men", uning qiziqishlari va ehtiyojlariga qarab belgilaydi. Ammo bu xayoliy erkinlik. U o'z harakatini ma'lum bir ma'noga bo'ysundiradi, narsaning ma'nosiga asoslanib harakat qiladi. Bola o'z harakatlarini tushunishni, har bir narsaning ma'lum bir ma'noga ega ekanligini tushunishni o'rganadi. Bolaning shaxsiyatini shakllantirish nuqtai nazaridan xayoliy vaziyatni yaratish mavhum fikrlashni rivojlantirish yo'li deb hisoblanishi mumkin.

O'yin maktabgacha yoshdagi o'ziga xos xususiyatdir. Uch yoshgacha bo'lgan bolaning o'yini o'smirning o'yini kabi jiddiy o'yin xarakteriga ega. Yosh bolaning jiddiy o'yini shundaki, u o'ynab, xayoliy vaziyatni haqiqiydan ajratmaydi. L. S. Vygotskiyning fikricha, maktab o'quvchisi uchun o'yin cheklangan faoliyat shakli shaklida, birinchi navbatda, sport o'yinlari shaklida mavjud bo'lib, u maktab o'quvchisining umumiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, lekin bir xil ahamiyatga ega emas. o'yin maktabgacha yoshdagi bola uchun mavjud.

Maktab yoshida o'yin yo'qolmaydi, balki haqiqatga bo'lgan munosabatga kirib boradi. Bu maktabda va ishda davom etadi. O'yin darsda o'quv materialini tanishtirish, mustahkamlash va nazorat qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi, taranglikni

bartaraf etishga va o'quvchilarning hissiy holatini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, rivojlanishning har qanday bosqichida, har qanday shaklda, o'yin bolaning axloqiy, intellektual va hissiy rivojlanishiga yordam beradi. O'yin faoliyati doirasida ta'lim faoliyati shakllana boshlaydi, keyinchalik u bolaning rivojlanishida etakchi bo'ladi.

O'yin his-tuyg'ularning rivojlanishiga va xulq-atvorni ixtiyoriy tartibga solishga yordam beradi, chunki o'yin paytida bola qoidalarga bo'ysunadi. O'yin munosabatlari orqali bola kattalarning xulq-atvori va munosabatlari bilan tanishadi va asosiy muloqot qobiliyatlari va o'z-o'zini anglash qobiliyatiga ega bo'ladi. O'yinda yangi motivlar va ehtiyojlar shakllanadi: raqobatbardosh, o'yin; ishlab chiqarish faoliyatining yangi turlari paydo bo'lmoqda.

Yetakchi psixologlardan biri A.N. Leontyev o‘zining “Maktabgacha yoshdagi o'yinning psixologik asoslari” nomli asarida bolalar o‘yining tuzilishi, paydo bo‘lishi, o‘yin motivlari xususida qimmatli fikrlarni keltirib o‘tadi. O‘yinga ta’rif keltirib, “Motiv jarayonning o'zida bo'lsa, bunday tuzilma faoliyatning qaysi turiga xosdir? Bu odatda o'yin deb ataladigan faoliyatdan boshqa narsa emas. ...Bu insonning ob'ektiv faoliyati bo'lib, u bolaning inson ob'ektlari dunyosini anglashi uchun asos bo'lib , bola o'yinining mazmunini belgilaydi” – deb yozadi. Ushbu asarning ahamiyati shundaki, faoliyat nazariyasi asoschisi A. Leontev o‘yinni maktabgacha yoshda asosiy faoliyat ekanligini e’tirof etgani holda bola aqliy taraqqiyoti uchun o‘yin faoliyati emas balki o‘yin jarayonidagi harakatlar muhimligini isbotlab beradi. Uning tushuntirishicha, “Maktabgacha yoshdagi o'yinning etakchi roli umume'tirof etilgan. Biroq, o'yin etakchi rol o'ynaydigan bosqichda bolaning aqliy rivojlanish jarayonini chinakam o'zlashtirish uchun, albatta, o'ynagan rolni tanib olishning o'zi etarli emas. Buning uchun siz o'yinning asosiy roli nima ekanligini aniq tushunishingiz kerak, o'yin qonunlarini va uning rivojlanishini ochib berishingiz kerak.

Bolaning aqliy rivojlanishini ongli ravishda nazorat qilish, birinchi navbatda, uning voqelikka asosiy, etakchi munosabatini nazorat qilish, etakchi faoliyatni boshqarish orqali amalga oshiriladi. Bunday holda, bunday etakchi faoliyat o'yin hisoblanadi; shuning uchun siz bolaning o'yinini qanday boshqarishni o'rganishingiz

kerak. Buning uchun esa siz uning qonunlariga bo‘ysunishingiz kerak, aks holda o‘yinni boshqarish o‘rniga, oxir-oqibat o‘yinni buzasiz. Umuman etakchi faoliyat nima? Biz etakchi faoliyatni nafaqat bola rivojlanishining ma'lum bir bosqichida tez-tez sodir bo'ladigan faoliyat deb ataymiz . O'yin, masalan, bola uchun eng ko'p vaqtni olmaydi. O'rtacha, maktabgacha yoshdagi bola kuniga 3-4 soatdan ortiq o'ynamaydi. Bu shuni anglatadiki, bu jarayon qancha vaqt talab qiladigan masala emas. Biz bunday faoliyatni etakchi faoliyat deb ataymiz, uning rivojlanishi bilan bog'liq holda bola psixikasida katta o'zgarishlar ro'y beradi va uning doirasida bolaning rivojlanishining yangi, yuqori bosqichiga o'tishini tayyorlaydigan aqliy jarayonlar rivojlanadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, o'yin o'yin harakatining motivi harakat natijasida emas, balki jarayonning o'zida ekanligi bilan tavsiflanadi”.

Yana bir o‘yin psixologiyasiga alohida hissa qo‘shgan yetakchi psixolog D.B.Elkonin o‘yin faoliyatini ya’ni jarayonini quyidagi asosiy elementlariga ajratadi:

1. syujet (nima o‘ynayapti);
2. mazmun (qanday o‘ynayapti);
3. rol;
4. xayoliy vaziyat;
5. o‘yin qoidasi;
6. o‘yin harakatlari va operatsiyalari;
7. o‘yin munosabatlari.

D. B. Elkoninning shu masalaga doir qiziqarli asari “O‘yin psixologiyasi” haqida alohida to‘xtalamiz.

2.5. D.Elkonin “O‘yin psixologiyasi” asari va uning ahamiyati

D. Elkonin “O‘yin psixologiyasi” asarining dunyo kelishi haqida mazkur monografiyaning kirish qismida “tadqiqot biografiyasi” nomli so‘zboshisida atroflicha tushuntirish beradi.

D. B. Elkoninning o‘yin psixologiyasiga qiziqishi 1932 yildan o‘z qizchalari o‘yinlarini kuzatish va bolalar psixologiyasidan ma’ruzalarga o‘qish jarayonida

paydo bo‘ladi. Uzoq yillik kuzatuvlari, L.Vigotskiy bilan o‘yin va uning bola psixik taraqqiyotidagi roli haqida suhbatlari natijasida, keyinchalik 1936 yilda A. N. Leontevning unga yo‘llagan xati orqali berilgan savollar, mulohazalari uni yana bu muammo ustida ishlashiga turtki bo‘ldi. 1936 yildan boshlab D.Elkoninning ilmiy ishlari A.N.Leontevning ilmiy g‘oyalariga bog‘liq ekanligini tushunadi. Mazkur monografiya ilk bor 1966 yilda e’lon qilinadi. Asar so‘zboshi o‘rnida tadqiqotning biografiyasi to‘liq keltirilganligi va so‘nggida uning ustozi hisoblangan L.S.Vigotskiyning maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi bo‘yicha Leningrad(Sankt-Piterburg) pedagogika institutida o‘qigan ma’ruzalari konspekt yozuvlarining keltirilganligi bilan qimmatli hisoblanadi.

Bu asar VI bobdan iborat bo‘lib asarda o‘yin va san’atning ilk ko‘rinishi, rolli o‘yinlarning ijtimoiy tabiati, o‘yinchoqlar tarixi, o‘yin faoliyati shakllarining tarixiy kelib chiqishi, o‘yin nazariyalari, ontogenezda o‘yinning paydo bo‘lishi, maktabgacha yoshda o‘yining rivojlanishi, o‘yin va psixik taraqqiyot masalalari keng yoritilgan mumtoz asardir. Bugun psixologiyada bu asarning o‘rni va qimmati haqida ko‘plab tadqiqotchilar ijobiy fikrlarni bildirishmoqda.

D.B.Elkonin o‘z tadqiqotida rolli o‘yinning syujeti bilan bir qatorda, uning mazmuni ham mavjud ekanini yozadi, Uning fikricha, o‘yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jixatini aniqroq aks ettirishi o‘yinning mazmunini tashkil qiladi.

Eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o‘yinlar katta rol o‘ynaydi. Bog‘cha yosh davrida harakatning o‘sishida o‘yinning ta’siri haqida gap borganda, *birinchidan*, o‘yinni tashkil qilishning o‘zidayoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o‘stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi. *Ikkinchidan*, o‘yinning bola harakatiga ta’sir etishini sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko‘nikmalarini sub’ekt aynan o‘yin paytida emas, balki bevosita mashg‘ulot orqali o‘zlashtiradi. *Uchinchidan*, o‘yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan o‘yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta’minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi.

Bolalar laboratoriya sharoitiga nisbatan o‘yinlarda ko‘proq so‘zlarni eslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq ochishga yordam beradi. Tajribada yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini beradi:

a) o‘yinda bola tomonidan ma’lum rol tanlash va uni ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni eslab qolishni talab qiladi;

b) shu boisdan personajning nutq boyligini egallash, xatti-harakatini takrorlashdan iborat ongli maqsad bolada oldinroq paydo bo‘ladi va oson amalga oshadi.

D.B.Elkoninning shaxs shakllanishi klassifikatsiyasi yetakchi faoliyat nazariyasiga (A.N.Leontev ta’limotiga) asoslanib, har bir taraqqiyot pallasida u yoki bu ko‘rinishdagi faoliyat ustunlik qilish ehtimoliga suyanadi. Insonning shaxs sifatida kamol topishi jarayonidagi yetakchi faoliyat roli ushbu nazariyaning asosini tashkil qiladi.

2.6. Psixologiya fanida o‘yin psixologiyasi muammolari o‘rganilganligi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning eng asosiy va etakchi faoliyati bu o‘yindir. Yetakchi faoliyat deb bolaning ayni shu yoshida tez – tez ko‘zga tashlanib turadigan xatti – harakatiga aytamiz.

Etakchi faoliyat shunday faoliyatki, bu faoliyat tufayli bolaning psixik jihatdan o‘sishida jiddiy o‘zgarishlar yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, asosiy faoliyat jarayonida bolaning barcha psixik jarayonlari anchagina o‘sadi.

O‘yin bola hayotida shunday asosiy faoliyatki bu faoliyat jarayonida bola erkin ixtiyoriy hatti-haraktalarni amalga oshiradi va yangi ko‘nikmalarni oson o‘zlashtiradi. O‘yin shu qadar universal, shu qadar ko‘p qirrali va qudratli faoliyatdirki, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni o‘yindan boshqa faoliyatda har tomonlama rivojlanishi, o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishini tasavvur etish qiyin.

O‘yin faqat tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni bilish vositasi bo‘libgina qolmay balki, qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o‘yinlarda maktabgacha yoshdagi bolalarni barcha psixologik xususiyatlari shakllanadi. Shu nuqtai nazardan o‘yin maktabgacha ta’lim-tarbiya ishlarini yo‘lga qo‘yishda markaziy o‘rinda turadi.

O‘yin jarayonida maktabgacha yoshdagi bolaning barcha psixik jarayonlari tarkib topishida imkon bo‘ladi. Chunki o‘yin faoliyati bolalarni diqqat va xotirasi, nutqi, xayoli, hissiyoti, mehnatga oid malakalari va qobiliyatlari namoyon bo‘ladi.

Rolli o‘yin – maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyatidir. Rolli o‘yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muhim faoliyati bo‘lib, ular bunday o‘yinda go‘yo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifalari va ishlarini amalda bevosita bajaradilar. Shu boisdan o‘yin faoliyati uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muhit voqealari, oilaviy turmush hodisalari, shaxslararo munosabatlarini umumlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar.

Bolalar kattalarning turmush tarzi, his-tyyg‘usi, o‘zaro muomala va muloqotlarining xususiyatlarini, o‘ziga va o‘zgalarga, atrof-muhitga munosabatlarini yaqqol voqelik tarzida ijro etish uchun turli o‘yinchoqlardan, shuningdek, ularning vazifasini o‘tovchi predmetlardan ham foydalanadilar. Ammo, shuni ham alohida ta’kidlash joizki, ijtimoiy va maishiy voqelikning barcha jabhalarini qamrab oladigan rolli o‘yin ularda birdaniga emas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi, mohiyati va mazmuni jihatidan oddiydan murakkabga qarab takomillashib boradi.

Rolli o‘yin faoliyatini vujudga keltiruvchi eng zarur omillardan biri - bolada o‘z hatti-harakatlarini kattalar hatti-harakati bilan solishtirish, undan nusxa olish, aynan unga o‘xshatish tuyg‘usining mavjudligidir. Xuddi shu sababli kattalar va ularning hatti-harakatlari bolaning ham tashqi, xam ichki ibrat namunasi bo‘ladi va kattalarning xulq-atvori, yurish-turishining ham ob’ekti, ham sub’ekti hisoblanadi.

Bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi xilma-xil o‘yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N.M.Aksarinaning

ta’kidlashicha, o‘yin o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit bo‘lishi lozim:

a) taassurotlar tarkib topishi;

b) har xil ko‘rinishdagi o‘yinchoqlar va tarbiyaviy ta’sir vositalarining muhayyoligi;

v) bolalarning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta’sir ko‘rsatish uslubi hal kiluvchi rol o‘ynaydi.

O‘yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, balki bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda o‘z xulqini boshqarish ko‘nikmalarini tarkib toptirishga bog‘liq psixologik muammoni o‘rgangan Z.V.Manuylekoning fikricha, biror maqsadga yo‘naltirilgan mashg‘ulotga nisbatan o‘yinda xulq ko‘knikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin,

Ayniqsa, bu omil maktabgacha yosh davrining xususiyati sifatida o‘zining yorqin ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘z xulqini o‘zi boshqarish ko‘nikmasi o‘yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda ham qariyb baravarlashadi. Ba’zida ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida o‘yindagiga qaraganda yuqoriroq ko‘rsatkichga ham erishishlari mumkin. Yuqoridagi mulohazalar asosida umuman aytganda, o‘yin va o‘yin faoliyati bolada o‘z xulqini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolaning aqliy o‘sishi haqida fikr yuritilganda, shuni ham aytib o‘tish kerakki, narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, sub’ekt o‘yin paytida faol harakat qilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga o‘tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga xayoliy ko‘rinishiga o‘tishida unga tayanch nuqtasi bo‘lishi kerak, vaholanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini o‘tovchi narsalarning aksariyatidan o‘yinda bevosita, ob’ekt sifatida foydalaniladi.

O‘yin faoliyatida mazkur jismlar qandaydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar to‘g‘risida fikrlash uchun xizmat qiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi harakatning yaqqol narsa bilan bog‘liq jihatini aks

ettiradi. Yuqorida aytilganidek, narsa bilan o‘yin harakatlarining takomillashuvi harakat shakli xususiyati, bosqichi kabilarni qisqartirish va umumlashtirish hisobiga amalga oshiriladi. O‘yin harakatlarining qisqarishi va umumlashuvi ularning aqliy ko‘rinishidagi mantiqan izchil, yig‘iq shaklga o‘tishning asosini tashkil qiladi.

Psixolog J.Piaje o‘yinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy e’tibor bilan qarab, bu ish ramziy ma’noli tafakkur shakllanishining tayanchi, degan xulosaga keladi. Lekin, bu xulosa vaziyatni aks ettirishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li ekanligini bildirmaydi. Shuning uchun narsaning nomini o‘zgartirish bilan bolada tafakkur va aql-zakovat o‘sishini kutish ham mantiqqa mutlaqo ziddir. Aslida narsalarni qayta nomlash emas, balki o‘yin harakatlarining xususiyatini o‘zgartirish bolaning aqliy o‘sishiga sezilarli ta’sir o‘tkaza oladi.

Darhaqiqat, o‘yin faoliyatida bolalarda harakatning yangi ko‘rinishi, ya’ni uning fikriy, aqliy jihati namoyon bo‘ladi va shuning uchun o‘yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki ko‘rinishi vujudga keladi. Bolaning aqliy kamol topishida yoki uning umumiy kamolotida o‘yinning muhim ahamiyat kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali o‘z ifodasini topadi.

Bola o‘yin faoliyatida maktab ta’limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Rolli o‘yin faqat alohida olingan psixik jarayon uchun ahamiyatli emas, balki bolada shaxs xususiyati va fazilatlarini shakllantirishda ham zarurdir.

Binobarin, katta yoshdagi odamlar rolini tanlab, uni bajarish bolaning his-tuyg‘ularini qo‘zg‘atuvchilar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Chunki, o‘yin davomida bolada har xil xohish va istaklar tug‘ila boradi, bular boshqa narsalarning tashqi alomatlari, o‘ziga rom etishi sababli hamda bolaning ixtiyoridan tashqari, tengdoshlarining ta’siri ostida tug‘iladi.

D. B. Elkonin shaxs shakllanishining quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1) go‘daklik davri - tug‘ilgandan to 1 yoshgacha; asosiy faoliyat - bevosita emotsional muloqot,

2) ilk bolalik davri - 1 yoshdan to 3 yoshgacha; asosiy faoliyat - predmet bilan manipulyatsiya (nozik harakat) qilish,

3) maktabgacha davri - 3 yoshdan to 7 yoshgacha; asosiy faoliyat - rolli o‘yinlar, asosiy faoliyat - o‘qish,

5) kichik o‘smirlik davri - 10 yoshdan to 15 yoshgacha; asosiy faoliyati - shaxsiy ichki (intim) muloqot,

6) katta o‘smirlik yoki ilk o‘spirinlik yosh davri - 16 yoshdan to 17 yoshgacha; asosiy faoliyat - o‘qish-kasb tanlash.

D.B.Elkoninning shaxs shakllanishi bosqichlari muayyan ko‘lamdagi psixologlar tomonidan iliq qarshi olinishiga qaramasdan, ma’lum darajada munozarabob o‘rinlar yo‘q emasligini e’tirof qilindi.

Bizningcha, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlari faqat alohida olingan faoliyat doirasi ta’siri bilan chegaralanib qolmasligi, balki oraliq bosqichlari ham mavjudligi va undan kelib chiqqan holda ruhiy yangilanishlarda ham o‘zgarish bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Shunga qaramasdan, D.B.Elkoninning mazkur nazariyasi psixologiya fanida, ayniqsa, yosh davrlari psixologiyasida eng ommaboplardan biri bo‘lib qolmoqda.

III BOB. ONTOGENEZDA O‘YINNING PAYDO BO‘LIShI

3.1. Bola hayotining birinchi yilida harakatlar va kattalar bilan muloqotning o‘sishi.

Go‘dakning bir yoshgacha davrdagi psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha qator tadqiqotlar mavjud. Shular orasida N.L.Figurin, M.P.Denisova, M.Yu.Kistyakovskaya, A.Vallon, D.B.Elkonin, E.A.Arkin, S.Fayans, Sh.Byuler, F.I.Fradkinalarning asarlari alohida ahamiyatga molikdir.

S.Fayans tajribasida go‘dakka chiroyli va jozibador o‘yinchoqlar 9 sm masofadan ko‘rsatilganda u butun vujudi bilan ularga intilgan, keyinchalik oraliq 60 sm bo‘lganida bolaning intilishi, qo‘l cho‘zishi, sustlashgan, cho‘zilishi, itiyorsiz harakati mutlaqo so‘ngan. Bola o‘yinchoq bilan bir qatorda turgan katta kishiga ham ana shunday befarq qaragan. Masofa qanchalik qisqarsa, bolaning unga intilishi, qiziqishi shunchalik kuchayib borishini kuzatish mumkin.

Tadqiqotchi A.V.Yarmolenko olti oylik go‘daklarda jozibali narsalarning o‘zaro qiyosiy tasnifini tadqiq qilgan. Muallif olgan ma’lumotlarga qaraganda go‘dak behisob jismlar orasida insonni (katta yoshli odamlarni) tobora aniqroq, ravshanroq ajrata boshlagan. Shu bilan birga harakatsiz ko‘ruv qo‘zg‘atuvchisiga diqqatni to‘plash 26 sekunddan 37 sekundgacha harakat qilmayotgan odamga bolaning tikilishi, 34 sekunddan 38 sekundgacha xarakatdagi ko‘ruv qo‘zg‘atuvchisiga qarashi 41 sekunddan 78 sekundgacha, harakatdagi insonga e’tibor berishi 49 sekunddan 88 sekundgacha ortgan. Tajribada go‘dakning xarakatlanayotgan odamga diqqatini to‘plab turishi 4 marotaba ortgani aniqlangan. Go‘dak jonsiz narsalarga qaraganda odamga diqqatini barqaror qaratishi uning kattalarga munosabati o‘zgarganidan emas, balki ular bilan aloqaga kirishganda sust reseptor o‘rnini faolrog‘i egallaganidandir. Go‘dakda fazoviy tassavvurning boyishida jumlalarning idrok qilishidagi farqlashning takomillashuvi muhim vosita hisoblanadi. Hayot tajribasi ortib borishi mashqlar natijasida jismlarning alomatlari va belgilarni uquvi paydo bo‘ladi.

Go‘dak yoshiga to‘lguncha juda ko‘p harakatlarni o‘zlashtiradi. Bolaning qiladigan turli tuman harakatlari orasida qo‘l –harakatlari psixik taraqqiyoti uchun muhim

ahamiyatga ega. 4 oylik bola narsalarga qo‘l cho‘zadigan, ammo u xali o‘zining qo‘l harakatlarini idora qilolmaydi. 5 oylik bo‘lgach narsalarni paypaslab ko‘radigan bo‘ladi.

Bolaning psixik taraqqiyotida murakkab harakatlarni egallab borish katta rol o‘ynaydi. 6 oylik bo‘lgach, mustaqil o‘tara oladigan bo‘ladi. 3-6 oylikacha bolalar katta yoshdagi odamlar bilan tanlab munosabatda bo‘ladi. Bolada yaqin kishilarga bog‘lanish sodir bo‘ladi, shu sababli ona yoki enagasini ko‘rish bilan qichqirib qarshilaydi, talpinadi. Yarim yoshga to‘lganida atrofdagilar qatori qarindoshlariga, qo‘ni – qo‘shnilariga ko‘nikib boradi.

8 oylik bo‘lgach yana bir murakkab harakatni - emaklashni o‘rganadi. Bola psixikasining rivojlanishida bu yangi harakatning ahamiyati katta. Emaklay boshlagach, bolaning atrofdagi narsalar bilan munosabati kengayadi. U bir narsani olib ikkinchi narsaga o‘rib taqillatadi va chiqayotgan ovozga quloq soladi. Bu yoshdagi bolalar biror narsaning qopqog‘ini ochib yopishni yoqtiradilar. Bunday harakatlar bolaning qo‘l muskullarini mustahkamlaydi. Yura boshlagan bolaning faolligi kun sayin ortib, erkin harakat qila boshlaydi. Bemalol yuradigan bola tor uy doirasidan tashqariga chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. 6-7 oylik bolalarda taqlid qilish harakatlari paydo bo‘ladi. Bola psixikasining taraqqiyotida taqlidning roli katta, bola juda ko‘p harakatlarni va nutqni asosan taqlid orqali egallaydi.

Go‘daklarda katta yoshdagi kishilarning faoliyatini tashkil qilish asosida unga atrofdagi olam haqida dastlabki tafakkur qilishning oddiy formalari vujudga keladi. 6-7 oylik bola ismi aytilgan narsani ko‘rsatadi. Ya’ni harakat xotirasi paydo bo‘ladi. xotiraning dastlabki ko‘rinishlari asta –sekinlik bilan paydo bo‘ladi. Masalan, go‘dak o‘yinchoqni o‘ynayapti, o‘yinchoq ovoz chiqaruvchi moslamaga biriktirilgan bo‘ladi. Go‘dak o‘yinchoqni qo‘llari yordamida ezsa undan ovoz chiqadi. Bola oradan ancha o‘tsa ham o‘sha o‘yinchoqni olib ezadi. Chunki undan tovush chiqishi mumkinligini biladi. Demak, xotirasida o‘yinchoqni bosish harakati qolgan va u shu tufayli ham ezish harakatini bajaradi.

Go‘dak shu tariqa kichik harakatlarni eslab qoladi va keyingi gal shu harakat orqali natijaga erishishi mumkinligini biladi. Masalan boladan “Qo‘lingiz qani” deb

so‘ralsa, unga qo‘l a’zosi qaysiligini tushuntirilsa va uni xotirasida qolishi uchun bir necha marta shu mashq takrorlanilsa, u qo‘l a’zosi qaysiligini tushunadi. Kun sayin ham takrorlab beradi. Agar 10-11 oylik go‘dak qizcha qo‘liga qo‘g‘irchoq olsa albatta uni “tebratib” uxlatishga harakat qiladi. Bola harakatlanganda o‘z xotirasida saqlab qolgan ko‘nikmalardan foydalanadi Go‘dak 5-6 oyligidan “sermahsul” harakat natijasida ya’ni 2 ta jismdan foydalanish 7 oylikda uyg‘unlikda fikrlashni yuzaga keltiradi. Emaklash orqali atrofda turgan o‘yinchoqqa intiladi va uni olib o‘ynaydi. Go‘dakning jismlar bilan bevosita aloqaga kirishuvi ular yordamida harakatlanish narsalarning yangi xossa va xususiyatlarini bilib olishga imkon yaratadi.

Hayotining ikkinchi yarim yilligida bolaning predmetlar bilan har xil harakatlarning amalga oshirishdagi ildamligi faoliyatining murakkablashuvi fazoda o‘rin almashtirishning yangi shakllari vujudga kelishi uni katta yoshdagi odamlarga bog‘laydi. U o‘yin orqali fikrlagan narsalarini tashqariga chiqarishga harakat qiladi. Bu uning muloqotga kirishuvida ko‘rinadi. Agar go‘dak 3-4 oyligidan gu-gulashga intilsa 5-6 oyligida ayrim tovushlarni qiyqiriq orqali ifodalaydi. Nutqni idrok qilishni va tushunishni oxirgi bosqichi 9-10 oyligidan boshlanadi.

Tadqiqotchi F.I.Fradkina kattalarning go‘dakka qaratilgan nutqidan quydagicha ta’sirlanish holatlarini aniqlagan:

1) nomi aytilgan buyumga javob tariqasida burilib qarash(7-8 oyligida)

2) turmush tajribasida egallagan harakatlarini kattalar eslatishi bilan bajarishga intilish (8-9 oyligida)

3) kattalarning nutq orqali ko‘rsatmasidan oddiy nutq topshriqlarini bajarish (9-10 oyligida)

4) kattalarning nutq orqali ko‘rsatmasi bo‘yicha zarur predmetni tanlab olish (10-11 oyligida)

5) mumkin emas ta’qiqlovchi so‘z yordamida harakatni to‘xtatish (12 oyligida)

3.2. M.Lisina: ”Bola – katta (odam)” hamda “bola- predmetli harakat – katta odam” munosabatlari haqida

M.I.Lisina tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri - bu muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V.Zaporojes va M. I. Lisinalar tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi:

1) e’tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo‘ladi;

2) kattalar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji tug‘iladi;

3) avvalgi barcha ehtiyojlarga kattalar tomonidan hurmat qilish ehtiyoji tug‘iladi;

4) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o‘zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi.

Psixolog M.I.Lisina va uning shogirdlari ta’kidlaganidek, chaqaloqlik yosh davrida bola ko‘z qarashlari, ixtiyorsiz harakatlari, sharpaga javobi, tamshanishi orqali kattalar bilan aloqa bog‘laydi. Ko‘p marta takrorlanish natijasida shartli refleks shaklida vujudga kelgan ana shu jarayonlar muloqotga aylanadi. Chaqaloqning yangi sharoit va muhitga moslashishidan kelib chiquvchi bu holat ko‘nikish ko‘rinishida muloqot vazifasini o‘tay boshlaydi. Biroq bu muloqot noverbal ravishda (so‘zlar ishlatilmay) amalga oshadi va sodda shakldagi, tor ko‘lamli shaxslararo munosabatni aks ettiradi.

Katta yoshdagi odamlarning chaqaloq bilan muloqotda bo‘lishi unga o‘yinchoq ko‘rsatishi, termulishi, erkalashi unda tashqi ta’siriga javob reflekslarini faollashtiradi.

Go‘dak yarim yoshida ular bilan muloqotga kirishish jarayoni ikki xil xususiyat kasb etadi. Avval muloqot bir tomonlama, faqat ta’sir o‘tkazish bilan chegaralansa, endi teskari munosabat ham vujudga keladi. Bola kattalarning kiyimini tortqilaydi. Ularga qichqiradi va boshqa harakatlardir. Mazkur holat bolaning kattalar bilan muloqoti rivojlanishining yuqori bosqichga ko‘tarilishidan dalolat beradi. Bola hayotining ikkinchi yarim yilligida kattalar nutqini idrok qilish va uni tushunishi rivojlanadi. Bolaning hamkorligidagi o‘yin faoliyati ham his –

tuyg‘uga berilishi ham nutq va faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bola juda ko‘p harakatlarni taqlid asosida egallaydi. Bolani 5-6 oylikdan nutqni tushunishga o‘rgatish lozim. Buning uchun bolaga o‘yinchoq yoki biror narsaning bir necha marta nomini aytib ko‘rsatish kerak. Keyinchalik bolaga ba’zi narsalarning nomi aytilganda, u ko‘zlari bilan shu narsani qidirib topadi. Masalan chapak –chapak deb, takrorlab turib chapak chalinsa bola shu so‘z aytilishi bilan chapak chaladigan yoki bolaga “assalomu alaykum” ta’zim qilib ko‘rsatilsa, bola so‘zni eshitishi bilan ta’zim qiladigan bo‘ladi. Bular barchasi bolaning dastlabki o‘yinlari sifatida qaralishi mumkin.

3.3. Bolaning predmetli harakatlari va kattalar bilan muloqoti rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari

Ilk yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyat turi - predmetlarni o‘rganish, predmetlar bilan manipulyativ harakat hisoblanadi. Go‘daklik davridagi bolalarga nisbatan, ilk bolalik davridagi bolalar atrof muhitdagi narsa va hodisalarga nisbatan ko‘proq qiziqish bilan qaraydilar. Agar, go‘dak bola qo‘liga ushlagan narsani oddiy harakatlar bilan kuzatsa, 2-3 yoshdagi bola shu predmet qismlarini diqqat bilan o‘rganganidan so‘nggina, o‘z amaliy faoliyatida ishlata boshlaydi. Bolani dastlab, ayni shu predmetlarning qo‘llanish vazifasi, mohiyati qiziqtirib, u o‘z savoliga javob olish maqsadida ko‘pincha kattalarga ***“Bu nima?»*** degan savol bilan murojaat qiladilar. 1-3 yoshdagi bola shakllanishda psixik rivojlanishning o‘ta ahamiyatliligini inobatga olgan holda, ayrim psixologlar (R.Zazzo) inson tug‘ilganidan to yetuklik davrigacha bo‘lgan psixik rivojlanish asosining taxminan o‘rtalari, 3 yoshga to‘g‘ri keladi, degan mulohazani bildiradilar. Bu yoshdan boshlab, bolalar predmetlarni o‘rganish olamiga qadam qo‘yadilar. U endi kattalar bilan nutq orqali muomala-munosabatda bo‘la oladi va sodda axloq qoidalariga amal qila boshlaydilar. Kattalar bilan bo‘ladigan muloqoti tufayli bola atrof hayot haqida ko‘proq ma’lumot oladi. Nutq - bu yoshlarda nafaqat muloqot, balki bola tafakkurining rivojlanishi va o‘zini-o‘zi, shuningdek, bilish jarayonlarini boshqarish vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi. Bola ayrim so‘zlarga

tushuna boshlagach, kattalar bilan ko‘proq aloqada bo‘lishni hohlaydi.Bundan foydalanib bola bilan ko‘proq munosabatda bo‘lishga uni nutqini o‘stirishga harakat qilish kerak. Buning eng oson yo‘li u bilan o‘yin o‘ynashdir. Masalan kuchukni rasmini ko‘rsatib “mana vov-vov” , xo‘roz yoki tovuqning rasmini ko‘rsatib “Kuk-kuk” deyish mumkin, bunda bolalar shu kabi elementlarni ravon talaffuz qilishga o‘rganadi. Bundan tashqari 9-10 oylik bolalarda o‘z tana a’zolarining nomlarini o‘rgatish lozim. Bolaga “mana og‘zi, mana ko‘zi” deb bir necha marta takrorlab ko‘rsatilgandan keyin bola o‘z a’zolarining nomini aytish bilan birin- ketin ko‘rsatadigan bo‘ladi. Hali yoshiga to‘lmagan bolalar har bir so‘zni shu so‘z orqali foydalangan aniq narsalar bilan bog‘lay olmaydilar. Bunda nutqni assotsiativ tarzda bog‘lash orqali emas, balki intonatsiya va imo –ishoralar orqali tushunadi. O‘zgalar nutqini tushunish ko‘rish idrokining zamirida vujudga keladi. Bunda katta odam o‘zi jism va rasmlarga bolaning diqqatini jalb etadi.
Agar go‘dak 3-4 oyligidan gu-gulashga intilsa 5-6 oyligida ayrim tovushlarni qiyqiriq orqali ifodalaydi. Nutqni idrok qilishni va tushunishni oxirgi bosqichi 9-10 oyligidan boshlanadi.

Bolada predmetli harakatni o‘stirish murakkab jarayondir. Ilk bolalik davri amaliy harakat tafakkuri vujudga keladigan davr hisoblanib, qo‘l jarayonlari turli narsalar va qurilmalar bilan almashinadi. Jismlar bilan turli harakatlarni o‘zlashtirishda ulardagi muhim va o‘zgarmas alomatlarni ajratish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi, natijada umumlashtirish va umumiy tushunchalarni o‘zlashtirish jarayoni ro‘y beradi. Yangi sharoitda predmetli harakatdan foydalanish bolaning aqliy o‘sishiga ijobiy ta’sir qiladi. Bolaning o‘z hatti harakatini kattalarning harakati bilan solishtirish (onasiga, yoki onasiga o‘xshatib piyolaga ko‘tarish, yoki arg‘imchoqni aylantirish, sakrashga intilish) va uning o‘xshash jihatlarini topish bolaning aqliy o‘sishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Har qanday o‘yinning va o‘yin faoliyatining markazida bola katta kishilarning faoliyati va o‘zaro munosabatini, muomalasini o‘ziga xos tarzda aks ettirishi, takrorlashi imkoniyati turadi. Shunga ko‘ra o‘yin ijtimoiy ahamiyat kasb etib, bola

insoniyat tomonidan asrlar davomida yarailgan qimmatli bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, malakalar va odatlarni o‘rganishga imkon yaratadi, oqibatda uni shaxslararo muloqotning mohiyatiga olib kiradi.

Shunday qilib, psixologik adabiyotlar tahliliga tayanib maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o‘zaro muomalasiga qiziqadi;

2) bolalar rolli o‘yinda atrofdagi voqelikning eng tashqi ifodali, jo‘shqin xis-tuyg‘uli jihatlarini aks ettiradilar;

3) rolli o‘yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o‘z istagini amaliyotga tadbiq qiladi;

4) kattalar hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo‘lsa ham, umuman uning chinakam shaxsiy hayotida o‘chmas iz qoldiradi.

Bola psixikasining taraqqiy etishda o‘yinning roli beqiyosdir. Biz bolaning psixik taraqqiyotini o‘yinsiz tasavvur qilishimiz qiyin. Chunki, o‘yin orqali bola faqat jismoniy tomondan emas, balki psixologik tomondan ham rivojlanadi. O‘yin orqali bola olamni, undagi narsa hodisalarni, ularga xos xususiyatlarni o‘rganibgina qolmay, balki nutq so‘zlashga, mustaqil fikrlashga xayol qilishga, ijod qilishga, muomala madaniyatiga o‘rganadi.

Ko‘pchilik psixologlar hamda pedagoglar o‘yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug‘ullanib, o‘yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to‘xtalib o‘tganlar. Ma’lumki, o‘yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. o‘ymnning qiziqarliligi uni anglab etishning osonligidadir. Kattalar hayotida faoliyat, xizmat, yumush qanday ahamiyatga ega bo‘lsa, bola hayotida o‘yin ham xuddi shunday ahamiyat kab etishi mumkin.

3.4. Maktabgacha yoshda o‘yinning rivojlanishi

Bolaning umumpsixologik taraqqiyoti faqat o‘yin jarayonidagi (A.Leontev) amalga oshishini inobatga olib ularning o‘yinlarining mazmunan boyitishiga katta e’tibor qaratishimiz lozim.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning syujetli va rollarga bo‘linib, o‘ynaladigan o‘yinlari deyarli hamma vaqt jamoa holda amalga oshiriladi. Syujetli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlar bolalarning ko‘pgina psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘yin sharoitining o‘ziyoq bolalar diqqatini atrofdagi narsa va hodisalarga faol yo‘naltiri shini talab qiladi. Bu esa, o‘yin faoliyati davomida bolalarni nihoyatda faollashtiradi, ya’ni ular kuzatuvchan, tez esda olib qoladigan, har bir narsani atroflicha va chuqur tahlil qiladigan bo‘ladilar.

Syujetli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlar. O‘yin jarayonida bolalarning bir birlari bilan faol munosabatda bo‘lishlariga imkon yaratadi. Bu bolalar nutqining tez rivojlanishiga olib keladi. Ma’lumki, syujetli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarning o‘z qonun - qoidalari mavjud. Bu qonun - qoidalarga rioya qilishda bolalar o‘z iroda kuchlarini ishga soladilar. Binobarin, o‘yin faoliyati davomida bolalarning irodaviy sifatlari ham rivojlanadi. Turli yoshdagi boshqa bolalarining o‘yin faoliyatlari ularning barcha aks ettirish, ya’ni psixik jarayonlarini, aqliy imkoniyatlarini, shaxsiy psixologik sifatlarini, harakter xislatlarini tarkib toptirib, rivojlantiradi. Shu narsa xarakterliki, bog‘cha yoshidagi bolalarning turli - tuman o‘yin faoliyatlari sekin - astalik bilan ularni o‘qish faoliyatiga tayyorlaydi.

Rolli o‘yin mazkur yosh davrdagi bolalarning eng muhim faoliyati bo‘lib, ular bunday o‘yinda go‘yo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifali va ishlarni amalda bevosita bajaradilar.shu boisdan o‘yin voqealari ,oilaviy turmush hodisalari shaxslararo munosabatlarni umumlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar. Bolalar kattalarning turmush tarzi , his-tuyg‘u , o‘zaro muomala va mulaqatlarning xususiyatlarni o‘ziga va o‘zgalarga atrof muhitiga munosabatlarni yaqqol voqelik tarzida ijro etishi uchun turli o‘yinchoqlardan, shuningdek, ularning vazifasini

o‘tovchi narsalarda ham foydalaniladi. Bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi xilma xil o‘yin faoliyatni takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N. M. Aksarinaning ta’kidlashicha o‘yin o‘z- o‘zidan vujudga kelmaydi buning uchun kamida uchta sharoit bo‘lishi lozim bunga

1) taassurotlar tarkib topish.

2) har–xil ko‘rinishdagi o‘yinchoqlar va tarbiyaviy ta’sir vositalarning muhayyoligi.

3) bolalarning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqatga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta’sir ko‘rsatish uslubi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

D.B. Elkonin o‘z tadqiqotida rolli o‘yinning syujeti bilan bir qatorda , uning mazmuni ham mavjud ekanini yozadi. Uning fikricha o‘yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirishi o‘yinni mazmunini A.P.Usovaning tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, rolli o‘yin ishtirokchilarni safi yosh ulg‘ayishiga qarab jinsiy tofovutlariga binoan kengayib boradi.

Uch yoshli bolalar ikki uchtadan guruhga birlashib, uch besh daqqiqa birga o‘ynab oladilar 4-5 yoshli guruhi 2-3tadan ishtirokchidan iborat bo‘lib ularning hamkorligidagi faoliyati 40-50 daqiqa davom etadi o‘yin davomida qatnashchilar soni ham ortib boradi: 6-7 yoshli bolalarda rolli o‘yini guruh yoki jamoa bo‘lib birga o‘ynash istagi vujudga keladi avval rollar taqsimlanadi o‘yinning qoidalari va shartlari tushuntiriladi (o‘yin davomida bolalar bir–birlarni harakatini qattiq nazorat qiladilar).

Ilk yoshdagi bolalarning sodda o‘yinlarini mashq o‘yinlari, harakat o‘yinlari, manipulyatsiya o‘yinlari deb atash mumkin. Bunday o‘yinlarda bola o‘yinchoqlarni bir joydan ikkinchi joyga olib borib qo‘yadi, mashinalarni yurgizib ko‘radi yoki qiz bola bo‘lsa qo‘g‘irchoqlariga gapirishga harakat qiladi, kubiklarni ustma-ust qilib taxlaydi va shu kabi harakatlarni bajaradi. Bunday sodda o‘yinlarda ham bola xayolini boyitadigan mazmun yo‘q. Bola 2 yoshga to‘lgach, uning o‘yinlarida jiddiy o‘zgarish ro‘y beradi. Bolaning o‘yiniga endi taqlidiy harakatlar qo‘shiladi. Bolani kattalardan ko‘rgan-bilganlarini o‘yinda taqliddan takrorlay boshlaydi. Bu davrda bola

mashinachasini u yoqdan bu yoqqa siljitish yoki tepalikdan sirg‘antirib tushirish bilan cheklanmay, shofyorlarni harakatini bajaradi. Qiz bolalar esa qo‘g‘irchoqqa o‘zlariga xirgoyi qilib allalar aytibgina qolmay, o‘yinchoq kravatchalarga yotqizib tebratishga, agar it hursa “tu tet” deb haydashga urinadilar. Bolaning bunday o‘yinlarida esa endi tiklovchi xayolning yuzaga kela boshlaganini ko‘rish mumkin.

3.5. O‘yinlarda rollarning rivojlanib borishi

Bog‘cha yoshdagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevoisita amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi. Bu o‘rinda shu narsa e’tiborliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o‘zining kuchi, aqli etadigan narsalar bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo‘lgan, o‘zini kuchi ham, aqli ham etmaydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo‘lishga, ya’ni bilib olishga intilaveradi. Buning natijasida bolaning xaddan tashqari tez ortib borayotgan turlari ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o‘rtasida keskin qarama – qarshilik yuz beradi. Masalan bola avtomashinani, avtobusni o‘zi haydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchi bo‘lib samolyotda uchgisi, rostakam milisioner bo‘lgisi keladi. Biroq , bola o‘zidagi bunday extiyojlarni birortasini ham xaqiqiy yo‘l bilan qondira olmaydi. Chunki, bu yoshdagi bolada bunday kasblarga mansub bo‘lgan murakkab ko‘nikma va malaka yo‘k, bo‘lishi ham mumkin emas. Bu o‘rinda tabiiy bir savol tug‘iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turlicha extiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o‘rtasida qarama – qarshilik qanday yo‘l bilan hal qilinadi?

Bu qarama – qarshilik faqat birgina faoliyat orqali, ya’ni bolaning o‘yin faoliyati orqaligina, hal qilinishi mumkin. Chunki *birinchidan* , bolalarning o‘yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan emas. Bolalarni o‘yinga undovchi sabab (motiv) ham o‘yindan kelib chiqadigan natijaga emas, (o‘yindan ko‘pincha xech qanday natija kelib ham chiqmaydi), balki shu o‘yin jarayonidagi turli xarakterlarga bog‘liqdir. *Ikkinchidan* esa bolalar o‘yin jarayonida o‘z ixtiyorlaridagi narsalarni, ularni qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub

bo‘lgan narsalarga aylantirib (cho‘pni ot qilib, stulchani avtomashina qilib) kuchlari etgancha erkin faoliyatda bo‘laveradilar.

Shunday qilib, bolalar atroflaridagi kattalar uchungina mansub bo‘lgan , xali o‘zlarining kuchlari ham, aqllari ham yetmaydigan juda ko‘p narsalarni faqat o‘yin faoliyati orqali o‘zlashtiradilar. O‘yin orqali ular voqelikdagi narsa va hodisalarni biladilar.

IV BOB. SHAXS SHAKLLANISHIDA XALQ O‘YINLARI IJTIMOIY PSIXOLOGIK VOSITA SIFATIDA

4.1.O‘zbek xalq o‘yinlari tarixidan

O‘yinlar xalq tomonidan yaratilgan va kishilarning kundalik hayotidagi voqealar hamda hodisalarni obrazli aks ettirib, ularning hayotiy taassurotlarini, kuzatishlarini, tajriba va hissiyotlarini gavdalantirib, o‘zida so‘z, musiqa, raqs shakllarini mujassamlashtirgan. Masalan, ibtidoiy davrda bolalarni tarbiyalashning xarakterli jihati ularni qabila-urug‘ning urf-odatlari, an’analari, tarixi bilan shuningdek, xalq og‘zaki ijodi: rivoyatlar, qo‘shiqlar va raqslar bilan tanishtirishdan iborat bo‘lgan. Ibtidoiy jamiyatda yoshlarni kattalar safiga qo‘shish deb ataladigan bayram-diniy marosimlar keng tarqalgan. Bular o‘ziga xos o‘yin-musobaqalardan iborat bo‘lib, ularning mazmunini mehnat faoliyati, qabilalarning urf-odatlari, udumlari, xalq og‘zaki ijodi tashkil qilgan. Mana shunday o‘yin musobaqalarda yigitlar qurollardan mahoratli foydalana olishlarini, diniy odatlarga qoniqarli amal qila olishlarini, qabilaning muqaddas sanalgan rivoyatlarini bilishlarini namoyish etishlari lozim bo‘lgan. Marosimlarda raqslar ham ijro qilinib, ularda ibtidoiy odamlar o‘z hayotlaridagi voqealarni, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, shodliklari va qayg‘ularini ifodalaganlar.
Ibtidoiy odamlarning yovvoyi hayvonlarni ovlashlari va ularni o‘zlariga bo‘ysundirishga intilishlari ov voqealarini ijod qilishlariga va uni ijodiy namoyish etishlariga ehtiyoj tug‘dirdi.

D.B.Elkonin o‘yin va san’atning kelib chiqishini tadqiq qilib, «Ibtidoiy kishilar ov, urush voqealarini va boshqa jiddiy faoliyat turlarini o‘yinlarda ifodalaganlar». Ovdagi muvaffaqiyatsizlikni o‘ynash ularga yo‘l qo‘yilgan xatolarni hamda muvaffaqiyatsizlikning sabablarini aniqlashda yordam bergan degan xulosaga keldi.

Ishlab chiqarish kuchlarining tobora rivojlanishi, mehnat qurollarining takomillashuvi ibtidoiy jamoa tuzimining so‘nggi bosqichlarida bolalarning ana shu mehnat qurollaridan oddiy turmush va unumli mehnatda avvalgidek foydalana olmasligiga sabab bo‘lgan. Shu tufayli bolalar o‘yinchog‘iga o‘xshagan mehnat

qurollari yasala boshlangan. Bolalar o‘yinining vositasi – o‘yinchoqlar ana shu tariqa vujudga kelgan bo‘lishi mumkin.

Ye.A.Arkinning fikricha, ular «azaliy o‘yinchoqlar» bo‘lib, tarixiy taraqqiyotning mahsuli, shuningdek inson mehnatining qurollari va sig‘iniladigan vositalari tarixining ifodasidir. Shunday qilib ibtidoiy jamoa davrida o‘yinning rivojlanishi faqat “diniy dabdaba” emas, balki atrofdagi voqealikni anglash, uning haqidagi bilimlarni mustahkamlash, “Obrazga ko‘ra va tabiatga o‘xshatib ijod qilishni” o‘rganish istagi ham bo‘ldi.

Har bir xalqning o‘z milliy o‘yinlari mavjud bo‘lib, ular xalq an’analari, millatning madaniyati va turmushiga xos xususiyatlar zaminida vujudga kelgan. Xalq o‘yinlari ma’naviy madaniyatning ko‘rinishlaridan biridir. Ularda etnik tarixga borib taqaladigan an’analar, ijtimoiy munosabatlar, mafkura-e’tiqodning ayrim elementlari, axloqiy-estetik me’yorlar aks etadi.

Xalq o‘yinlari mamalakatning milliy xususiyatlarini, katta yoshli kishilarning fe’l - atvorini, odatlarini, mehnat jarayonlarini, geografik sharoitlarini ifodalaydi. Shunga ko‘ra o‘zbek xalq o‘yinlarini xalqning axloqiy-ma’naviy tarixini, madaniyatini boshqa xalqlar bilan aloqalarini o‘rganish manbalaridan biri sifatida qarab chiqish lozim. O‘zbek xalq o‘yinlari tarixini o‘rganishda xalq ma’naviy madaniyatining rivojlanish bosqichlarini yoritish juda muhim ahamiyatga molik.

O‘zbek xalq o‘yinlari o‘zbek xalqiga mansub ijodning mahsuli bo‘lib, ularni xalq vakillari yaratgan va saqlab kelgan.

Tadqiqotchi R.Yo‘ldosheva qayd qilganidek, -“O‘yinlar xalq tantanalari va tomoshalarining eng yaxshi an’analarini o‘zida jamladi, betakror o‘ziga xosligi va psixologik xususiyatlari bilan milliy madaniyatni nihoyatda boyitdi, avlodlar vorisligini, xalq an’analarini o‘zida mujassamlashtirdi”. O‘yinlarning ibtidoiy jamoa davrida mavjudligi tan olingan bo‘lsada, biroq, xalq o‘yinlarining paydo bo‘lishi va uning taraqqiyoti masalalari hanuzgacha to‘laqonli tadqiq qilinmagan. Shunga qaramasdan, mavjud manbalarga tayangan holda, xalq o‘yinlarining ilk paydo bo‘lishi tarixi haqida mantiqiy fikr yuritish, ular to‘g‘risida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin. Ba’zi manbalarda arxeolog olimlar O‘rta Osiyoda ibtidoiy

odamlar Afrika qit’asidan Sharqiy Osiyo orqali kelgan, degan fikrni bildirgan bo‘lsalar (D.A.Ranov), boshqa bir guruh olimlar O‘rta Osiyoni insoniyat beshigi deb hisoblaydilar. O‘zbekiston hududida eng qadimgi odamlar manzilgohi Farg‘ona vodiysidagi Seleng‘ur g‘or makoni bo‘lib, bu ilk paleolit davriga mansubdir.

O‘rta tosh asri -ibtidoiy odamlar tasavvurlari va e’tiqodlarida keskin o‘zgarish yuz bergan davr bo‘lib hisoblanadi. Bu jarayonni O‘rta Osiyoning eng qadimgi rang tasvirlaridan bo‘lmish Ko‘hitangdagi Zarautsoy suratlarida kuzatish mumkin. Bu lavhalarda ov manzarasi, hayvonot olami va ibtidoiy davr odamlari tasviri o‘z ifodasini topgan.

Ba’zi bir olimlarning (jumladan A.A.Formozov) ta’kidlashicha, bu lavhalarda ov marosimi aks ettirilgan. “Zarautsoy - 98” xalqaro simpoziumi qatnashchilarining xulosasiga ko‘ra, Zarautkamar ilk ibtidoiy maktablardan biri deb tan olingan. Chunki, ajdodlarimiz qoldirgan qadimiy suratlar va yozuvlar bu haqda guvohlik beradi.

Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, ibtidoiy odamlar hayotida ovchilik o‘yinlari salmoqli o‘rin tutgan. Ba’zi manbalarda o‘yinlar ovdan oldin o‘tkazilishi yozilgan bo‘lsa, boshqalarida ovdan so‘nggi o‘yinlar haqida fikrlar bayon qilingan. Agar, bu ma’lumotlarni chuqurroq psixologik tahlil qiladigan bo‘lsak, unda ovchilik o‘yinlari ovdan oldin ham, ovdan keyin ham o‘tkazilgan, deyish mumkin. Ovdan oldingi o‘yinlar ov oldi mashqlari (ovga tayyorgarlikni tekshirish, ovga psixologik va jismoniy shaylanish) vazifasini o‘tagan hamda jiddiy, o‘ziga xos kichik marosim shaklida uyushtirilgan. Bu o‘yin jarayonida ibtidoiy odamlar o‘ljaga yaqinlashishni, so‘ngra uni osongina qo‘lga tushirishni o‘rganishgan, buning uchun niqob kiyib, hayvon qiyofasiga kirishgan. Uning yurish-turishlari, hatti-harakatlari mashq qilingan, ularning tovush chiqarishlari o‘rganilgan. Aynan ana shunday o‘yinlar jarayonida yoshlarni ham ov qilishga o‘rgatishgan. Shu bois, u o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tab, ovchilik mahoratini o‘stirishga yordam bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ularda taqlid qilish san’atini va ushbu faoliyatga nisbatan barqaror motivatsiyani shakllantirgan hamda rivojlantirgan. Ovdan so‘nggi o‘yinlar - ov muvaffaqiyatli tugagandan keyin uyushtirilgan, deb taxmin qilish mumkin.

Mashhur qomusiy olim Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida ovchilik bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shiqlar o‘ziga xos o‘rin tutgan. Ularda ov qilishning dastlabki namunalari, it va qush yordamida o‘q yoy bilan ov qilish tajribalari madh etilgan. Mamlakatimiz hududidagi eng qadimgi davrlar haqida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, ularning natijalari xalq o‘yinlarining paydo bo‘lishi tarixi hamda ijtimoiy-psixologik jihatlari haqida ayrim xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tarixiy, arxeologik va etnografik manbalarda xalq o‘yinlarining kelib chiqishi hamda rivojlanishiga doir qiziqarli ma’lumotlarni uchratamiz. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk”, Abu Ali Ibn Sinoning “Tib qonunlari”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Umar Hayyomning “Navro‘znoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Lisonut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, Zayniddin Vosifiyning “Nodir voqealar”, Amir Temurning “Temur tuzuklari”, “Temurnoma”, Zahiriddin Boburning “Boburnoma” va boshqalar, shuningdek, Oybekning “Alisher Navoiy” tarixiy romani, “Bolalik qissasi”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Mirmuhsinning “Temurmalik”, Radiy Fishning “Jaloliddin Rumiy” va shu kabi tarixiy-ilmiy, badiiy asarlarda milliy o‘yinlarning paydo bo‘lish tarixi va rivoji to‘g‘risida asosli ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

Bundan tashqari, o‘zbek xalq o‘yinlarini izlash, tadqiq qilish va xalq orasida targ‘ib qilishda bir qator olimlar T.S.Usmonxo‘jaev, F.Nasriddinov, G.Jahongirov, Abdurahim Abdurahmon Rahim o‘g‘li o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar.

Taniqli yozuvchi Oybek “Bolalik” qissasida xalq milliy sport turlaridan bo‘lgan uloq o‘yinini juda ustalik bilan bayon qiladi. Zero, uloq xalqimizning qadimiy o‘yinidir. Surxondaryo hududida qadimda ham xalq o‘yinlarining muayyan jismoniy, psixologik va fiziologik tizimi mavjud bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Qadimshunos olima G.Pugachenkova shaxmat tarixi haqida shunday yozadi: - “fil suyagidan yasalgan, balandligi va eni 2 sm bo‘lgan ikkita shaxmat

donasining topilganligi katta kashfiyotdir. Ulardan biri fil, ikkinchisi esa ho‘kiz timsolidir. Ularni eramizdan oldingi 1-2 asrlarga, ya’ni Kushon imperiyasi davriga mansub, deyish mumkin. Dalvarzintepadan topilgan shaxmat donachalari chaturang o‘yinining shatranj shakliga oid bo‘lishi kerak. Yusuf Xos Hojib begona davlatga boradigan elchining o‘ziga xos bo‘lgan fazilatlari: bilimdonlik, gapga chechanlik va tadbirkorlikdir -deydi”.

Shaxmat va nard o‘yinlari elchining fazilatlarini shu darajada aks ettirishi lozimki, toki harflari undan ustun bo‘lmasin”. Erkin Vohidovning “Buyuk hayot tongi” dostonida shaxmat musobaqasi tasviri orqali qahramonlarning ruhiy holati ochib berilgan. Unda “kisht”, “Ruh”, “Shohga hujum” kabi milliy sport atamalari qahramonlarning hayotga munosabatini, psixologiyasini ochib ko‘rsatgan, ya’ni, chiroyli so‘z o‘yinlari amalga oshirilgan. Mashhur hakim Abu Ali Ibn Sino “Tib qonunlari” kitobida kurashning ikki turini tavsiflab, ularning mohiyati va qo‘llanishi qoidalarini mufassal yozib qoldirgan. Uning ta’rificha, kurashning bir turida belidan ushlashga ruxsat berilib, oyoq ishlatmasdan kurashish bo‘lsa, ikkinchisi, qaysi joydan ushlab olsa, shu yerdan mahkam tutish va oyoqlar yordamida harakat qilishdir. Ammo kurashning ikkala turida ham qo‘llar bilan oyoqdan olish qat’iyan man qilingan.

Shunday qilib, tabiat va hayot haqida yuzaga kelgan ibtidoiy tushuncha va e’tiqodlar animistik hamda totemistik tasavvurlar, qarashlar bilan vujudga kelgan. O‘yinlarning tabiiy - tarixiy paydo bo‘lish asosi va taraqqiyoti mehnat jarayoni bilan bog‘liqligini ko‘rish mumkin. O‘yinning ilk boshlang‘ich ko‘rinishi ibtidoiy jamiyatda sinkretik (qorishiq) san’at sanalib, insonning mehnat va kundalik faoliyatini ifodalagan. Ularning qaysidir turi bilan shug‘ullanish insonlarning xarakter sifatlari, temperament xususiyatlari orqali aks etgan. Bu o‘yinlar jismoniy faoliyatning mustaqil turi sifatida muayyan darajada jamiyatning sog‘lom ijtimoiy hayot tarzini belgilagan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ko‘pgina mamlakatlar olim va pedagoglari o‘yinlar mohiyatini, ularning kelib chiqishi, taraqqiyoti va ahamiyatini psixologik hamda ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganmoqdalar. Shunga ko‘ra, o‘yinlarning mohiyati va kelib chiqishini

ifodalovchi turli hil nazariyalar, fikr va qarashlar ishlab chiqilgan. Kishilik taraqqiyoti tarixi (filogenez) da mehnat o‘yinlari katta o‘rin tutgan, ammo alohida olingan inson hayotida (ontogenezda) o‘yin, uning kelajagidagi mehnat faoliyatidan oldin turadi. Masalan, bola rolli o‘yinlar o‘ynab rivojlanadi, undagi shartli reflekslar birinchi va ikkinchi signallar tizimi, organizmi doimiy ravishda atrof-muhit bilan o‘zaro faoliyat va tarbiyaning hal qiluvchi ta’siri orqali tashkil etilgan pedagogik jarayon natijasida shakllanadi. Shaxsning shakllanishi va rivojlanish jarayoni - uning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish jarayoni hamdir. Tarbiya oldindan ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, bolaning ulg‘ayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o‘yin - bu ijodiy faollikni improvizatsion holatda erkin namoyon qilishdir.

Xalq o‘yinlarining dastlabki namunalari insoniyatning ongi, tafakkuri rivoji bilan bog‘liq bo‘lgan. Ularning paydo bo‘lishida o‘sha davr shart-sharoitlari, odamlarning ov va turmush tajribalari, dunyoqarashi, urf-odat va marosimlari alohida ahamiyatga molik bo‘lgan. Eng qadimiy xalq o‘yinlari namunalari yozuv yuzaga kelmasdan ancha ilgari paydo bo‘lgan. Shu sababdan, ayrim o‘yinlarda so‘z yetakchi bo‘lsa, boshqalarida o‘yinning ayrim unsurlari ustun turadi. Ana shu tariqa mehnat va jismoniy mashqlarning yuzaga kelishi ijtimoiy taraqqiyot tufayli turli o‘yinlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi.

An’ana - shaxslararo munosabatlarni tashkil etishning, jamoa ijodkorligining mahsuli, shu bilan birga, o‘yinlarni jamoa holida o‘ynashni saqlab qolishning ham o‘ziga xos shakli hisoblanadi. Xalqning asrlar davomida shakllangan badiiy zavqi, estetik didi bor ekan, o‘yin hamisha shu xalqona estetik tamoyilga amal qilib yashaydi. Bu o‘yin uchun ob’ektiv qonuniyatdir

4.2. Xalq o‘yinlarida etnopsixologik xususiyatlarning ko‘rinishi

O‘yinning mohiyati shundan iboratki, unda natija emas, balki jarayonning o‘zi, o‘yin harakatlari bilan bog‘liq kechinmalar jarayonining o‘zi muhimdir.

Bola o‘ynaydigan vaziyatlar tasavvur etilgan bo‘lsa ham, ular boshidan kechiradigan tuyg‘ular realdir.

O‘yinning bu o‘ziga xos xususiyati o‘zida katta tarbiyaviy imkoniyatlarni mujassamlashtirgan, chunki o‘yin mazmunini boshqarib, o‘yin syujetiga muayyan rollarni kiritib, pedagog shu tariqa o‘ynayotgan bolalarning muayyan ijobiy tuyg‘ularini programmalashtirishi mumkin.

Birinchidan, odam uchun ijobiy tuyg‘ularni boshidan kechirish tajribasining o‘zi muhimdir, ikkinchidan, kechinmalar orqaligina faoliyatga ijobiy munosabatni tarbiyalash mumkin. O‘yin noo‘yin faoliyatiga munosabatni shakllantirishning boy imkoniyatlariga ega.

S. L. Rubinshteynning ta’kidlashicha, bola u yoki bu rolni o‘ynar ekan, u shunchaki soxtalik bilan begona shaxsga ko‘chmaydi; rolga kirar ekan, u o‘z shaxsini kengaytiradi, boyitadi, chuqurlashtiradi.

Jumladan, milliy o‘yinlar mazmuni shu millatning kundalik turmush tarzi, avloddan-avlodga O‘tib kelayotgan an’analar, urf-odatlar hamda qadriyatlarning aksi sifatida dunyoga kelgan. Milliy o‘yinlarning mazmunida millat ruhiyati bilan sug‘orilgan, millatning o‘zigagina xos va mos bo‘lgan jihatlari, millat madaniyati va san’ati namoyon bo‘lib, bola shu millat vakili sifatida atrofidagi kattalar hayotini o‘z o‘yinlariga ko‘chiradilar. Milliy o‘yinlar juda boy psixologiyaga egaligi bolada milliy ong va milliy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bola o‘yin jarayonida avvalo millatga xos bo‘lgan tushuncha va bilimlarga ega bo‘lib, turli-tuman xalq o‘yinlarini o‘ynayotib hayot uchun zarur bo‘ladigan bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirib boradi. Ayniqsa, inson psixik taraqqiyoti rivojida muhim o‘rin tutadigan sezgi, nutq, tafakkur, xotira, diqqat, hayol, idrok kabi bilish jarayonlari rivojlanishida milliy o‘yinlarning ahamiyati beqiyosdir. Boshqa xalqlardan, millatlardan o‘zbek milliy o‘yinlarning va o‘yin faoliyatini uyushtirishning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

✓ O‘yinda yoki o‘yin faoliyatida o‘zbek xalqining(hududiy xususiyatidan qat’i nazar) yashash tarzi, intilishi, xohishi, istagi, ezgu niyati, uning mavsumiyligi, kasb-korga taalluqli jihatlari, holatlari aks ettirilgan bo‘ladi. Emotsiya, hissiyot, xarakter,

milliy qiyofa, ta’b, bilish jarayonlari, xulq-atvor, ularni namoyon bo‘lish tezligi (sur’ati), davomiyligi, kechishi milliy xususiyatga egadir. Nafaqat milliy o‘yinlar, balki xalqning (millatning, elatning) raqslari; ularning syujeti, tezligi, osoyishtaligi; uning qo‘shiqlari chastotasi, tembri, amplitudasi, badiiy ijodiyoti xususiyatlari umumiy milliy kaloriti bilan uyg‘unlashgandir.

✓ Milliy harakatli va sport o‘yinlarining mohiyati, mazmuni, ma’no ifodalashi, manbai, negizi, ularning in’ikosi, ularda aks ettiriluvchi kechinmalari, syujetda o‘z aksini topgan shaxslararo munosabat, muomala, xarakteriologik va shaxs xususiyatlaridan kelib chiqadi.

✓ Ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik omil(sabab, faktor)lardan tashqari milliy o‘yin faoliyati tabiiy, geografik qonuniyatlarga (iqlim, yog‘ingarchilik, joylashish sathi, qulay va noqulayligi, shamol, ofatlar ehtimolligi), xossalari, ularga nisbatan xayrixohlik, qat’iy yoki beayov kurash yoki sajda, yolvorish, iltijo qilish milliy idrok, tasavvur, irodaviy kuchga asoslanadi.

✓ Ijtimoiy tajriba va uni egallash, shakllangan etnik stereotiplarga asoslanish natijasidan kelib chiquvchi milliylik, umumiylik, xususiylik, alohidalik, yakkahollik, guruhiylik, jamoaviylik, tabiatga va jamiyatga munosabatni aks ettirish tarzida o‘yin vujudga kelishi mumkin.

✓ Tabiat mo‘jizalari, ilohiy kuchlarga e’tiqod, aql-zakovatdan hayratlanishni ifodalovchi syujet va mazmundan iborat bo‘lgan milliy o‘yinlar.

✓ Kasbni tasvirlovchi, unga barol tilovchi, uni takomillashtirishga olib boruvchi imkoniyat, intilishni harakat va his-tuyg‘u yordamida namoyon etuvchi, qadriyat, ma’naviyat, ruhiyatga asoslanuvchi milliy o‘yinlar.

✓ Millatlararo ta’sir natijasida yaraluvchi, lekin milliylikning u yoki bu qirralarini saqlab qoluvchi baynalmilal xususiyatli o‘yinlar.

✓ Ijtimoiy garmoniya ta’siri, ijtimoiy ong rivoji, madaniyat, fan va texnika mahsulasi sifatida tug‘iluvchi yangi toifaga xos milliy o‘yinlar.

✓ Milliy o‘yinlar hududiy ko‘rinishlari, takomillashish imkoniyati, yosh davrlari xususiyati, jinsiy tafovuti, mavsumiyligi, mavsumbopligi, rasm-rusumga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi.

✓ Milliy o‘yinlar muayyan syujet, mazmun, qoida, muddatga asoslanadi. Ular unutilish, yangilanish, takomillashish xususiyatiga ega bo‘lib, ko‘nikma, malaka va odatlarni mashqlantirishni taqozo qiladi. Bu narsa ijtimoiy tajribani avlodlar tomonidan o‘zlashtirish tariqasida yuzaga kelib turadi. Oqibat natijada mangulik xususiyatni kasb etadi, shaxsni u yoki bu yo‘sinda kamol topishiga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi o‘yinlar tug‘iladi.

Jahon psixologiyasi fanida o‘yinlar yuzasidan mulohaza yuritilganda aksariyat hollarda ularni oilaviy turmushga, dehqonchilikka, qurilishga, sanoat sohasiga, siyosatga, harbiyga, kasbga taalluqli ekanligiga qarab guruhlarga ajratiladi. Eng qadimiy milliy o‘yinlar qatoriga harakatli va sport o‘yinlari kiritiladi hamda xalqning keng tarqalgan, sevimli o‘yinlari bo‘lib hisoblanadi. Ular o‘zining syujeti, mazmuni, roli bilan bir-birlaridan keskin tafovutlanib turadi. Ba’zi hollarda harakatli o‘yinlar bir davrning o‘zida ham sport o‘yinlari bo‘lib hisoblanadi. Yoinki sport o‘yinlari harakatli o‘yinlar qatoriga kiritilishi mumkin.

O‘yinlar xalq ijodining mahsuli bo‘lib, sog‘lom va ma’nan barkamol kishilarning ruhiy olamda o‘z mavqe va o‘rnini bilishi, go‘zal hayot barpo eta olishi xalq o‘yinlarining etnografik elementlari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Xalq o‘yinlari milliy va ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylashning eng an’anaviy tarkibiy qismidir. Bolalar tomonidan o‘ynab kelinayotgan o‘yinlar ma’naviy va milliy o‘zlikka xos jihatlarni hamda xalq ruhiyatini uning tarixiy genetik asoslarini ijtimoiy xodisasi sifatida yorqinlashtiradi. Tadqiqotda xalq o‘yinlari orasida bolalar o‘yinlari tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unligini, ekologik muammolar keskinlashgan bir paytda tabiatga ehtiyotkorlik va e’tibor bilan munosabatda bo‘lishni tarbiyalashning muhim omili ekanligini ta’kidlash o‘rinlidir.

O‘yin va uni o‘ynayotgan ishtirokchilardan aql-zakovat, mohirlik, tadbirkorlik, epchillik va chaqqonlik, jasurlik va shijoatlilik, xushyorlik va favqulodda qat’iy qarorga kela olish kabi sifatlarni bolalardan talab qiladi. Bu sifatlar esa bolalarda o‘ziga ishonch, tarbiyaning axloqiy, estetik, ruhiy komponentlarni o‘yinlar orqali tarbiyalash imkoniyati kengligidan dalolat beradi. O‘yin orqali bolalarda ma’naviy sifatlar shakllanibgina qolmay, bosqichma-bosqich komillik sari

yuksaladi. Tashqi olamga taqlid va ularni hayotga tadbiq qilishga intilayotgan bolani ko‘rsangiz, bilingki, u zavqlanyapti, murakkab olamning eng sodda vakili nimagadir talpinayapti. Aslida bolalarni tetapoya qilishlaridagi mohiyat bio asosga tayanadi ulg‘ayish, voyaga yetish, o‘sib-unish, faqat bir millatning yosh avlodi bu yo‘lni o‘ziga xos, boshqalardan farqli ravishda bosib o‘tadi. Bu-tabiiy. Milliy xalq o‘yinlari, shubhasiz, tarbiyalaydi, odamlarga ham jismonan bardamlik, ham intellektual ozuqa beradi[7]. Asosan bolalarning barkamol bo‘lib voyaga yetishlari uchun xizmat qiladigan o‘yinlar yosh avlodda, avvalo, millatiga bo‘lgan hurmati, ota-bobolardan qolgan boy merosga nisbatan sadoqatni oshiradi. Bundan tashqari o‘g‘il-qizda jamoa bo‘lib ishlash malakasi, halollik, menatsevarlik, burch va ma’suliyatni his qilish, o‘z o‘rnida aql bilan ish tutish, aniqlik kabi xususiyatlari shakllanadi. Bolalarcha beg‘ubor raqobatga bardosh berishga intilgan o‘g‘il yoki qiz kelajakda hayot qiyinchiliklarini, albatta, yengib o‘tadi.

Xalq o‘yinlari taraqqiyotning barcha bosqichlarida o‘z davri odamlarining xayoti, turmush tarzi, mehnat sharoiti, millati, dini va boshqa o‘ziga xos belgilarini o‘zida mujassam etib kelgan va ishtirokchilarda chaqqonlik, chidamlilik, ijodiy topag‘onlik, g‘ayratlilik, kuchlilik sifatlarini tarbiyalashga xizmat qilgan.

Bolalar o‘yinlarida shu bilan bir qatorda yengil hazil, musobaqa, jamoaviy birlikka yo‘naltiruvchi sifatlar ko‘proq ko‘zga tashlanadi. O‘zbek xalq o‘yinlarini turlicha tasniflash mumkin. Masalan, o‘yin ishtirokchilarning yoshiga nisbatan (bolalar, o‘smirlar, kattalar), jinsga nisbatan (o‘g‘il va qiz bolalar yoki erkak va ayollar), mavsumga nisbatan (baxorgi, qishgi, yozgi, kuzgi), o‘ynaladigan joyga nisbatan (maydon, suv, xona), kasbga nisbatan (dehqon, hunarmand, chorvador va boshqa), hududga nisbatan (shimoliy, janubiy, sharqiy yoki shimoliy).

O‘yinlarni paydo bo‘lish jarayoniga nisbatan quyidagilarga bo‘linadi:

• ovchilik o‘yinlari (Gang, Jambil, Lappak, Oshiq, Xappak, Chirgizak va boshqa);

• cho‘pon o‘yinlari (To‘ptosh, Ko‘tarma tosh, Echki o‘yin, Cho‘pon va shoqol, Qadama tayoq, Chillik, Podachi, Chanta, Chuv-chuv va boshqa);

• hunarmandlik o‘yinlari (Dandarak, Charxpalak, Besh barmoq, Paqilloq, Lanka,

Chig‘iriq, Uzuk soldi, Varrak, Sartarosh, Ko‘z bog‘lar va boshqa);

• dehqonchilik o‘yinlari (Palaxmon, Jon burgam, Somon sepdi, Chanoq o‘yin, Shaftoli shakar, Qo‘riqchi va boshqa);

• taqlidiy o‘yinlar (Xola-xola, Topaloq, Kim oladi-yo, Ayiq o‘yin, Xo‘roz urishtirish, Oqsoq turna, Bosari, Asalari, G‘ozlar va boshqa);

• harakatli o‘yinlar (Cho‘nka shuvoq, Chim otish, Kim tez, Xurkach, Tufaloq, Chori chambar, Mushuk-sichqon, Yog‘och oyoq, Durra solish, Halinchak va boshqa);

• so‘z o‘yinlari (Kim chaqqon, Bolqon-bolqon, Botmon-botmon, Juftmi-toq, Oq quyonim alomat, Oq terakmi, ko‘k terak, Pirr etdi va boshqa);

• yig‘in o‘yinlari (Gap-gashtak, To‘piq o‘yin, Podsho-vazir, Podsho-o‘g‘ri, Arshi a’lo va boshqa);

• kurash va u bilan bog‘liq o‘yinlar (Milliy kurash, Polvonbozlik, Yelkada kurash, Bel olish kurashi va boshqa);

• chavandozlik o‘yinlari (Chavgon, Uloq-ko‘pkari, Piyoda poyga, Oltin qoboq, Shog‘uloq, Qiz quvish, Eshak mindi va boshqalar)

4.3. Xalq o‘yinlarining rivojlantiruvchi funksiyalari

Pedagogika fanlari doktori, professor Muxammadjon Quronov ustozning adiba va olima Guljaxon Mardonovaning “O‘zbek milliy o‘yinlari” nomli kitobiga yozgan “Bolalar o‘yinlari – hayot mashqlari” nomli so‘zboshisida **“**Odam umri davomida qiladigan hatti-harakatlar, tirikchilik tashvishi, chetdan bo‘ladigan turli qarshiliklarni yengish, oilani himoya qilish kabi hayotiy vaziyatlar bu o‘yinlarga mavzu bo‘lgan” -deydilar. Yana, ustoz yozadilar: “O‘yinlarda yosh organizmning talab va ehtiyojlari qondirilib, ijodiy faollik yaratiladi. Topqirlik, tezkorlik, shijoat tarbiyalanadi. Qolaversa, o‘yin orqali bolalar juda ko‘p narsalarni bilib oladi. Demak, bilishga bo‘lgan kognitiv talab ham o‘yin orqali ado etiladi.

O‘yinlar rang-barang. Ularning mazmuni, tashkil etilishi, qo‘llaniladigan buyumlari turlicha. Ular orasida kreativ (ijodiy) va qoidali o‘yinlar mavjud. Ijodiy o‘yinlarni bolalarning o‘zlari o‘ylab topadilar. Unda ko‘proq obrazlar ishtirok etadi.

Bir qarasangiz sahna ko‘rinishining sodda variantiga o‘xshab ketadi. Bu albatta ehtiyojga quriladi. Qoidali o‘yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bolalar hayotiga olib kiriladi”.

Psixolog D. B. Elkonin o‘z ilmiy-psixologik asarlarida bolalar o‘yinlarining kelib chiqishini psixologik jihatdan o‘rganib, -“...ibtidoiy kishilar ov, urush voqealarini va boshqa jiddiy faoliyat turlarini o‘yinlarda ifodalaganlar. Ovdagi muvaffaqiyatsizlikni o‘ynash ular yo‘l qo‘ygan holatlarni hamda muvaffaqiyatsizlikning sabablarini aniqlashda yordam bergan”, - deb xulosa chiqaradi

Xalq dahosi yaratgan bolalar o‘yinlari asrlar davomida navqiron naslni chiniqtirish va tarbiyalash vazifasini o‘tab kelmoqda. Ularda xalqning an’anaviy turmush tarzida sinalgan, o‘zbekona milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan jismoniy-tarbiyaviy va ma’naviy-axloqiy qarashlar o‘z aksini topib, bolalarning ijodkorlik salohiyatlari namoyon bo‘ladi. Zero, bola “…o‘ynab zavq oladi, o‘ynab kurashga tushadi, o‘ynab mag‘lubiyat alamini tortadi, o‘ynab g‘oliblik nashidasini suradi, o‘ynab o‘rganadi, o‘ynab kashf etish va ijod qilish ilmini o‘zlashtiradi, o‘ynab kuylaydi, o‘ynab hamdardlik va hamkorlik tuyg‘usini tuyadi, o‘ynab birlashadi va birlashmoq manfaatdorligini his qiladi, hatto o‘ynab judo bo‘ladi, yolg‘izlanadi va yakkalik iztirobini tortadi…”. O‘ynab harakat qiladi, fikrlaydi. Ham jismonan, ham ma’nan sog‘lom bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda xalq o‘yinlari – bolalar uchun hayot maktabi. Ular sabab hayotga tayyor bo‘ladi, irodali, o‘z yo‘lini topadigan shaxs bo‘lib yetishadi.

0‘zbek bolalar o’yinlari qatorida qo‘shiq hamrohligidagi o‘yinlar butun bir to’plamni tashkil etadi... «Yashirganimni top», «Chopa turib o‘tirish», «Yoshlam-yoshlam», «Oltin darvoza», «Xurmacha bog‘i», «Mehmon-mehmon», «Moy kulcha», «Chap berish», «Besh tosh» «To‘y-to‘y», «Sakra-sakra», «Otish-otish»,«Urush-urush»,«Jik-jik», «0‘y o‘ylash», «Bozor-bozor», «Quvlashmachoq», «Otilgan do‘ppini kim oldin olib keladi?», «Tez qaytish», «Kim chopag‘on», «Zum-zum», «Mushuk-sichqon», «Pishakvoy», «Quyonim» va boshqalar ana shunday xarakterga ega. «Xurmacha bog‘i», «Mushuk-sichqon», «Yoshlam-yoshlam» ko‘p

variantli o‘yinlar sifatida o‘tgan asrlardanoq bolalar repertuarini muzayyan etib kelmoqda. Ular davr ruhiga yo‘g‘rilib, yangi motivlami ifodalab, hamon bolalaming sevimli o‘yini bo‘lib qolmoqda. Bolalar o‘ylashni o‘yinga aylantirganlarida ham Vatan dushmanlariga qasoslari borligini yashirishmaydi.

« 0‘y o’ylash» o‘yinidagi qo‘shiqda shu motiv ifodalangan:

— O ‘u o ‘ylasang, O ‘ying o ‘ngisin,
Tog‘ bagrida yotib olsa,
Qo ‘ychi o ‘ngisin.
Qo'ychi bo ‘hang,
Qo ‘ylaringni birga boqaylik.
Dushmanlarning ko‘kragiga
O‘tlar uoqaylik.

0‘ylay bilish — katta san’at, uning vositasida voqelikni idrok qilish yo‘li ochiladi. Bu o‘yinda ham shunday bo‘layotir. 0‘yinchi shunchaki o‘ylamaydi, balki o‘yinga parvoz berganidan yuksak tog‘ xayolini chulg‘agan. Tog‘ bag‘ridagi qo‘ychi va qo‘ylar—mehnatkash inson va el boyligi unga muqaddas tuyulmaganidan, ular bir ipda tizilganday, pirovard-oqibatda shularga zavol keltirmoqchi bo‘lgan dushmanga nafrat va qasos o‘yinga aylangan. Bu o‘yinlaming barchasida vatanparvarlik tuyg’usi yuksak darajasiga ko‘tarilgan.

«Kim chopag‘on», «Zum-zum», «Tez qaytish» «Quvlashmachoq», «Ushlama» va boshqa shunga o‘xshash o‘yinlar bolalaming jismoniy chiniqishlariga ma’naviy ko‘rk bag‘ishlaydi; ularni chaqqon, epchil, sezgir bo‘lishga, aniq mo‘ljal olishga, vaziyatni baholay bilishga o‘rgatadi. «Kim chopag‘on»da tez chopish musobaqasining mohiyati o‘yin (ona) boshi qo‘shig‘ida shunday ifodalanadi: Karim kamonga ketdi,
Sobir somonga ketdi.
Tolib, Tesha — ikkovi
Ikki tomonga ketdi.
Qaysisi kelsa oldin
Manov sovg ‘ani olsin, Husht!

«Zum-zum» o‘yin chillak o‘yinining bir ko‘rinishi bo‘lib, yutqizgan tomon zum chopib dovni bermog‘i lozim. Bunda yutgan tomon chillakni yerga tushirmay, muallaqligicha chillakdasta bilan necha marta ura olsa, shu sanoq darajasigacha uni uzoq masofaga yo‘naltirib zarb bilan uradi. Yutqizgan shu masofaga bir nafasda «zum» degancha chopib kelmog‘i shart. Albatta, avvalo, u shu masofaning uzoq-yaqinligini chamalab, uning qancha qismigacha nafasi yetishini inobatga olmog‘i, so‘ngra, o‘sha masofaning ma’lum qismini quyidagi qo‘shiqni aytish hisobiga chopib o‘tmog‘i kerak:

Shoyi ko ‘ylak kiymayman,
Hilpillatib yurmayman.
Kalish-mahsi kiymayman,
G‘irchillatib yurmayman.

4.4. “Besh tosh” milliy o‘yinining etnopsixologik xususiyatlari

Har bir millatning o‘ziga xos qadriyatlari bo‘lib unda millat ruhi, millat tafakkuri, millat psixologiyasi, millat ma’naviyati ko‘rinib turadi. Ana shunday qadriyatlaridan biri bu milliy o‘yinlardir. Asrlar osha yashab kelayotgan shunday o‘yinlari borki, uni kattayu-kichik sevib o‘ynaydilar, bolaligimizni eslashimiz bilan shu o‘yinlar ko‘z oldimizga keladi. Milliy o‘yinlar turli-tumanligi bilan ham jozibador sanaladi.

Psixologiyada o‘yin inson faoliyatining bir turi sifatida ko‘p tadqiq qilingan masalalardan biridir. Chunki, inson bolasi o‘yin orqali olamni, tabiatni, odamlarni va o‘zini anglaydi. O‘yinning turli vazifalari bir qator psixolog olimlar L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, D.B.Elkonin, V.S.Muxina tadqiqotlarida ochib berilganidek, inson (bola) psixik xususiyatlarni rivojlantirishni amalga oshiradi.

O‘yinning mohiyati shundan iboratki, unda natija emas, balki jarayonning o‘zi, o‘yin harakatlari bilan bog‘liq kechinmalar jarayonining borishi muhimdir.

Bola o‘ynaydigan vaziyatlar tasavvur etilgan bo‘lsa ham, ular boshidan kechiradigan tuyg‘ular haqiqiydir.

O‘yinning bu o‘ziga xos xususiyati o‘zida katta tarbiyaviy imkoniyatlarni mujassamlashtirgan, chunki o‘yin mazmunini boshqarib, o‘yin syujetiga muayyan rollarni kiritib, pedagog shu tariqa o‘ynayotgan bolalarning muayyan ijobiy tuyg‘ularini dasturlashtirishi mumkin. Birinchidan, inson uchun ijobiy tuyg‘ularni boshidan kechirish tajribasining o‘zi muhimdir, ikkinchidan, kechinmalar orqaligina faoliyatga ijobiy munosabatni tarbiyalash mumkin. O‘yin noo‘yin faoliyatiga munosabatni shakllantirishning boy imkoniyatlariga ega.

S.L. Rubinshteynning ta’kidlashicha, bola u yoki bu rolni o‘ynar ekan, u shunchaki soxtalik bilan begona shaxsga ko‘chmaydi; rolga kirar ekan, u o‘z shaxsini kengaytiradi, boyitadi, chuqurlashtiradi.


Jumladan, milliy o‘yinlar mazmuni shu millatning kundalik turmush tarzi, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan an’analar, urf-odatlar hamda qadriyatlarning aksi sifatida dunyoga kelgan. Milliy o‘yinlarning mazmunida millat ruhiyati bilan sug‘orilgan, millatning o‘zigagina xos va mos bo‘lgan jihatlari, millat madaniyati va san’atinamoyon bo‘lib, bola shu millat vakili sifatida atrofidagi kattalar hayotini o‘z-o‘yinlariga ko‘chiradilar.

Milliy o‘yinlar juda boy psixologiyaga egaligi bolada milliy ong va milliy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bola o‘yin jarayonida avvalo millatga xos bo‘lgan tushuncha va bilimlarga ega bo‘lib, turli-tuman xalq o‘yinlarini o‘ynayotib hayot uchun zarur bo‘ladigan bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirib boradi. Ayniqsa, inson psixik taraqqiyoti rivojida muhim o‘rin tutadigan sezgi, nutq, tafakkur, xotira, diqqat, hayol, idrok kabi bilish jarayonlari rivojlanishida milliy o‘yinlarning ahamiyati beqiyosdir.

Milliy o‘yinlarning afzalliklari shundaki, bu o‘yinlar joy yoki anjomlar talab etmaydi. Ko‘pgina o‘yinlarni turli yoshdagi bolalar birgalikda o‘ynashlari mumkin. Shu sababli, bolalar uchun bunday o‘yinlar sevimli sanaladi. Demak, maktabgacha ta’lim muassasalarida dasturga kiritilgan va kiritilmagan xalq o‘yinlaridan keng foydalanib, bolalarning psixik taraqqiyotiga katta ta’sir

ko‘rsatadigan omil sifatida qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun pedagoglar avvalo har bir o‘yinning psixologik tahlilini ya’ni, o‘yinda bolaning bilish jarayonlari, hissiy irodaviy sifatlari va individual xususiyatlari rivojiga qay darajada ta’sir etishini tahlil etishlari kerak bo‘ladi. Shu maqsadda o‘yinlarning psixologik xaritasini tayyorlash va kun davomida bolalar bilan shug‘ullanishni rejalashtirmoq zarur.

O‘yinning psixologik tahlili quyidagicha amalga oshiriladi: masalan, «beshtosh» o‘yini:



O‘yin jarayonida toshlar bilan bo‘ladigan manipulyatsiya harakatlari ya’ni, barmoqlar bilan toshlarni paypaslash, his etish, havoga otish vaqtidagi orientirovka harakatlari bolaning sensomotor koordinatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolaning o‘yin vaqtidagi o‘tirish holati gavdasini oldinga, orqaga, chapga va o‘ngga egishi esa qon aylanish tizimi faoliyatini jadallashtiradi, bu esa bolani umumiy holatini tetiklashtiradi.

O‘yindagi mashqlarning nomlanishi va uni esda saqlab qolish topshiriqlarning ketma-ketligini esga tushirish bolaning xotirasini charxlasa, har bir topshiriqni o‘zi va sherigi bajarayotgan vaqtdagi kuzatuvchanlik diqqatni barqarorlashtiradi, mashqlarning «ot», «qaychi», «kelin», «kapa», «quduq» kabi nomlanishi va ularning o‘ziga xos timsoliy ma’nosi ijtimoiy muhitdagi tafakkur tarzi haqida bilim beradi.

Shuningdek, o‘yin jarayoni bolaning umumiy psixik taraqqiyoti uchun ahamiyatliligi shundaki, o‘yinni dastlabki o‘zlashtirish jarayoni bolaga juda katta psixofiziologik rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, tosh mayda predmet sifatida bolaning sensor taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatsa, o‘yin jarayonidagi bolaning tana va gavda harakatlari muvozanat saqlash va o‘ziga qulay bo‘lgan holatlarni tanlay olish malakasini shakllantiradi. Shuningdek, har bir mashqda nomlarni to‘g‘ri talaffuz etish, o‘yin qoidasini ishtirokchilarga tushuntirib berish bola nutqini rivojlantiradi.


Bundan tashqari o‘yinni 2-4 kishi bo‘lib o‘ynash bolalarda o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi.

Bu o‘yinni 4 yoshdan boshlab elementar variantlarini o‘rgatish tavsiya etiladi. 6-7 yoshlilarda esa, 8-12 tagacha mashqlarni to‘liq bajartirish mumkin.

Pedagoglar o‘yin jarayonini kuzatib bolalar egallayotgan malakalarni sifatiga e’tibor qaratib, ba’zi mashqlarni o‘zlashtirishda qiynalayotgan bolalarga individual tarzda oson yo‘llarini ko‘rsatib berish tavsiya etiladi.

Xullas, milliy o‘yinlarning har birini xuddi shu tartibda psixologik tahlilini amalga oshirib, pedagog bolalarning umumetuklik darajasidan kelib chiqib o‘z guruhi uchun o‘yinlarni tanlaydi va tashkil etadi. Bu esa bolalarning psixik taraqqiyoti uchun eng zarur vosita hisoblanadi.

“Besh tosh” juda murakkab o‘yinlar sirasiga kirib ko‘proq qiz bolalar tomonidan o‘ynaladi. O‘yinda ishtirokchilar 5 ta do‘lanadek (ozroq katta yoki kichik bo‘lishi mumkin) keladigan toshlar bilan turli mashqlarni bajarishadi, har bir mashqning o‘ziga xos nomlanishi bo‘lib, bu mashqdagi harakatlarni ifoda etadi. Ushbu o‘yinni 2 kishidan 5-6 kishigacha birgalikda, juftliklarda o‘ynashi mumkin. Ishtirokchilar o‘yin qoidalarini o‘zaro kelishib oladilar.



Boshlanishda kim birinchi boshlashini aniqlash maqsadida “boshlar” (boshlamoq so‘zidan kelib chiqqan -M.N.) deb nom olgan mashq bilan boshlaydilar.

O‘yin boshida toshlarni qo‘l kaftiga olib havoga otib kaftning orqa tomoniga tushiradi(1-rasm) va shu mashq bilan o‘yin boshlanadi. Agar, qaysi o‘yinchida beshta tosh ham kaftning orqa tomoniga tushsa shu o‘yinni birinchi bo‘lib boshlaydi. Bu yerda boladan diqqatni jamlash, muvozanatni to‘g‘ri saqlash, toshlarning og‘irligini his etish, kaftni mashqlantirish talab etiladi. Ba’zan o‘yin ishtirokchilari shu mashqni bir necha bor tezlikda bajarish va kimda har safar 5 toshni ham kaftda to’ g’ri tuta olsa, unga 1- bo’lib boshlashga izn beriladi. Keyingi mashqlar ketma-ketligi quyidagicha davom etadi.


2) “Birlar” – toshlar yerga yoki polga yoyib tashlanadi va bittasini olib havoga otiladi, yerdan bitta toshni olib havodan qaytayotgan toshni ham chaqqonlik bilan ilib olish kerak. Uning elementlari quyidagi tartibda bayon qilingan: 1) boshlar; 2) birlar 3) ikkilar 4) uchlar 5) do‘p etar (do‘ppos); 6) qapchiq); 7) qaychi; 8) quduq; 9) 10) chiq etar; 11) chiq etmas; 12) chandiq.

O‘yin elementlarining bunday nomlanishi tosh bilan bajariladigan o‘yin amallarining xarakteridan kelib chiqadi. Yuqorida keltirilgan atamalarni “Besh tosh ” yoki “To‘p tosh” nomi bilan o‘ynaladigan o‘yinlar turli shakllari bo‘lishiga qaramasdan o‘yin jarayoni qiz bolalarni epchil, ziyrak, zukko qilib tarbiyalash vazifasini bajaradi. Agar e’tibor berilsa, o‘yin mukammal syujet tizimiga ega bo‘lib, an’anaviy boshlama (ishtirokchining o‘yindagi o‘rni aniqlanishi), asosiy elementlar (“Besh tosh” bilan turli xil amallarni qo‘llab o‘ynash) va yakunlanma (“o‘yin oxiri” g‘olibni aniqlash) bosqichlari borki, bu o‘yin mazmunini va yashovchanligini oshirib kelmoqda. Shuningdek, etnohududiy, etnolokal hususiyatga ko‘ra, o‘yindagi umumiylikdan tashqari atamalarda, harakatning takrorlanish ketma-ketligida farqlar ko‘zga tashlanadi.



O‘yin jarayonida toshlar bilan bo‘ladigan manipulyatsiya harakatlari ya’ni, barmoqlar bilan toshlarni paypaslash, his etish, havoga otish vaqtidagi orientirovka harakatlari bolaning sensomotor koordinatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolaning o‘yin vaqtidagi o‘tirish holati gavdasini oldinga, orqaga, chapga va o‘ngga egishi esa qon aylanish tizimi faoliyatini jadallashtiradi, bu esa bolani umumiy holatini tetiklashtiradi.

O‘yindagi mashqlarning nomlanishi va uni esda saqlab qolish topshiriqlarning ketma−ketligini esga tushirish bolaning xotirasini charxlasa, har bir topshiriqni o‘zi va sherigi bajarayotgan vaqtdagi kuzatuvchanlik diqqatni barqarorlashtiradi, mashqlarning □ot□, □qaychi□, □kelin□, □kapa□, □quduq□kabi nomlanishi va ularning o‘ziga xos timsoliy ma’nosi ijtimoiy muhitdagi tafakkur tarzi haqida bilim beradi.





Shuningdek, oʻyin jarayoni bolaning umumiy psixik taraqqiyoti uchun ahamiyatliligi shundaki, oʻyinni dastlabki oʻzlashtirish jarayoni bolaga juda katta psixofiziologik rivojlantiruvchi taʼsir koʻrsatadi. Chunki, tosh mayda predmet sifatida bolaning sensor taraqqiyotiga katta taʼsir koʻrsatsa, oʻyin jarayonidagi bolaning tana va gavda harakatlari muvozanat saqlash va oʻziga qulay boʻlgan holatlarni tanlay olish malakasini shakllantiradi. Shuningdek, har bir mashqda nomlarni toʻgʻri talaffuz etish, oʻyin qoidasini ishtirokchilarga tushuntirib berish bola nutqini rivojlantiradi. Bundan tashqari oʻyinni 2−4 kishi boʻlib oʻynash bolalarda oʻzaro munosabatlarni toʻgʻri yoʻlga qoʻyishga xizmat qiladi.

Bu oʻyinni 4 yoshdan boshlab elementar variantlarini oʻrgatish tavsiya etiladi. 6−7 yoshlilarda esa, 8−12 tagacha mashqlarni toʻliq bajartirish mumkin.

Pedagoglar oʻyin jarayonini kuzatib bolalar egallayotgan malakalarni sifatiga eʼtibor qaratib, baʼzi mashqlarni oʻzlashtirishda qiynalayotgan bolalarga individual tarzda oson yoʻllarini koʻrsatib berish tavsiya etiladi.

Xullas, milliy oʻyinlarning har birini xuddi shu tartibda psixologik tahlilini amalga oshirib, pedagog bolalarning umumetuklik darajasidan kelib chiqib oʻz guruhi uchun oʻyinlarni tanlaydi va tashkil etadi. Bu esa bolalarning psixik taraqqiyoti uchun eng zarur vosita hisoblanadi.

V BOB. O‘YIN VA PSIXIK TARAQQIYOT

5.1. O‘yin va motivatsion-ehtiyojlar sohasi rivoji. O‘yin va bilishga bo‘lgan egotsentrizmni yengib o‘tish.

Psixologiya qabul qilinganidek, rolli o‘yin faoliyati syujet va mazmundan tashkil topadi. Odatda syujet deganda, o‘yin faoliyatida bolalar aks ettiradigan voqelikning doirasi tushuniladi. o‘yin syujeti turli davrga, sinfiy xususiyatga, oilaviy turmush tarziga, geografik va ishlab chiqarish sharoitlariga bog‘liq holda yaratiladi. Bola munosabatga kirishadigan voqelik doirasi qanchalik tor, cheklangan bo‘lsa, o‘yinnnig syujeti shunchalik xira va bir xil ekanligini aks ettiradi.

O‘yinlarning syujeti xilma-xilligiga qaramay, ularini maxsus guruhlarga biriktirish imkoniyati mavjuddir. Masalan, yirik psixolog E. A. Arkin o‘yinlarning quyidagi tasnifini tavsiya qiladi:

1) ishlab chiqarishga (texnikaga); sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, kasb-hunarga oid o‘yinlar;

2) maishiy va ijtimoiy siyosatga ro‘zg‘or: bog‘chaga, maktabga, kundalik turmushga oid o‘yinlar;

3) harbiy: urush-urush o‘yinlari;

4) drammalashtirilgan: kino, spektakl va boshqalarga oid o‘yinlar.

Biz shu tasnif haqida L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin singari psixologlarning tanqidiy mulohazalariga to‘la qo‘shilamiz, chunki harbiy va drammalashtirilgan o‘yinlarni ham ijtimoiy-siyosiy guruhga kiritish mumkin. Bizningcha, D.B.Elkoninning tasnifi ma’quldir. U maktabgacha yoshdagi bolalarga xos rolli o‘yinlarning syujetiga ko‘ra uchta guruhga ajratishni tavsiya qiladi:

1) maishiy mavzu syujetiga oid o‘yinlar;

2) ishlab chiqarish syujetiga taaluqli o‘yinlar;

3) ijtimoiy-siyosiy syujetli o‘yinlar.

Muallif ayrim o‘yin turlari maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha bo‘g‘inlariga mosligini, syujetlar maishiydan ishlab chiqarishag qarab va undan ijtimoiy-siyosiy voqealarni aks ettirishga qarab rivojlanishini alohida uqtiradi. Uning fikricha, o‘yin

syujetidagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, turmush tajribasi kengayishi, uning katta yoshdagi odamlar turmushiga chuqurroq kirib borishi bilan bog‘liqdir. Darhaqiqat, o‘yin syujetining o‘sishi turmushning tobora yangi qirralarini aks ettirish bilan cheklanib qolmay, muayyan syujetning o‘ziga xos boshqa ko‘rinishlari bilan boyishi sababli ham amalga oshadi.

Katta yoshdagi bolalarda o‘yin faoliyati mutlaqo boshqacha o‘tadi, chunonchi bir harakat ikkinchi harakat bilan uzluksiz bog‘lanib ketadi, ba’zi bir harakatlar esa so‘z yordamida qisqartiriladi (“keling, xush ko‘rdik” harakat bilan emas, balki so‘z orqali ifodalanadi) va umumlashtiriladi.

Rolli o‘yin bolalarning hamkorlikdagi faoliyati mahsuli tariqasida vujudga keladi. Bu yoshda rol tanlashda ishtirokchilar o‘rtasidagi nizolar, tortishuvlar kamayadi, rolga o‘zini loyiq deb bilish o‘zidagi mavjud buyumlardan kelib chiqmaydi (masalan, qalam-o‘qituvchi, qaychi-tikuvchi rolini olish uchun asos bo‘la olmaydi), balki o‘yinning mazmunidan, hamkorlikdagi faoliyat nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Natijada ular kichik maktabgacha yoshdagilarga o‘xshab rolni almashtirish, bir buyumdan boshqasiga bir obrazdan ikkinchisiga o‘tishdek beqaror harakatlar qilmaydilar.

D. B. Elkonin harakatli o‘yinning qoidalari mazmuni o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqib ularni besh guruhga ajratadi:

1) harakatga taqlid qilish;
2) muayyan syujetni drammalashtirilgan o‘yinlar;
3) syujeti oddiy o‘yinlar;
4) syujetsiz qoidali o‘yinlar;
5) aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport o‘yinlari.

Bolani o‘yinga undamagan omil uning katta yoshdagi odamlarning borliq to‘g‘risidagi va shaxslararo munosabati haqidagi tasavvuri va ularni o‘z shaxsiy faoliyatida sinab ko‘rish istagidir, shuningdek, jamoa bo‘lib o‘ynayotgan tengqurlari bilan bevosita muloqotga kirishish ishtiyoqidir. Bolalar psixologiyasi fanida to‘plangan ma’lumotlar tahliliga asoslanib, mazkur yosh davri bo‘yicha quyidagi xulosani chiqarish mumkin:

1) o‘yin faoliyatida bola turli harakatlarni to‘laligicha namoyish etishga, ularni bajarish usullarini ko‘rsatishga ishtiyoqmand bo‘ladi;

2) keyinchalik esa barcha xatti-harakatlarni umumlashtirib aks ettirishga urinadi.

Bola o‘sib borgan sayin narsalar va o‘yinchoqlarning nomini o‘zgartirish, yangi nom bilan atash yengillashadi. Shuningdek faqat yangi vaziyatda jismlar nomini o‘zgartirish bilan kifoyalanib qolmay, ularni yangi nomga muvofiq qo‘llash imkoniyati ham vujudga keladi. O‘yin faoliyatida foydalaniladigan narsalarni yangicha nomlash qator muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi.

o‘yin faoliyatida narsalar nomini o‘zgartirish o‘zining psixologik mohiyati bilan murakkab holat hisoblanadi. Ayniqsa, so‘z bilan predmetning o‘zaro munosabatida ularga uzviy bog‘liq harakatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi mulohazalar asosida aytish mumkinki, katta kishilar hayoti va faoliyatining o‘rnini bosuvchi ashyolar ularning harakatini umumlashgan holda ifodalashning moddiy tayanchi hisoblanadi. Shunday ekan, o‘yin faoliyatida bola harakatining rivojlanishi o‘yin mazmuniga ko‘proq bog‘liqdir. Chunki bolaning xatti-harakati qanchalik ihcham va umumlashgan bo‘lsa, u kattalarning faoliyati mazmunini aks ettirishdan shunchalik yiroqlashadi. Binobarin, u odamlarning narsalarga va bir-biriga munosabatini amalda bajarishga o‘tadi va shuning uchun narsalar bilan harakat qilishda kattalarning ijtimoiy munosabatlarini to‘g‘ri ifodalashga intiladi.

Har qanday o‘yinning va o‘yin faoliyatining markazida bola katta kishilarning faoliyati va o‘zaro munosabatini, muomalasini o‘ziga xos tarzda aks ettirishi, takrorlashi imkoniyati turadi. Shunga ko‘ra o‘yin ijtimoiy ahamiyat kasb etib, bola insoniyat tomonidan asrlar davomida yaratilgan qimmatli bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, malakalar va odatlarni o‘rganishga imkon yaratadi, oqibatda uni shaxslararo muloqotning mohiyatiga olib kiradi.

5.2. O‘yin va aqliy harakatlar taraqqiyoti: N. N. Ladigina-Kots, S. L. Novosyolova

Bog‘cha yosh davrida harakatning o‘sishida o‘yinning ta’siri haqida gap borganda, avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o‘yinni tashkil qilishning



o‘zidayoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o‘stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o‘yinning bola harakatiga ta’sir etish sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko‘nikmalarini sub’ekt aynan o‘yin paytida emas, balki bevosita mashg‘ulot orqali o‘zlashtiradi. Uchinchidan, o‘yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan o‘yin faoliyati hatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta’minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi.

Nadejda Nikolaevna Ladigina-Kots (*18.05.1889 - 03.09.1963*) biologiya fanlari doktori, RSFSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi. zoopsixolog, primatolog va muzeyshunos, dunyo miqyosida shuhrat qozongan va tan olingan psixologlardan biri.



N. Ladigina-Kotsning mashhur “Shimpanze bolasi va inson bolasining instinktlari, his-tuyg'ulari, o'yinlari, odatlari va ifodali harakatlari” nomli asarida: “Bolalar o'yinlarini tomosha qilayotib, men bir necha bor payqadimki, hatto maktabgacha yoshdagi bolalar, ayniqsa maktab o'quvchilari g’ashga tegadigan harakatlar bilan o'ynashda shimpanzelarga xos bo'lgan deyarli barcha bir xil ataylabdan (jo’rtakadan) masxara imo-ishoralariga ega: ya'ni turtish, musht bilan urish, qo'l silkitish, qo'l urish, chimchilash, barmoqlar bilan teshish, butun vujudi bilan supurish - imo-ishoralar va tana harakatlari jang o'yiniga, ushlash o'yiniga taklif qiladi”. O’zining “ Shimpanze bolasi va inson bolasi” nomli asarida bolaning dastlabki o’yinlari haqida shunday ifodalaydi: - “Allaqachon to'qqiz oylik Rudi uyg'onishi bilan karavot ustunlaridan ushlab turishga harakat qiladi va avvalgidek yotmaydi va gugulamaydi; u yiqilib tushadi, keyin o'rnidan turadi, yordam bilan yurishga harakat qiladi, emaklashga harakat qiladi, olib ketiladigan aravachaga qo'l uzatadi; aravacha (kolyaska) da olib yurganda ham o'z harakatlari bilan doimo zavqlanadi”

Tadqiqotchi N.N.Ladigina – Kots aynan o‘yinda bolaning harakatlari takomillashuvini ko‘rsatib bera oldi, shimpanze bolasi harakatlari bilan inson bolasi harakatlari orasidagi sifat farqlarini tushuntira olgan. Ushbu tadqiqotning jaxon psixologiyasidagi alohida ahamiyati ham shundaki, bola psixik taraqqiyoti uchun oddiy harakatlarni o‘zlashtirishidan murakkab bo‘lgan hatti-harakatlarni bajarish orqali o‘zlashtirishgacha bo‘lgan jarayonni tadqiqiy o‘rganilganligidir. Uning “Shimpanze bolasi va inson bolasi” nomli mashhur asarida maymun bolasi Ioni bilan o‘z farzandi Rudikning go‘daklik davridanoq oddiy harakatlarni bajarishida, predmetlarni o‘rganish va ulardan foydalanishda o‘xshashlik hamda farqli jihatlarni uzoq muddatli kuzatish orqali o‘rganadi. “Mening Rudiyim (N.Ladigina-Kotsning o’g’li – M.N.), 4-5 yoshdan oldin qiyinchilik bilan, bir oyog'iga sakrashni o'rgandi va odatda bu sakrashni qisqa masofada amalga oshirdi; Mening Ionim(tadqiqotda ishtirok etgan shimpanze bolasi -M.N.) da men hech qachon bir oyoqda sakrash qobiliyatini kuzatmaganman, lekin ikkala (Rudi bilan Ioni) bolada ham bir joyda sakrashga bo'lgan cheksiz istagini payqadim. Bu, ayniqsa, oyoqlari ostidagi prujinali sirt (divanlar, ko'rpa-to'shaklar) mavjud bo'lganda, ular egilishdan xursand bo'lganida, ayniqsa g'ayrat bilan zavqlanib amalga oshirildi” [246 bet]. Eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha xammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o‘yinlar katta rol o‘ynaydi. O‘yinda psixik taraqqiyot kechishi haqida gap ketganda yana N.N.Ladigina-Kotsning tadqiqotlariga murojaat qilamiz. “Inson bolasida 3 yoshli Rudida (Ionidan farqli o'laroq) biz ko'proq konsentratsiyani kuzatamiz, masalan, ijodiy jarayonlarni amalga oshirishda, matnni tinglashda, taqlid qilish harakatlarida diqqat natijaga ishlaydi, buni Ionida kuzatmaymiz” [261b]



N. N. Ladigina-Kots tadqiqotlarida inson bolasi bilan maymun bolasining “eksperiment o’yinlar”i[1] haqida ajoyib tajribalari bayon etilgan. Ba’zilarini keltirib o’tamiz.

“Qattiq jismlar bilan o'ynash, masalan, toshlar, qog'oz parchalari, shishalar,

[1] Bu termin ilk marotaba K.Gross tomonidan kiritilgan

mixlar, tugmalar, bolaning hayotida katta o'rin egallaydi. Ioni kabi Rudi ham har soniyada tajriba uchun turli materiallarni topadi, xuddi Ioni singari, Rudida ham chiqindi material yo'q edi: u topilgan hamma narsani o'yinda ishlatgan. U(Rudi)ning aqliy faoliyati uning tajriba o'yinlarida ayniqsa yaqqol aks etgan, bunday oson harakatlanuvchi plastik bilan ishlashda, yog'och chiplari, gugurt, tayoq, kauchuk, suv, olov, qum, tosh va boshqalar bilan tajriba qilib ko'rgan"

Svetlana Leonidovna Novoselova (1933- 2005) psixologiya fanlari doktori, Rossiya tabiiy fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi. Ilmiy izlanishlarida ilk bolalik davrida tafakkurning taraqqiyoti masalalarini o'rganadi. Uning "Ilk bolalk davrida tafakkur rivojlanishi" (1977) asarida N.N.Ladigina - Kots tadqiqotlariga tayangan holda 1 yodan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda tafakkur kurtaklarining paydo bo'lishi, predmetlar bilan "eksperiment"larning bola fikrlashiga ta'siri masalalarini tadqiq etgan. A. N. Leontievning faoliyatga yondashuvi g'oyalarini davom ettirdi va rivojlantirdi. Aynan shunga asoslanib, Svetlana Novoselova tomonidan "Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlari" nomli asari yaratildi, unda bolalar o'yinining yangi tasnifini ishlab chiqi , bu tasnifda o'yinning etakchi faoliyat ekanligi va o'yinning funktsiyalariga ko'ra boshqa o'yin turlari ham aniq ajratilgan.



Shu bilan birga, o'yinning etakchi faoliyati tushunchasiga aniqlik kiritib, etakchilik bu nafaqat syujetli rolli o'yinga, balki har qanday syujetli rolli o'yinga tegishli emasligini tushuntirdi. S.Novoselova shogirdi E.V. Zvorigina bilan birgalikda ishlab chiqgan va 1979 yilda chop etilgan ijodiy o'yinlarni pedagogik qo'llab-quvvatlashning keng qamrovli usuli haqidagi tadqiqotlari ham muhim ahamiyatga ega. O'yin muammolarini rivojlantirish maktabgacha ta'lim darajasi bilan chegaralanib qolmadi. Svetlana Leonidovna o'yinning kelib chiqishi muammolari bilan qiziqdi. Uning tadqiqotlari nafaqat ontonogenez muammolarni hal qiladi, balki filogenez, antropogenez va bolalar o'yinining sotsiogenezi masalalariga ham qaratilganligi bilan qimmatli hisoblanadi.

Darvin muzeyi ilmiy maktabi a’zolaridan biri, ustozi N. N. Ladigina-Kotsning tadqiqotlari ta’sirida evolyutsion psixolog sifatida u o'yin faoliyati muammolariga har tomonlama va keng yondashdi: uning asarlari primatlarning o'ziga xos o'yin faoliyati muammolariga bag'ishlangan, buning ortidan esa S.Novoselova arxaik va xalq o'yinlarini o'rgandi. Uning tadqiqotlarida hech qachon faoliyatning intellektual asosi o'yinga bog'liqligi muammosi e’tibordan chetda qolmagan. Ilk yoshdagi bolalar uchun didaktik o'yinlar to'plamini ishlab chiqishdan tortib sub'ekt faoliyatining umumlashtirilgan tajribasi sifatida dunyo qiyofasi muammolarini o'rganish bolalar o'yinini rivojlantirish va uni boyitish unda kognitiv motivlarni shakllantirishning eng muhim omili sifatida ko’rsatib bera oldi.

S. L. Novoselova bo’yicha o'yinlarning zamonaviy tasnifi doirasida maktabgacha yoshdagi bolaning etakchi faoliyatini tashkil etuvchi va uning yoshga bog'liq rivojlanishini ta'minlaydigan o'yinlar maxsus ta'lim funktsiyasiga ega bo'lgan yoki bolani ma'lum madaniy standartlar bilan tanishtiradigan o'yinlardan aniq ajratilgan. Ushbu tasnifda belgilovchi mezon bolalarning o'zlari, kattalar yoki etnik guruhga tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan o'yindagi tashabbus tushunchasi. Shunga ko'ra, teng bo'lmagan rivojlanish salohiyatiga ega bo'lgan o'yinlarning uchta asosiy guruhi mavjud.

O'yinlarning birinchi guruhi - bu bolalar tashabbusi bilan paydo bo'ladigan o'yinlar

Bunday o'yinlar havaskorlik o'yinlar deb ataladi. Havaskor o'yinlar etakchi faoliyat bo'lib, bolalar rivojlanishi uchun juda muhimdir. Ular rolli o'yin doirasi bilan cheklanib qolmaydi, balki bir qator kichik turlar bilan ifodalanadi. Biroq, bunday o'yinlar *"yo'q joydan"* o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning tashqi ko'rinishi va muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun bolaning o'yin tajribasi boshqa ikkita guruh o'yinlarini o'z ichiga olishi kerak.

O'yinlarning ikkinchi guruhi - bu kattalarning asl tashabbusi bilan bog'liq o'yinlar

Bunday o'yinlarda, o'yinda shaxsan ishtirok etmasa ham, o'yin maqsadlarini belgilaydi, ularni amalga oshirish yo'llari va vositalarini belgilaydi. Masalan, o'yin qoidalari *(aytaylik, biror narsani ma'lum bir ketma-ketlikda yig'ish)* dastlab kattalar tomonidan u yoki bu didaktik o'yinchoqni yaratishda dizaynda belgilanadi. Bu guruh

o'yinlari ko'pincha ta'lim maqsadlarida qo'llaniladi: didaktik o'yinlar va o'yinchoqlar turli xil o'quv tadbirlarida qo'llaniladi va syujetli-didaktik o'yinlar bolalarni syujetli o'yin bilan tanishtirishning qulay vositasidir.

Uyushtirilgan hikoyali o'yinlar kattalar tomonidan boshlangan o'yinlar orasida muhim o'rin tutadi. Siz ularga alohida e'tibor berishingiz kerak. Syujetli didaktik o'yinlarni tashkil etish havaskor o'yinlarni rivojlantirish uchun zarur, ammo etarli emas. Ikkinchi zaruriy shart - ijtimoiy-sub'ekt sharoitlarini yaratish va bolalarning mustaqil o'ynashi uchun etarli vaqtni ta'minlash bo'ladi.

Uchinchi guruh o'yinlar - bu etnosning tarixiy tashabbusidan kelib chiqqan xalq o'yinlari

Bular an'anaviy yoki xalq o'yinlari deb ataladi. Asrlar davomida ular bolalarni ma'lum madaniy me'yorlar bilan tanishtirishga, shuningdek, ularda insonning umumiy aqliy qobiliyatlarini hamda o'yin tegishli bo'lgan etnik guruhning eng muhim xususiyatlarini tarbiyalashga hissa qo'shgan.

5.3. Ixtiyoriy xulq rivojlanishida o‘yinning ahamiyati

Bolalarning har qanday o‘yin faoliyatida o‘yin qoidasiga rioya eta borib ixtiyoriy xulqi rivojlanishini kuzatish mumkin. Rollarni bajara turib bolada u yoki bu xulqni shakllanishiga erishish mumkin. Ayniqsa jamao bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlar bolada axloqiy sifatlarni o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Qator psixologlar fikricha, go‘daklik davrida bolaning predmetli faoliyati negizida rolli o‘yin uchun eng zarur sharoitlar asta-sekin vujudga kela boshlaydi. Mazkur olimlar va ularning shogirdlari to‘plagan ma’lumotlarga asoslanib rolli o‘yinni vujudga keltiruvchi muhim omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) go‘daklik davridagi predmet bilan uni harakatlantirish orasidagi bog‘liqlik o‘z ahamiyatini yo‘qota boradi, natijada predmet bilan harakat alohida hukm surish imkoniyati tug‘iladi va bola ularni alohida umumlashgan tarzda aks ettira boshlaydi;

2) bola haqiqiy o‘yinchoqlar o‘rniga ularning asl mohiyatini to‘la aks ettirolmaydigan yasama va beo‘xshov nusxalaridan keng foydalanadi (fabrikada

tayyorlangan qo‘g‘irchoq yoki avtomabil o‘rniga uyda yasab berilgan shunday narsalar bilan qanoatlantirish);

3) bolaning o‘z xatti-harakatlari kattalarning ishlaridan farqlanishiga intilishi, unda o‘ziga xos shaxsiy harakat ko‘nikmasining paydo bo‘lishi;

4) bolada o‘z xatti-harakatini kattalar faoliyati bilan qiyoslash, harakatlarining mohiyatini muvofiqlashtirish va aynan tuzilishi jihatidan bir-biriga yaqinlashtirish istagining tug‘ilishi;

5) bola kattalarning hayoti va faoliyatida uchrab turadigan, odatdagi turmush muammolarini o‘zida aks ettiruvchi, ma’naviy va maishiy ko‘rinishga ega bo‘lgan hayot jabhasini o‘z xatti-harakatida izchil ravishda tiklashga (ularning rolini bajarishga) urinishadi.

Katta yoshdagi bolalarda o‘yin faoliyati mutlaqo boshqacha o‘tadi, chunonchi bir harakat ikkinchi harakat bilan uzluksiz bog‘lanib ketadi, ba’zi bir harakatlar esa so‘z yordamida qisqartiriladi (“keling, xush ko‘rdik” harakat bilan emas, balki so‘z orqali ifodalanadi) va umumlashtiriladi. Rolli o‘yin bolalarning hamkorlikdagi faoliyati mahsuli tariqasida vujudga keladi. Bu yoshda rol tanlashda ishtrokchilar o‘rtasidagi nizolar, tortishuvlarkamayadi, rolga o‘zini loyiq deb bilish o‘zidagi mavjud buyumlardan kelib chiqmaydi (masalan, qalam-o‘qituvchi, qaychi-tikuvchi rolini olish uchun asos bo‘la olmaydi), balki o‘yinning mazmunidan, hamkorlikdagi faoliyat nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Natijada ular kichik maktabgacha yoshdagilarga o‘xshab rolni almashtirish, bir buyumdan boshqaiga bir obrozdan ikkinchisiga o‘tishdek beqaror harakatlar qilmaydilar.

Yuqoridagi mulohazalar asosida aytish mumkinki, katta kishilar hayoti va faoliyatining o‘rnini bosuvchi ashyolar ularning harakatini umumlashgan holda ifodalashning moddiy tayanchi hisoblanadi. Shunday ekan, o‘yin faoliyatida bola harakatining rivojlanishi o‘yin mazmuniga ko‘proq bog‘liqdir. Chunki bolaning xatti-harkati qanchalik ihcham va umumlashgan bo‘lsa, u kattalarning faoliyati mazmunini aks ettirishdan shunchalik yiroqlashadi. Binobarin, u odamlarning narsalarga va bir-biriga munosabatini amalda bajarishga o‘tadi va shuning uchun narsalar bilan harakat qilishda kattalarning ijtimoiy munosabatlarini to‘g‘ri

ifodalashga intiladi. Har qanday o‘yinning va o‘yin faoliyatining markazida bola katta kishilarning faoliyati va o‘zaro munosabatini, muomalasini o‘ziga xos tarzda aks ettirishi, takrorlashi imkoniyati turadi. Shunga ko‘ra o‘yin ijtimoiy ahamiyat kasb etib, bola insoniyat tomonidan asrlar davomida yarailgan qimmatli bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, malakalar va odatlarni o‘rganishga imkon yaratadi, oqibatda uni shaxslararo muloqotning mohiyatiga olib kiradi.

VI BOB. O‘YIN MOHIYATI VA PSIXOLOGIK TAHLILI

6.1. O‘yin turlari klassifikatsiyalari

Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat orqali bola axloq me’yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog‘cha yoshidagi bola endi o‘z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo‘ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi, u yangiliklarni egallashga nisbatan o‘z bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o‘zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir. Bog‘cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. 3-7 yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

-predmetlarni o‘rganishi;

-individual predmetli o‘yinlar, jamoa syujetli-rolli o‘yinlar;

-individual va guruhiy ijod;

-musobaqa o‘yinlari;

-muloqot o‘yinlari;

-uy mehnati.

Bog‘cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to‘la o‘zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o‘zlariga yaqin bo‘lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi bog‘chadagi o‘rtoqlari va qo‘ni-qo‘shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo‘lib o‘ynashga harakat qiladilar. Hamma narsani bilib olishga bo‘lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog‘cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo‘lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko‘rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog‘cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o‘sishida qiziqishning roli kattadir, qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab psixik hodisa desa bo‘ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug‘ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o‘z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o‘stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi. 3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo‘lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o‘rganadilar

D.B.Elkonin maktabgacha yoshdagi bolalarga xos rolli o‘yinlarning syujetiga ko‘ra uchta guruhga ajratishni tavsiya qiladi:

4. Maishiy mavzu syujetiga oid o‘yinlar.
5. Ishlab chiqarish syujetiga taalluqli o‘yinlar.
6. Ijtimoiy-siyosiy syujetli o‘yinlar.

D.B.Elkonin harakatli o‘yinning qoidalari mazmuni o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqib, ularni besh guruhga ajratadi:

6. Harakatga taqlid qilish: taqlidiy-protsessual o‘yinlar.
7. Muayyan syujetni dramalashtirilgan o‘yinlar.
8. Syujetli o‘yinlar.
9. Syujetsiz o‘yinlar.

Aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport o‘yinlari

6.2. O‘yin turlari va ularning psixologik xususiyatlari. O‘yin va bilish jarayonlarining rivojlanishi.

O‘yin turlari va ularni psixologik xususiyatlari haqida pedagogika va psixologiyada o‘z yondoshuvlar mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘yini xilma-xildir. Ularni o‘yin turlarini asosan quyidagi klassifikatsiya kilish mumkin.

1) Syujetli va rollarga bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlar;
2) Didaktik o‘yinlar;
3) Harakatli yoki koidali o‘yinlar;
4) Aralashtirilgan o‘yinlar;

5) Qurish va yasash o‘yinlari.

Syujetli va rollarga bo‘lib o‘ynaladigan bog‘cha yoshi bolalarni eng asosiy o‘yin shaklidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘proq «bog‘cha-bog‘cha», «poezd-poezd» kabi qiziqarli bo‘lgan o‘yinlar o‘ynaydi. Lekin turli yoshdagi bolalarning o‘yinlari nomi bir xil bo‘lsa ham syujeti har xil bo‘ladi. Masalan: kichik guruh bolalari «bog‘cha-bog‘cha» o‘yinini o‘ynar ekan ular peshinga ovqat pishiradilar, nonni kesadilar, idishni yuvadilar. Ammo, kesilgan non qo‘g‘irchoqlarga berilmaydi, pishirilgan ovqat likopchaga suzilmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga sensor tarbiya berishda didaktik o‘yinlarni roli katta. Didaktik o‘yinlar maktabgacha ta’lim tashkilotida maxsus dastur asosida olib boriladigan mashg‘ulotlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishga, katta guruh bolalarini maktabdagi o‘qish faoliyatiga tayyorlashga katta yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlari ichida harakatli yoki qoidali o‘yinlar xam muhimdir. Chunki harakatli o‘yinlar bolalarni jismoniy jixatdan chiniqtiradi, dadil, qo‘rqmas, epchil bo‘lishga undaydi. Maktabgacha yoshidagi bolalarning(4 yoshdan boshlab) yetakchi faoliyati rollarga bo‘lib o‘ynaladigan, ijodiy o‘yindir. O‘yin jarayonida bolalar muayyan rollarni bajarishni o‘z zimmasiga olishadi hamda o‘yin sharoitida odamlar faoliyati va munosabatiga taqlid qilib rollarni bajarishadi.

3-4 yashar bolalarda birgalikda o‘ynaladigan o‘yinlar hali bo‘lmaydi. Dastlab buyum, o‘yinchoq rolini go‘yo esga solganday bo‘ladi, so‘ngra bola o‘yinda ixtiyoriy suratda o‘z zimmasiga ma’lum rolni oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning kattalar tomonidan uyushtirilib, muayyan maqsadga qaratilgan ijodiy faoliyati uning taraqqiyotga ancha ta’sir ko‘rsatadi. Ikki yoshda bola jon dili bilan rasm sola boshlaydi. Rasm solish jarayonida uning idrok etishi ya’ni u buyumning rangi va shaklini yaxshiroq ajrata boshlaydi, kuzatuvchanligi rivojlanadi. Bola tasavvurlayotgan narsani o‘xshatish maqsadida rasmda aks ettirish zarur bo‘lgan narsalarning belgilarini ataylab ajratib ko‘rsatadi. Bola rasm solar ekan, rasmni so‘zlar bilan to‘ldirib, faollik bilan xarakat qiladi, u

o‘z tassavvurlari asosida keyinchalik katta yoshdagi odamlarning so‘ziga binoan rasmlar yaratmog‘i mumkin unda ayrim narsalarning obrazlari vujudga keladi. Rasm solish bilan loy va plastilinlardan shakllar yasaydi, natijada, bola analizatorlarining rivojlantirishda hamda moslashgan va differensiyalashgan xarakatning tarkib topiishidan tashqari uning narsa shaklini, xajmini, bir o‘lchovda bo‘lishi va munosabatligini idrok etish takomillasha boradi. 3-4 yashar bola narsalar o‘rtasidagi bog‘lanishni farqlab oladi va o‘z faoliyatini rejalashtiradi, bu faoliyat asta-sekin ijodiy faoliyatga aylanadi.

Bolalarni kognitiv sohasi rivoji uchun ko‘plab psixologik o‘yinlar mavjud bo‘lib bu o‘yinlardan ta’lim tashkilotlarida xam keng foydalaniladi. Ba’zan bolalar tomonidan ko‘cha – kuyda ham shunday o‘yinlarni o‘ynayotganiga ko‘zimiz tushadi.

Quyida keltirayotgan o‘yinlar ham shunday psixologik o‘yinlar bo‘lib bolalarni shaxsiy sifatlarini, xarakterli jihatlarni, diqqat, xotira, nutq, tafakkur kabi bilish jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. SALOMLASHISH

Maqsad: Bolalarda o’ziga hurmat hissini rivojlantirish.

Pedagog bolalarni o’zining atrofida yig’adi. "Kelinglar hozir hamma bir-birini va meni ko’rib turadigan bo’lib yerga o’tiramiz (Bu yerda asosiy vazifa doira tuzish hisoblanadi). Bolalar doiraga o’tirishadi, pedagog ularga shunday deydi: "hozir men hammani ko’rayotganligim va boshqalar ham meni va bir - birlaringizni ko’rayotganligiga ishonch hosil qilishimiz uchun bir-birlarimiz bilan ko’zimiz yordamida salomlashib chiqamiz. Birinchi bo’lib men hamma bilan salomlashib chiqaman. Men salomlashib bo’lganimdan so’ng yonimdagi qo’shnim hamma bilan salomlashadi. Pedagog boshini biroz egib bir bolani ko’ziga qarab salomlashadi. Salomlashib bo’lgandan so’ng yonida o’tirgan bolaning yelkasiga turtib, salomlashish taklif etadi.

2.KO’ZGU

Maqsad: Bolalarda o’ziga hurmat hissini rivojlantirish. Pedagog atrofiga bolalarni yig’ib shunday deydi: "Hammangizning uyingizda ko’zgu bo’lsa kerak. Aks holda

ko’rinishingiz qandayligi yoki yangi kiygan kiyimingiz yarashganligini bila olmaysiz-ku? Ko’zgu topilmagan payt nima qilish mumkin?

Kelinglar bugun ko’zgu o’yinini o’ynaymiz. Bir-biringizga qarab juft bo’lib turinglar. (Pedagog ularni juftliklarda turishini kuzatib turadi). Endi qaysi biringiz ko’zgu, qaysi biringiz odam ekanligingizni kelishib olinglar. So’ngra o’rin almashasizlar. Odam odatda ko’zguga qarab bajariladigan harakatlarni, ya’ni yuvinish, soch tarash, raqs tushish, badantarbiya qilish kabilarni ifoda etadi. Ko’zgu rolini bajarayotgan bola esa bu harakatlarni aniqlik bilan takrorlashi kerak.

Tayyormisizlar? Unda boshlaymiz. O’yin boshida pedagog bolalarga o’rnak bo’lib bir bola bilan juft bo’lib turadi va uning harakatlarini takrorlaydi.

3. AKS SADO

Maqsad: Bolalarda o’zaro hurmat hissini rivojlantirish.

Bolalar aylana bo’lib o’tirishadi. Pedagog: "Siz qachondir aks-sadoni eshitganmisiz? Bu ovoz bir necha marotaba takrorlanib, har takrorlanganda sekinlasha boradi. Hozir biz sizlar bilan aks-sado o’yinini o’ynaymiz. Men hozir qandaydir so’zni baland ovozda gapiraman. Yonimdagi bola esa uni sekinroq talaffuz etadi, uning yonidagi esa undan ham sekinroq. Shunday qilib, butun aylana bo’ylab davom etadi. O’yin har bir bola o’zining so’zini baland ovozda aytmagunicha davom etadi.

4. BUZILGAN TELEFON

Maqsad: kichkintoylarning diqqat-e’tibori va xotirasini rivojlantirish.

Bolalar aylana bo’lib o’tirishadi. Pedagog biror bir bolaning oldiga borib undan do’stining qulog’iga dam olish kunlari nima qilganligini sekin aytab berishni iltimos qiladi. Ishtirokchilar bir-birlariga shivirlab bu xabarni yetkazishlari kerak. O’yin oxirida esa birinchi ishtirokchi aytgan va oxirgi ishtirokchi eshitgan xabar ovoz chiqarib aytiladi.

5. HARAKATNI UZATIB YUBOR

Maqsad: bolalarning diqqat - e’tibori va xotirasini rivojlantirish. Bolalar aylana bo’lib turadilar va ko’zlarini yumadilar.

Pedagog ham ular yonida turib, qandaydir harakatni (masalan, soch tarashni, qo’l yuvishni, kapalak tutishni va boshqa) o’ylab topadi. So’ngra qo’shni bolani "uyg’otadi" va harakatni ko’rsatadi, u bola esa keyingi bolani "uyg’otadi" va harakatni ko’rsatadi. Shunday qilib aylana bo’ylab oxirgi ishtirokchiga qadar o’yin davom etadi. O’yin barcha ishtirokchilar o’zlari istagan harakatlarini ko’rsatgunlaricha davom etadi.

6. KAYFIYAT

Maqsad: bolalarni o’zlarini namoyon qilishga o’rgatish.

O’yin qoidasi bo’yicha boshlovchi kayfiyatni (qayg’u, quvnoqlik, xayratlanish, ajablanish va boshqalar) O’ylab topadi. Bolalar uni doira bo’yicha qaytarib o’tgunlaricha o’ynash mumkin. So’ngra xohlovchilardan biri boshlovchi bo’ladi. Agar bolalardan kimdir boshlovchi bo’lishni xohlasa-yu, lekin qandaydir kayfiyatni o’zi o’ylab topa olmasa, Pedagog uning o’ziga sekingina qandaydir kayfiyatni aytib yuboradi.

7. SOYA

Maqsad: Bolalarda topqirlikni shakllantirish.

Pedagog bolalarni yig’adi va ularga bir necha xafta oldin o’ynagan soya o’yinini eslatadi: "Esingizdami bizlar soya o’yinini o’ynaganmiz. Lekin unda hammamiz o’zimizning soyamiz bo’lgan edik. Endi bugun esa, boshqalarning soyasi bo’lishni o’rganamiz. Juft bo’lib bo’linamiz. Sizlardan biringiz odam, juftingiz esa soyangiz bo’lsin. Birozdan so’ng esa o’rningizni almashasizlar. Odam xona bo’ylab yura boshlaydi, xuddi o’rmonda yurganidek: malina, qo’ziqorin teradi, kapalaklarni tutadi soyasi esa, uning harakatlarini qaytaradi. Pedagog bolalardan biriga qo’ziqorin terayotganligini tasvirlab berishni so’raydi, o’zi esa uning soyasidek uning xarakatlarini qaytarib beradi. So’ngra bolalarga mustaqil o’ynashlarini aytadi. Agar bolalarga o’yin yoqsa, keyingi safar boshqa vazifa berish mumkmn. Masalan:

Yangi yil archasini bezatish, magazinga borib maxsulotlar olib kelish, uyg’onish, yuvinish va badan tarbiya qilish va h.k.

7. SHERIGINGNI TANLA

Maqsad: Bolalarda topqirlikni shakllantirish.

Bolalar doira bo’lib o’tirishadi. Pedagog shunday deydi: "Hozir sizlar juftliklarga bo’linishingiz lozim. Har biringiz ovoz chiqarmay, boshqalarga sezdirmagan holda, o’zingizga sherik tanlashingiz lozim. Masalan, men Manzura bilan sherik bo’lishni xohlayman va shuning uchun unga sekingina qarab, boshqalarga bilintirmagan holda ko’zimni qisib qo’yaman. Ko’zingiz bilan tanlagan bola bilan kelishib olinglar. Hamma kelishib oldimi? Hozir esa kim kelishib olmaganligini aniqlaymiz. Uch deyishim bilan o’zingizni sherigingizni oldiga borib qo’l ushlashib turinglar." Agar birinchi galda o’yin amalga oshmasa, uni qaytarish lozim. Shu bilan birga Pedagog bolalar juftlari bilan almashib turishlarini nazorat qilib turishi lozim.

9. OYNA ORTIDAN SO’ZLASHISN.

Maqsad: Bolalarda o’zaro hurmat hissini rivojlantirish.

Pedagog bolalarga juftliklarga bo’linishga yordam beradi va so’ng shunday deydi: "Tasavvur qiling sizlardan biringiz magazin ichida, ikkinchingiz esa, ko’chada turibsiz. Biroq, nimani sotib olish kerakligini kelishib olishni unutgansiz, chiqish esa magazinning oxirida. Oyna ortidan kelishib olishga harakat qiling. Lekin, shuni esda tuting-ki oynaning qalinligidan baqirib gapirsangiz ham befoyda, u eshitmaydi. "Kelishib olganingizdan" so’ng bir-biringizni to’g’ri tushunganligingizni tekshirib ko’ring". Pedagog bir bolani tanlab unga imo-ishora orqali nimani sotib olishi kerakligini tushuntiradi, so’ngra u tushunganligini so’rab biladi. Shundan so’ng bolalar o’yinni o’zlari mustaqil o’ynay boshlaydilar. Pedagog o’yinni kuzatib turadi va qiynalgan juftliklarga yordam beradi. So’ngra bolalar rollari bilan almashishlari ham mumkin.

10. KIM AYTDI?

Maqsad: Bolalarda topqirlikni shakllantirish.

Guruhga teskari o’tiruvchi boshlovchi tanlanadi. So’ng Pedagog qo’li bilan ko’rsatgan bola shunday deydi: "Kim aytdi topmaydi deb, sen meni ovozimni taniyapsanmi?" Boshlovchi kimning ovozi ekanligini aytishi lozim. U qaysi bolani ovozini tanigan bo’lsa, keyingi gal o’sha bola boshlovchi bo’ladi. O’yin har bir bola boshlovchi bo’lguncha davom etadi.

11. KO’ZGULAR DO’KONI

Maqsad: bolalarni o’zlarini namoyon qilishga o’rgatish.

Pedagog o’zining atrofida bolalarni yig’adi va shunday deydi: "Kelinglar, bizning o’rmonimizda ko’zgular do’konini ochilganligini tasavvur qilamiz. Mening o’ng tarafimda o’tirganlar ko’zgu bo’lishadi, chap tarafimdagilar esa, jonivorlar hisoblanishadi. So’ngra o’rin almashinamiz. Jonivorlar ko’zguning oldiga kelib sakrashadi, shox tashlashadi va o’zlariga ko’zguni tanlaydilar. Shu vaqtda esa, oynalar jonivorlar harakatini va yuzining imo-ishoralarini aniq aks ettirishlari lozim". Oyna hisoblangan bolalar tizilib turishadi, jonivorlar esa ularni yoniga kelib har xil qiliqlar qilishadi. Oynalar ularning harakati aniq qilib aks ettirishadi. Pedagog o’yinni davom etishini kuzatib turadi va yordam beradi. Keyin bolalar joy almashadilar. (ko’zgu"lar-"hayvonchalar", "hayvon-chalar"-"ko’zgular" bo’lishadi).

12. MEN QAYERDA BO’LDIM?

Maqsad: bolalarni o’zlarini namoyon qilishga o’rgatish.

Bolalar doira bo’lib o’tiradilar. Pedagog bolalardan birini tanlab, so’raydi: "Sen qayerda eding, nima qilding? - gapirmasdan ko’rsatib ber". So’ng u nima qilganini tasvirlab ko’rsatib beradi.qolgan bolalar esa uni nima qilganligini topishi lozim. Agar bola nimani tasvirlab berishni bilmasa, Pedagog unga yordam beradi (m-n, hayvonot bog’iga borganini, o’yin mashg’ulotini, kon'kida uchishni va h.k.). O’yin hamma xohlovchilar nima qilganliklarini ko’rsatib bermaguncha davom etadi.

13. URUG’DAN – DARAXTGA

Maqsad: Bolalarni o’zlarini namoyon qilishga o’rgatish.

Bolalar doira bo’lib turadilar. Pedagog markazda turib bolalarga kichkina urug’ga o’xshab turishlarini aytadi. (cho’kka tushgan holda, boshlarini qo’l bilan yopib o’tiradilar). Pedagog - bog’bon urug’larga suv quyib ularga mehr bilan qaraydi (boshlarini va tanasini silaydi). Iliq bahorning quyoshli kunida sekin-asta o’sa boshlaydilar. (bolalar - urug’ sekingina ko’tariladi.) Uning sekin-asta barglarini ocha boshlaydi (qo’llarini ko’tarishadi), tana o’sa boshlaydi. So’ngra g’uncha ochila boshlaydi (birlashtirib turgan qo’l barmoqlari ochiladi) va unib kelayotgan nihol chiroyli, baquvvat gulga aylanadi. Yoz fasli keladi gullar yaxshilanib, qo’shni gullarga kulib, salgina barmoqlarini uchi bilan ularga tegib qo’yadilar. Mana endi shamol esib kuz fasli kirib keladi. Gullar noma’qbul havodan har tarafga silkinib ketadilar. (qo’llarini, boshlarini, tanalarini har tarafga g’imirlatadilar). Shamol shu g’adar kuchli esadiki, gulning barglarini to’kib yuboradi (qo’llarini pastga tushiradilar), gul qiyshayib yerga yotib qoladi. U endi qayg’uga botgan. Shundan so’ng esa qishning qori yog’a boshlaydi. Gullar yana urug’ga aylanib qoladilar (yerga egilib o’tiradilar).qor urug’ni qoplaganligi uchun issiqina hotirjam uyquga ketadi. Yaqinda yana bahor keladi va u yana jonlanadi. Bolalar yerga engashib o’tirganlaridan so’ng pedagog har bir bolaning oldiga kelib boshini silab chiqadi. O’yin shu tariqa davom etadi.

14. O’YINCHOQNI SO’RAB OL (verbal varianti)

Maqsad: Bolalarni muloqotning samarali usullarini o’rganish.

Guruh juft-juft bo’lib bo’linadi. Juftlikning biri qo’liga biror o’yinchoqni oladi, ikkinchisi esa bu narsani so’rab olishi kerak. Birinchi ishtirokchiga yo’riqnoma: Sening qo’lingdagi o’yinchoq juda kerakli, lekin u sening do’stingga ham kerak. U sendan bu o’yinchoqni berishingni so’rayman. O’yinchoqni o’zingda qoldirishga harakat qilgin, lekin uni juda bergin kelgandagina bergin. Ikkinchi ishtirokchi uchun yo’riqnoma: Kerakli so’zlardan foydalanib, o’yinchoqni shunday so’ragin-ki, senga uni berishsin. So’ngra ishtirokchilar rollari bilan almashadilar.

15. O’YINCHOQNI SO’RAB OL (noverbal varianti)

Maqsad: Bolalarni muloqotning samarali usullarini o’rganish.

Mashq yuqoridagi o’yin singari bajariladi, lekin muloqotning noverbal usulidan foydalaniladi (mimimka, imo-ishora va x.k.) O’yinning ikkala varianti o’tkazilgandan so’ng, bolalarga: "Senga o’yinchoqni qachon so’rab olish yenigilroq bo’ldi?", "qaysi so’zlarni eshitganingda uni bergin keldi?", "qanday so’zlardan foydalanding?" - degan savollarga javob berib, o’z taassurotlari bilan o’rtoqlashadilar. Bu o’yin tengdoshlari bilan tez-tez nizoga boradigan bolalar uchun ayniqsa foydalidir.

16. QUYONCHALAR

Maqsad: Bolalarga turli xil mushak sezgilarini his qilish imkonini berish, shu sezgilarga diqqatini jalb qilish, farqlash va taqqoslashga o’rgatish.

Pedagog bolalar o’zlarini sirkdagi baraban chaluvchi quyonchalar qilib, tasavvur qilishlarini so’raydi. Pedagog jismoniy harakatlar xarakteri - kuchi, tempi, keskinligini ifodalab beradi va bolalar diqqatini mushak va emosional sezgilarni anglash va qiyoslashga yo’naltiradi. Masalan: Pedagog "quyonchalar" barabanni qanchalik kuchli chalayaptilar! Siz ularning qo’llari qanchalik taranglashganini his qilayapsizmi? qo’lchalar qanchalik mustahkam ekanligini his qilayapsizmi? Xuddi tayoqchalar singari shu qo’llaringiz, yelkalaringiz, mushtlaringiz mushaklari qanday taranglashganini his qilayapsizmi? Yuzingiz esa unday emas. Chehrangiz kulib turibdi, xotirjam. Qorin mushaklari esa bo’shashgan holda nafas olmoqda. qo’l mushtim

17. MEN ... KO’RAYAPMAN

Maqsad: Kattalar va bolalar o’rtasida ishonchli munosabatlarni o’rnatish, ichkintoylaning diqqat va e’tiborini rivojlantirish.

Ishtirokchilar doira shaklida o’tirib, xonadagi predmetlar navbatma-navbat "men ... ko’rayapman" deb ataydilar. Biror predmetni ikki marta takrorlash mumkin emas.

18. YUMSHOQ QO’LCHALAR

Maqsad: qo’l mushaklaridagi taranglikni yo’qotish.

Bolalarning agressiv holatdan chiqarishga yordam berish, idrokni rivojlantirish, kattalar va bolalar o’rtasida munosabatlarni mustahkamlash. Pedagog 6-7 ta xil mayda predmetlarni oladi: momiq (mex) bo’lagi, mo’yqalam, shisha flakon, munchoq, paxta va x.k. Ularning xammasini stolga qo’yadi. Bolalarga yengini tirsagigacha shimarish taklif etiladi. Pedagog ularning qo’lidan "jonivorlar" yurishini va yumshoq qo’lchalari bilan tegib o’tishlarini aytadi. Ularning ko’zlari yumuq holda qaysi "jonivorlar" qo’llariga tegib o’tganini topishlari lozim. Predmetni tegib o’tish muloyim va silovchi bo’lishi kerak.

O’yin variantilari: "jonivorlar" kaftga, yuzlariga, tizzalariga tegib o’tishi mumkin. Bolalar bilan o’rin almashinishlari mumkin.

19. QARSAK

Maqsad: kichkintoylarning diqqat - e’tibori va xotirasini rivojlantirish. Bolalar juftliklarga bo’linib, kaftlarini yuqoriga qaratib, bir-birlariga qarama-qarshi turadilar. O’ng qo’l bilan "raqib"ining chap qo’liga "qarsak" urish va shu bilan birga o’zining chap qo’lini "qarsakdan" asrash lozim bo’ladi.

Sardor o’yinni murakkablashtirish maqsadida "Almashtiring!" buyrug’ini berishi mumkin. Bu taqdirda chap qo’l bilan raqibning o’ng qo’liga "qarsak" urish va shu bilan birga o’zining o’ng qo’lini "qarsak"dan asrash lozim bo’ladi.

Har bir ishtirokchi "raqib"ining qo’liga necha marotaba "qarsak" urganligini hisoblab boradi.

20. SALOM, MEN MUSHUKCHAMAN!

Maqsad: bolalarni o’zini o’zi xurmat qilishga o’rgatish.

Boshlovchi qo’lida mushukli yumshoq o’yinchoqni (agar uni qo’lga kiygaziladigan bo’lsa, undan ham yaxshi) ushlab turadi. U bolalarga navbat bilan mushukcha bilan salomlashishlarini aytadi. Har bir bola u bilan o’zini tanishtirib, qo’l berib ko’rishadi. Masalan: "Salom mushukcha, men Malikaman".

6.3. Ijodiy o‘yinlar va uning ahamiyati. Rolli va syujetli o‘yinlar.

Ijodiy o‘yinlar bu bolalarning mustaqil ijodiy, o‘zlari o‘ylab chiqqan o‘yin majmuidir. Bunda bolalar o‘z taassurotlari, borliq hayotdagi tushunchalari va unga bo‘lgan o‘z munosabatlarini aks ettiradilar. Ijodiy o‘yinlar quyidagi turkumlarga bo‘linadi:

- ijodiy;
- dramalashtirilgan;
- qurilish;
- tabiat materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinlar.

Ijodiy o‘yinlar boshqa tur o‘yinlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. O‘yin mazmunining o‘ziga xosligi.
2. Rollarning mavjudligi.
3. Xayoliy vaziyatning mavjudligi.

Ijodiy o‘yinlar mazmunining o‘ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Mashhur pedagog va psixologlardan D.B.Elkonin, D.V. Mendjeriskiy, P.E.Samorukova va boshqalarning fikricha, ijodiy – rolli o‘yinlar kattalarning ijtimoiy hayotidagi rang-barang xatti-harakatlari, ko‘rinishlari – bolalar o‘yinlarining asosiy mazmuni bo‘lib xizmat qilib kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turidir.

Ijodiy o‘yin faoliyatida asosiy komponent bo‘lib, u personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini o‘z ichiga oladi. Ijodiy o‘yinlar o‘z mazmun va mohiyatiga ko‘ra jamoa o‘yini bo‘lib hisoblansada, yakka holda o‘ynalmaydi, degan fikrni keltirib chiqarmasligi kerak. Ijodiy o‘yinlar bolaning aqliy, axloqiy, jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi.

Bog‘cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosobatda bo‘lishga intiladi. Bu o‘rinda shu narsa harakterliki bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o‘zining biladigan narsalari

bilangina emas, balki kattalarga mansub bo‘lgan o‘zining kuchi ham yetmaydigan, hali aqliga sig‘maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi.

D.B. Elkonin o‘z tadqiqotida rolli o‘yinning syujeti bilan bir qatorda , uning mazmuni ham mavjud ekanini yozadi .Uning fikricha o‘yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirishi o‘yinni mazmunini A.P.Usovaning tatqiqotlarida ta’kidlanishicha, rolli o‘yin ishtirokchilarni safi yosh ulg‘ayishiga qarab jinsiy tofovutlariga binoan kengayib boradi. Uch yoshli bolalar ikki uchtadan guruhga birlashib, uch besh daqqiqa birga o‘ynab oladilar 4-5 yoshli guruhi 2-3tadan ishtirokchidan iborat bo‘lib ularning hamkorligidagi faoliyati 40-50 daqiqa davom etadi o‘yin davomida qatnashchilar soni ham ortib boradi: 6-7 yoshli bolalarda rolli o‘yini guruh yoki jamoa bo‘lib birga o‘ynash istagi vujudga keladi avval rollar taqsimlanadi o‘yinning qoidalari va shartlari tushuntiriladi (o‘yin davomida bolalar bir–birlarni harakatini qattiq nazorat qiladilar).

Ilk yoshdagi bolalarning sodda o‘yinlarini mashq o‘yinlari, harakat o‘yinlari, manipulyatsiya (timirskilash) o‘yinlari deb atash mumkin. Bunday o‘yinlarda bola o‘yinchoqlarni bir joydan 2-joyga olib borib qo‘yadi, mashinalarni yurgizib ko‘radi yoki qiz bola bo‘lsa, qo‘g‘irchoqlariga gapirishga harakat qiladi, kubiklarni ustma-ust qilib taklaydi va shu kabi harakatlarni bajaradi. Bunday sodda o‘yinlarda ham bola xayolini boyitadigan mazmun yo‘q.

Bola 2 yoshga to‘lgach, uning o‘yinlarida jiddiy o‘zgarish ro‘y beradi. Bolaning o‘yiniga endi taqlidiy harakatlar qo‘shiladi. Bolani kattalardan ko‘rgan-bilganlarini o‘yinda taqliddan takrorlay boshlaydi. Bu davrda bola mashinachasini u yoqdan bu yoqqa siljitish yoki tepalikdan sirg‘antirib tushirish bilan cheklanmay, shofyorlarni harakatini bajaradi. Qiz bolalar esa qo‘g‘irchoqqa o‘zlariga xirgoyi qilib allalar aytibgina qolmay, o‘yinchoq kravatchalarga yotqizib tebratishga, agar it hursa “tu tet” deb haydashga urinadilar. Bolaning bunday o‘yinlarida esa endi tiklovchi xayolning yuzaga kela boshlaganini ko‘rish mumkin.

Bog‘cha yoshdagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevoisita amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi. Bu o‘rinda shu narsa e’tiborliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o‘zining kuchi, aqli etadigan narsalar bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo‘lgan, o‘zini kuchi ham, aqli ham etmaydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo‘lishga, ya’ni bilib olishga intilaveradi. Buning natijasida bolaning xaddan tashqari tez ortib borayotgan turlari ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o‘rtasida keskin qarama – qarshilik yuz beradi.

Masalan bola avtomashinani, avtobusni o‘zi haydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchi bo‘lib samolyotda uchgisi, rostakam militsioner bo‘lgisi keladi. Biroq , bola o‘zidagi bunday extiyojlarni birortasini ham xaqiqiy yo‘l bilan qondira olmaydi. Chunki, bu yoshdagi bolada bunday kasblarga mansub bo‘lgan murakkab ko‘nikma va malaka yo‘k, bo‘lishi ham mumkin emas. Bu o‘rinda tabiiy bir savol tug‘iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turlicha extiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o‘rtasida qarama – qarshilik qanday yo‘l bilan hal qilinadi? Bu qarama – qarshilik faqat birgina faoliyat orqali, ya’ni bolaning o‘yin faoliyati orqaligina, xal qilinishi mumkin. Chunki birinchidan , bolalarning o‘yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan emas. Bolalarni o‘yinga undovchi sabab (motiv) ham o‘yindan kelib chiqadigan natijaga emas, (o‘yindan ko‘pincha xech qanday natija kelib ham chiqmaydi), balki shu o‘yin jarayonidagi turli xarakterlarga bog‘liqdir. Ikkinchidan esa bolalar o‘yin jarayonida o‘z ixtiyorlaridagi narsalarni, ularni qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo‘lgan narsalarga aylantirib (cho‘pni ot qilib, stulchani avtomashina qilib) kuchlari etgancha erkin faoliyatda bo‘laveradilar. Shunday qilib, bolalar atroflaridagi kattalar uchungina mansub bo‘lgan , xali o‘zlarining kuchlari ham, aqllari ham yetmaydigan juda ko‘p narsalarni faqat o‘yin faoliyati orqali o‘zlashtiradilar. O‘yin orqali ular voqelikdagi narsa va hodisalarni biladilar.

6.4. Jamoaviy o‘yinlar tabiati va ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish

Bolalarning o‘yin faoliyatlarida har xil hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin: odamning (shu jumladan bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va xodisalarni aks ettirish jarayonlari passiv jarayon emas, balki faol hamda ijodiy, yaratuvchan, o‘zgartiruvchan jarayondir.

Bolalar o‘yin faoliyatlarining yana bir ajoyib hususiyati shundan iboratki, o‘yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollari ko‘pincha umumiylik harakteriga ega bo‘ladi. Bunda bola o‘zining turli-tuman o‘yinlarida faqat o‘ziga tanish bo‘lgan yolg‘iz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, Pedagogning, uchuvchining xatti-harakatlarigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, Pedagoglarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi juda cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba’zan kichik guruh bolalari ham) o‘zlarining o‘yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar. (Masalan, oyisini, adasini, akasini va shu kabi). O‘rta, katta bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik harakteriga ega bo‘la boshlaydi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yinlari atrofdagi narsa va xodisalarni bilish quroli bo‘lishi bilan birga yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Boshqacharok qilib aytganda, o‘yin qudratli tarbiya qurolidir. Bolalarning o‘yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya’ni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o‘zlari yolgiz o‘ynaydilar. Predmetli va konstruktorlik o‘yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o‘zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli, rolli o‘yinlarda bolalar asosan o‘zlari har kuni ko‘rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti –harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o‘yini asta–sekinlik bilan jamoaviy harakterni ola boshlaydi.

Bolalarning individual hususiyatlarini, xususan ularning jamoaviy o‘yinlari orqali kuzatish qulaydir. Bu o‘yinlarda bolalar kattalarning faqat predmetlarga

munosabatini emas, balki ko‘proq o‘zaro munosabatlarini aks ettiradilar. Shuningdek, jamoaviy o‘yinda bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar.

Katta bog‘cha yoshida syujetli-rolli o‘yinlar rivojlanadi, lekin endi bu o‘yinlar o‘z mazusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o‘yinlar jarayonida bolalarda liderlik yuzaga kela boshlaydi, shuningdek tashqilotchilik ko‘nikma va malakalari rivojlanadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shunday o‘yinlarda muvafaqqiyatga erishish shakllanadi va mustahkamlanadi. Katta bog‘cha yoshida konstruktorlik o‘yinlari asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatiga aylanib boradi. O‘yinda bola elementar mehnat ko‘nikma va malakalarini egallay boshlaydi, predmetlarning xossalarini anglay boshlaydi, amaliy tafakkur rivojlana boradi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yin faoliyatlari xaqida gapirar ekanmiz, albatta ularning o‘yinchoqlari masalasiga ham to‘xtab o‘tish kerak. Bolalarga o‘yinchoqlarni berishda ularning yosh hususiyatlarini, taraqqiyot darajalarini va ayni paytda ularni ko‘prok nimalar qiziqtirishini hisobga olish kerak. Ma’lumki, 1-3 yosh bolalar hali tashqi muhitni juda oz o‘zlashtirganlar. Ular hali hattoki narsalarning rangini, hajmini va boshqa jihatlarini yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ularga qo‘g‘irchok bilan birga har xil rangli qiyqim, laxtak matolar ham berish kerak. Ayniksa, qiz bolalar o‘z qo‘g‘irchoqlarini har xil rangli matolarga o‘rab, ro‘mol qilib o‘ratib mashq qiladilar. O‘g‘il bolalarga esa, har xil rangli, bir-birining ichiga sig‘adigan quticha o‘yinchoklarni berish foydalidir.

O‘yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo‘lgan ta’lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallash uchun odam avvalo yetarli darajada nutqni egallagan bo‘lishi, ma’lum malakalar, uquvlar va elementar tushunchalarga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi. Bularga bola o‘yin faoliyati orqali erishadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida asosan syujetli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarni o‘ynaydilar. Rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarda bolalar tevarak atrof-muhitdagi narsalarni aks ettiradilar. Ular o‘zlarining turli o‘yinlarida kattalarning oilaviy hayot sharoitlariga doir hodisalarni, mehnat faoliyatlarini, yirik tarixiy hodisalarini, kishilar orasidagi muloqot munosabatlari, urf - odatlar, bayramlarni aks ettiradi.

Bolalar aks ettirayotgan muhit qanchalik keng va xilma -xil bo‘lsa, bolalar o‘yinining syujeti ham shunchalik keng va xilma - xil bo‘ladi. Ana shuning uchun o‘z - o‘zidan ma’lumki, kichik bog‘cha yoshdagi bolalar o‘yinlarining syujeti nihoyatda tor bo‘ladi. Bolalar o‘sib ulg‘aygan sari ular o‘yinining syujeti tobora boyib, xilma - xillashib boradi.

Maktabgacha yoshidagi bolalar o‘yinining psixologik xususiyatlari.

Ma’lumki, bolaning yoshi ulg‘ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar bo‘yicha dunyoqarashi kengayib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o‘yindir. Bu yoshdagi bolalarning o‘yinlarini uchga bo‘lish mumkin:

1) predmetli o‘yinlar(15-20 minut o‘ynaladi);

2) syujetli-rolli o‘yinlar (30-60 minut o‘ynaladi);

3) qoidali o‘yinlar (1soatdan -2kungacha davom etishi mumkin).

Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko‘p olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlarining o‘yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg‘a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosobatda bo‘lishga intiladi. Bu o‘rinda shu narsa harakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o‘zining haddi sig‘adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo‘lgan, o‘zining kuchi ham yetmaydigan, haddi sig‘maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o‘zi haydagisi, xaqiqiy otga minib yurgisi, uchuvchi bo‘lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo‘lgisi keladi.

Tabiiyki bola o‘zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo‘l bilan qondira olmaydi. Bu o‘rinda savol tug‘iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo‘l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya’ni, bolaning o‘yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

- ***birinchidan,*** bolalarning o‘yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o‘yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o‘yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog‘liqdir;

- **ik*kinchidan***, bolalar o‘yin jarayonida o‘z ixtiyorlaridagi narsalarni, o‘zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo‘lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo‘ladilar. Bolalarning o‘yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir.

O‘yin bolalar hayotida shunday ko‘p qirrali faoliyatki, unda katgalarga mansub bo‘lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o‘yin faoliyatida aniq bo‘ladi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, o‘yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o‘yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xususiyatlari ham shakllanadi. Demak, bog‘chadagi ta’lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bolalarning o‘yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog‘liqdir.

Shunday qilib, o‘yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o‘zi, o‘yin davomida yuzaga kelib, rivojlanadigan psixik jarayondir. Shuni ham ta’kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go‘yo, bir mo‘jizadek ko‘rinadi. Natijada ular ham o‘zlarining turli o‘yinlari jarayonida o‘xshatma qilib (ya’ni, analogik tarzda), har xil xayoliy narsalarni o‘ylab topadilar (uchar ot, odam

mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o‘ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o‘zlarining har turli o‘yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog‘da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

Bolalarning o‘yin faoliyatlarida turli hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi.

Bolalar o‘yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o‘yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko‘pincha umumiylik harakteriga ega bo‘lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o‘zining turli-tuman o‘yinlarida faqat o‘ziga tanish bo‘lgan yolg‘iz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, Pedagogning, uchuvchining xatti-harakatlarnigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, Pedagoglarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi.

Bu yoshdagi bolalar o‘z vaqtining ko‘p qismini o‘yin bilan o‘tkazadi, ayniqsa 3 yoshdan 6-7 yoshgacha o‘yinlar ahamiyatli taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tadi: predmetli-boshqaruv va ramziy o‘yinlardan tortib to qoidali syujetli-rolli o‘yinlargacha. Bu yosh davrida barcha o‘yin turlarini ko‘rish mumkin.

Bu yosh davri davomida bolalarning quyidagi asosiy faoliyat turlari izchillikda takomillashib boradi: predmetlar bilan boshqarish o‘yini, qonstruktiv tipdagi individual predmetli o‘yin, jamoaviy syujetli-rolli o‘yinlar, individual va guruhiy ijod, o‘yin-musobaqa, o‘yin-muloqot, uy mehnati. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar asosan predmetlar, turli xil o‘yinchoqlar bilan yolg‘iz o‘zlari o‘ynaydilar. O‘zlarining predmetli va konstruktorli o‘yinlarida idrok, xotira, tasavvur, tafakkur jarayonlarini, shuningdek o‘z harakat qobiliyatlarini takomillashtirib boradilar. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar



(ba’zan kichik guruh bolalari ham) o‘zlarining o‘yinlarida qonkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar xolos. Masalan, (oyisini, dadasini, akasini, Pedagogsini va shu kabilarni). O‘rta yoki katta bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik harakteriga ega bo‘la boshlaydi. Sekin-asta o‘rta maktabgacha davrga borib o‘yin jamoaviy bo‘lib boradi va unga ko‘proq bolalar qo‘shila boshlaydi. \

Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning jamoa o‘yinlari davomida kuzatish qulaydir. O‘z o‘yinlarida bolalar kattalarning predmetlarga munosabatinigina emas, balki ko‘proq ularning o‘zaro munosabatlarini ham aks ettiradilar va ularga taqlid etadilar. Shuningdek, jamoa o‘yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «poezd» o‘yinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko‘mir yoquvchi, provodniklar, qontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yo‘lovchilar bo‘ladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa o‘yinlari artistlarning faoliyatiga o‘xshaydi. Chunki, jamoa o‘yinidagi har bir bola o‘z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o‘yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o‘zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma’lum rollarga bo‘lingan jamoa o‘yini, bolalardan qat’iy qoidalarga bo‘ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o‘yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o‘yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o‘yin qoidalariga, tartib-intizomga bo‘ysungan va shu kabi boshqa ijobiy hislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Eng asosiysi bu o‘yinlarda kattalarning predmetli dunyoga nisbatan xulq-atvori takrorlanmaydi, odamlar orasidagi munosabatlarga, xususan – rollariga imitatsiya (taqlid) qilinadi. Bolalar ushbu munosabatlar asosida quriladigan rollarni va qoidalarni ajratadilar, o‘yinda unga amal qilinishini qattiq nazorat qiladilar va o‘zlari ham ularga rioya qilishga harakat qiladilar. Bolalarning syujetli-rolli o‘yinlari turli mavzularda bo‘lib, bolalar ular bilan hayotiy tajribasiga muvofiq yaxshi tanishdir. Bolalar tarafidan o‘yinda qayta ijro etiladigan rollar –oilaviy (ona, ota, buvi, buva,

o‘g‘il, qiz va h.k) yoki tarbiyaviy (enaga, bog‘chadagi Pedagog,) yoki ertak qahramonlari (bo‘ri, ayiq, tulki, quyon, echki,) yoki kasbiy (shifokor, komandir, uchuvchi). Rollarni ijro etuvchilar kattalar yoki bolalar yoki ularni o‘rnini bosuvchi o‘yinchoqlar, qo‘g‘irchoqlar bo‘lishi mumkin.

Ushbu yosh davri taraqqiyot uchun zarur bo‘lgan ikkita faoliyat turining boshlanishi bilan bog‘langan: mehnat va o‘qish. Bu yoshdagi bolalarning o‘yin, mehnat va o‘qishni o‘zlashtirishlarini ketma-ketligi bosqichini aniqlash mumkin, bunda maktabgacha yosh davri tahlil maqsadida shartli ravishda 3 ta davrga bo‘linadi: kichik maktabgacha yosh davri (3-4 yosh), o‘rta maktabgacha yosh davri (4-5 yosh) va katta maktabgacha yosh davri (5-6 yosh). Ushbu bo‘lish yosh davrlari psixologiyasida bolalarning psixologiyasi va xulq-atvoridagi jadal va sifatiy o‘zgarishlarni qayd etish uchun o‘tkaziladi.

Kichik maktabgacha yoshdagilar hali, qoidaga muvofiq, yolg‘iz o‘ynaydilar. O‘zlarining predmetli va qonstruktorli o‘yinlarida idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va harakat qobiliyatlarini takomillashtirib boradilar. Ushbu yoshdagi bolalar syujetli-rolli o‘yinlarida odatda kundalik hayotlarida kuzatadigan kattalarning harakatlarini qayta namoyon etadilar.

Sekin-asta o‘rta maktabgacha davrga borib o‘yin birgalikda bo‘lib boradi va unga ko‘proq bolalar qo‘shila boshlaydi. Eng asosiysi bu o‘yinlarda kattalarning predmetli dunyoga nisbatan xulq-atvori takrorlanmaydi, odamlar orasidagi munosabatlarga, xususan – rollilariga imitatsiya (taqlid) qilinadi. Bolalar ushbu munosabatlarda quriladigan rollarni va qoidalarni ajratadilar, o‘yinda unga amal qilinishini qattiq nazorat qiladilar va o‘zlari ham ularga rioya qilishga harakat qiladilar.

Syujetli-rolli bolalar o‘yinlari turli mavzularda bo‘lib, bolalar ular bilan hayotiy tajribasiga muvofiq yaxshi tanishdir. Bolalar tarafidan o‘yinda qayta ijro etiladigan rollar – bu qoidaga muvofiq, oilaviy rollar (ona, ota, buvi, buva, o‘g‘il, qiz va h.k) yoki tarbiyaviy (enaga, bog‘chadagi Pedagog) yoki ertaknamo (echkicha, bo‘ri, quyon, ilon) yoki kasbiy (shifokor, komandir, uchuvchi). Rollarni ijro etuvchilar

odamlar, kattalar yoki bolalar, yoki ularni o‘rnini bosuvchi o‘yinchoqlar, qo‘g‘irchoqlar bo‘lishi mumkin.

O‘rta va katta maktabgacha yosh davrida syujetli-rolli o‘yinlar rivojlanadi, biroq kichik maktabgacha yosh davridan o‘yinlarga kiritiladigan va amalga oshiriladigan mavzulari, rollari, o‘yin harakatlarining qoidalari bilan katta turli-tumanligi bilan farqlanadi. Tabiiy xarakterdagi ko‘pgina predmetlar shartlilariga almashtiriladi va ramzli o‘yin boshlanadi. Masalan, oddiy kubik o‘yindan va unga ajratilgan roldan qat’iy nazar ramziy ma’noda mebellar va mashinalarni, odamlar va hayvonlarni namoyish etadi.

O‘yinlarda asosiy rol qoidalarga rioya qilishga va munosabatlarga, masalan, subordinatsiyaga ajratiladi. Bunda birinchi marotaba liderlik paydo bo‘ladi, bolalarda tashkilotchilik ko‘nikma va malakalari rivojlanadi.

Shu bilan bir qatorda o‘yinli individual faoliyatning ramziy shakllaridan yana biri rasm chizishdir. Unga sekin-asta ko‘proq tasavvur, xayol va tafakkur qo‘shilib boradi. Bola ko‘rganlarini tasvirlashdan vaqti bilan bilganlarini, xotirasidagi va o‘zi o‘ylab topganlarini chiza boshlaydi. O‘yin-musobaqalar alohida sinfga ajratiladi, unda yutuq va g‘oliblik bolalarni juda jalb qiladi. Taxmin qilinishicha, aynan shunday o‘yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi shakllanadi va mustahkamlanadi.

Katta maktabgacha yosh davrida qonstruktorlik o‘yini mehnat faoliyatiga aylana boshlaydi, o‘yin jarayonida bola turmushda zarur bo‘lgan nimanidir yasaydi, yaratadi, quradi. Bolalar bunday o‘yinlarda oddiy mehnat ko‘nikma va malakalarini egallaydilar, ularda amaliy tafakkur faol rivojlanadi. Bola o‘yinda ko‘plab uy-ro‘zg‘or asboblari va predmetlaridan foydalanishni o‘rganadi. Unda o‘z xatti-harakatlarini rejalashtirish qobiliyati paydo bo‘ladi va rivojlanadi, ko‘p harakatlari va aqliy operatsiyalari, tasavvur va xayoli takomillashadi.

Bu yosh davridagi bolalar ijodiy faoliyatdan tasviriy san’at ayniqsa, rasm chizishni yaxshi ko‘radilar. Bolaning nimani va qanday ifodalashiga qarab, uning atrof olamdagi voqelikni qanday idrok qilishi, xotirasi, xayoli va tafakkurining o‘ziga xosligi haqida mushohaza qilish mumkin. Rasmlar orqali bolalar tashqi olamdan olayotgan tassurotlari va bilimlarini yetkazishga harakat qiladilar. Rasmlar bolaning

jismoniy va psixologik holatiga ko‘ra o‘zgarishi mumkin. (kasallik,kayfiyat). Aniqlanishicha, kasal bolalar chizgan rasmlar sog‘lomlarnikidan ko‘pgina jihatlari bilan farq qiladi.

Maktabgacha yosh davri badiiy-ijodiy faoliyatida musiqa muhim ahamiyatga ega. Bolalarga musiqiy asarlarni tinglash, musiqiy qatorlarni va tovushlarni turli asboblarda takrorlash quvonch bag‘ishlaydi. Bu yosh davrida birinchi marotaba musiqa bilan jiddiy shug‘ullanishga qiziqish paydo bo‘ladi, u keyinchalik haqiqiy qiziqishga aylanishi va musiqiy qobiliyatni rivojlanishiga yordam beradi. Bolalar qo‘shiq aytishga, musiqa ostida turli ritmik, raqs harakatlarini bajarishga o‘rganadilar. Qo‘shiq aytish musiqani anglash va vokal qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Hech bir yosh davri ushbu yosh davridagidek shaxslararo hamkorlikning turli shakllarini talab qilmaydi, chunki u bola shaxsining turli jihatlarini rivojlanishi zarurati bilan bog‘liq. Bu tengdoshlari, kattalar bilan hamkorlik, o‘yinlar, muloqot va birgalikdagi mehnatdir. Bu yosh davri davomida bolalarning quyidagi asosiy faoliyat turlari izchillikda takomillashib boradi: predmetlar bilan boshqarish o‘yini, qonstruktiv tipdagi individual predmetli o‘yin, jamoaviy syujetli-rolli o‘yinlar, individual va guruhiy ijod, o‘yin-musobaqa, o‘yin-muloqot, uy mehnati. Maktabga chiqishdan bir yoki ikki yil avval ularga o‘quv faoliyati qo‘shiladi va 5-6 yoshli bola eng kamida faoliyatning 7-8 turiga tortiladi, ularning har biri bolani o‘ziga xos ravishda intellektual va axloqan rivojlantiradi.



Bog‘cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosobatda bo‘lishga intiladi. Bu o‘rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o‘zining haddi sig‘adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo‘lgan, o‘zining kuchi ham yetmaydigan, haddi sig‘maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o‘zi haydagisi, xaqiqiy otga minib yurgisi, uchuvchi bo‘lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo‘lgisi keladi. Tabiiyki bola o‘zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini

ham haqiqiy yo‘l bilan qondira olmaydi. Bu o‘rinda savol tug‘iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo‘l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya’ni, bolaning o‘yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

- ***birinchidan,*** bolalarning o‘yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o‘yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o‘yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog‘liqdir;

- **ik*kinchidan***, bolalar o‘yin jarayonida o‘z ixtiyorlaridagi narsalarni, o‘zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo‘lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo‘ladilar. Bolalarning o‘yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir. O‘yin bolalar hayotida shunday ko‘p qirrali faoliyatki, unda katgalarga mansub bo‘lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o‘yin faoliyatida aniq bo‘ladi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, o‘yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o‘yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xususiyatlari ham shakllanadi. Demak, bog‘chadagi ta’lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bolalarning o‘yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog‘liqdir. Shunday qilib, o‘yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o‘zi, o‘yin davomida yuzaga kelib, rivojlanadigan psixik jarayondir.

Shuni ham ta’kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go‘yo, bir mo‘jizadek ko‘rinadi. Natijada ular ham o‘zlarining turli o‘yinlari jarayonida o‘xshatma qilib (ya’ni, analogik tarzda), har xil xayoliy narsalarni o‘ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli

xayoliy narsalarni o‘ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o‘zlarining har turli o‘yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog‘da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

Bolalarning o‘yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi.

Bolalar o‘yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o‘yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko‘pincha umumiylik xarakteriga ega bo‘lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o‘zining turli-tuman o‘yinlarida faqat o‘ziga tanish bo‘lgan yolg‘iz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, Pedagogning, uchuvchining xatti-harakatlarnigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, Pedagoglarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks etgiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba’zan kichik guruh bolalari ham) o‘zlarining o‘yinlarida qonkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar holos. Masalan, (oyisini, dadasini, akasini, Pedagogsini va shu kabilarni). O‘rta yoki katta bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo‘la boshlaydi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yinlari atrofdagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo‘lishi bilan birga, yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega, o‘zgacha qilib aytganda, o‘yin qudratli tarbiya quroli hamdir. Bolalarning o‘yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya’ni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin. Agarda biz bolalarning o‘yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o‘yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xususiyatlari (xarakteri, kimning nimaga ko‘proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon bo‘lishini ko‘ramiz. Shuning uchun bolalarning o‘yin faoliyatlari, ularni individual ravishda o‘rganish uchun juda qulay vositadir.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o‘zlari yolg‘iz o‘ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o‘yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o‘zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar.

Syujetli-rolli o‘yinlarda bolalar, asosan, o‘zlari har kuni ko‘rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o‘yini asta-sekinlik bilan jamoa shakliga ega bo‘lib boradi. Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning jamoa o‘yinlari davomida kuzatish qulaydir. O‘z o‘yinlarida bolalar kattalarning predmetlarga munosabatinigina emas, balki ko‘proq ularning o‘zaro munosabatlarini ham aks ettiradilar va ularga taqlid etadilar. Shuningdek, jamoa o‘yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «poezd» o‘yinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko‘mir yoquvchi, provodniklar, qontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yo‘lovchilar bo‘ladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa o‘yinlari artistlarning faoliyatiga o‘xshaydi. Chunki, jamoa o‘yinidagi har bir bola o‘z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o‘yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o‘zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma’lum rollarga bo‘lingan jamoa o‘yini, bolalardan qat’iy qoidalarga bo‘ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o‘yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o‘yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o‘yin qoidalariga, tartib-intizomga bo‘ysungan va shu kabi boshqa ijobiy hislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Katta bog‘cha yoshida syujetli-rolli o‘yinlar esa o‘z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o‘yinlar jarayonida bolalarda sardorlik xususiyati yuzaga kela boshlaydi, ularda tashkilotchilik ko‘nikma va malakalari rivojlana boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shug‘ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san’atning ham ahamiyati juda kattadir. Bolaning tasavvur etish xarakteriga ko‘ra, uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va

tafakkur xususiyatlariga baho berish mumkin. Katta bog‘cha yoshidagi bolalar chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi.

Bu yoshdagi bolalar rasm chizishga nihoyatda qiziqadilar. Rasm chizish bolalar uchun o‘yin faoliyatining o‘ziga xos bir shakli bo‘lib hisoblanadi. Bola avvalo ko‘rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o‘zi biladigan, xotirasidagi va o‘zi o‘ylab topgan narsalarni chizadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shunday o‘yinlarda muvaffaqiyatga erishishga harakat qilish xususiyati shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bolalarning eng yaxshi daqiqalari musobaqa o‘yinlaridagi yutish va muvaffaqiyatlaridir. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqalar juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shunday o‘yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanadi va mustahkamlanadi.

Katta bog‘cha yoshida konstruktorlik o‘yinlari asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatiga aylanib boradi, o‘yinda bola sodda mehnat ko‘nikma va malakalarini egallay boshlaydi, predmetlarning xossalarini anglay boshlaydi, amaliy tafakkur namunalari rivojlana boradi.

O'yin faoliyatida milliy xalq o'yinlari jismoniy, ma'naviy va aqliy kamolotga erishishning muhim vositasidir. O'yinlar orqali bolalarda tafakkur, g'oyalar, xotira, diqqat va boshqa aqliy jarayonlar rivojlanadi, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlari kengayadi.

VII BOB. O’YINNING AMALIY PSIXOLOGIYADA QO’LLANILISHI

7.1. O’yin psixoterapevtik vosita sifatida

O'yin psixoterapiyasi o'yinlardan foydalangan holda bolalar va kattalarga psixoterapevtik ta'sir ko'rsatish usulidir.

O'yin vaziyatlari mijozlarga ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish yo'llarini ko'rsatish, xarakterning noqulay xususiyatlarini tuzatish va fobik ko'rinishlarni deaktualizatsiya qilish imkoniyatini beradi. O'yin psixoterapiyasi usuli mustaqil ravishda ham, individual, guruhli, oilaviy psixoterapiya doirasida ham qo'llaniladi va psixoterapevtik ta'sirning ko'plab boshqa usullari (haqiqatda taklif, avtotrening, bilvosita va ratsional psixoterapiya, imagoterapiya) bilan muvaffaqiyatli birlashtirilishi mumkin. Mustaqil va rolli o'yinlar va improvizatsiyalar qo'llaniladi, ular direktiv va direktiv bo'lmagan shakllarda amalga oshiriladi.

Shuningdek, "o'yin terapiyasi" (umumiyroq atama) va o'yin psixoterapiyasi o'rtasida farq qilish kerak. Birinchi holda, psixoterapevtik jihat qabul qilinmaydi. Bu ma'lum ko'nikmalarga o'rgatish bo'lishi mumkin, masalan: jismoniy terapiya darslarida foydalanish, diabetga chalingan bolalarni o'zlariga qanday yordam berishni o'rgatish va hokazo.

O'yin terapiyasi artterapiyaning bir yo’nalishi sifatida amaliy psixologiyada qo’llaniladi. O'yin terapiyasi orqali bolalar xulqini tuzatish mumkin. Zamonaviy psixologiyada bolalar qo'rquvini tuzatish vositalaridan biri bu o'yin terapiyasi deb tan olinmoqda. A.Ya. Varganing so‘zlariga ko‘ra, o'yin terapiyasi ko'pincha so'zlar dunyosini, kattalar qadriyatlari va qoidalarini o'zlashtirmagan, hali ham dunyoga pastdan yuqoriga qaraydigan, ammo xayol va tasavvurlari olamida bilan dunyoga hukmdor bo'lganlarga yordam berishning yagona yo'lidir. G.L.Landret kattalar uchun nutq va bola uchun o'yinning ahamiyatini taqqosladi, maktabgacha yoshdagi bola uchun o'yin - bu shaxsning uyg'un rivojlanishi uchun shart bo'lgan tabiiy ehtiyoj- deb yozadi.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'yin maktabgacha yoshdagi psixoterapiyaning etakchi vositasidir. Shu bilan birga, u diagnostik va tarbiyaviy

funktsiyaga ham ega. O'yin, rivojlanish salohiyati va yakuniy ta'siri nuqtai nazaridan, maktabgacha yoshda markaziy o'rinni egallaydi.

O'yinga asoslangan tuzatish ta'sirining muvaffaqiyati o'yinda erkin ifodalangan his-tuyg'ularni qabul qilish, aks ettirish va og'zaki ifodalash orqali kattalar va bola o'rtasidagi dialogik muloqotdadir. O'yin terapiyasiga muvofiq, erkin o'yin va direktiv (nazorat qilinadigan) o'yin qo'llaniladi. Erkin o'yinda psixolog bolalarga regressiv, real va tajovuzkor o'yin turlarini qo'zg'atadigan turli xil o'yin materiallarini taklif qiladi. Regressiv o'yin xulq-atvorning kamroq etuk shakllariga qaytishni o'z ichiga oladi. Haqiqiy o'yin bolaning ehtiyojlari va istaklariga emas,
balki o'zini topadigan ob'ektiv vaziyatga bog'liq. Agressiv o'yin zo'ravonlik, urush va boshqalar o'yinidir. Bunday o'yinlarni tashkil qilish uchun tabiiy va tabiiy bo’lmagan o'yin materialidan foydalaniladi.

Tabiiy o'yin materialidan (suv, qum, loy, plastilin) foydalanish bolaga o'z his-tuyg'ularini va istaklarini bilvosita ifodalash imkoniyatini beradi, chunki materialning o'zi sublimatsiyaga yordam beradi.
Strukturaviy o'yin materialiga quyidagilar kiradi: qo'g'irchoqlar, mebellar, choyshablar (ular kimgadir g'amxo'rlik qilish istagini uyg'otadi); qurollar (tajovuzkorlikni ifodalashga hissa qo'shadi); telefon, poezd, avtomobillar (kommunikativ harakatlardan foydalanishga hissa qo'shish). Asosiysi, strukturaviy o'yin materiali ijtimoiy ko'nikmalar va xulq-atvor namunalarini egallashga yordam beradi.

Psixologik o'yinlar psixolog tomonidan oilaviy, guruh va individual ishlarda qo'llaniladigan art terapiya vositasidir. Psixologik o'yinlar har qanday ta'lim darajasidagi va yoshdagi odamlar uchun mavjud. Manbalar ko’rsatishicha, qadim zamonlardan beri o'yin ta'lim shakli sifatida, ularni o'zlashtirish uchun haqiqiy amaliy vaziyatlarni takrorlash uchun boshlang'ich maktab sifatida harakat qiladi. D.Elkonin ta'kidlashicha, o'yin samarasiz faoliyat turi bo'lib, unda motiv uning natijasida emas, balki jarayonning o'zida yotadi.

Psixolog artterapevt E.Yu. Smorjanik Ioxan Xeyzinganing "Homo ludens" asariga tayngan holda o'ynayotgan odamning boshqa odamdan farqli jihatlarini

ko’rsatishga harakat qiladi: - avvalo erkin faoliyatda bo’lishi; - o'yinda jismoniy zarurat yoki ma'naviy majburiyat bilan belgilanmaganligi, bunga ehtiyoj faqat o'ynash istagi paydo bo'lganda favqulodda bo'lishi; - izolyatsiya - o'yin kundalik hayotdan ajratilgan, ma'lum vaqt va makon chegaralarida ochilishi; - o'yin maydoni ichida har doim ma'lum bir tartib mavjud bo’lib o'yinchilar oldindan kelishib olgan qoidalarning mavjudligini izohlab beradi.

O'yin terapiyasi yordamida shaxs (bola, mijoz) o'z kelajagini qurishi, tahlil qilishi, mashq qilishi, g'alaba qozonishi va shu bilan o'zgarishlarga tayyor bo'lishi mumkin. O'yin terapiyasi, hayotning ma'lum modelini qurish, ishtirokchilarga hayotning turli jabhalariga nisbatan o'z strategiyalarini amalga oshirish va rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

O'yin qimmatli, chunki u dastlab odamni hech narsaga majburlamaydi, o'yin shunchaki o'yin. Bunday yondoshuv haqiqiy hayotda ishlaydigan bir qator cheklovlarni olib tashlaydi va aynan shu paytda o'yinchi odamda o'z-o'zini davolash jarayonlari boshlanadi. "O'yin - bu inson tomonidan kerakli his-tuyg'ularni olishga qaratilgan o'zaro ta'sirlar sikli, ularning etishmasligi kundalik hayotda kuzatiladi", deydi psixolog artterapevt E.Yu. Smorjanik. U o'yinning ikkita muhim jihatini ajratib ko'rsatdi:

1) bostirilgan his-tuyg'ularni ongli sohaga olib kirish qobiliyati;
2) shaxsning yig’ilib qolgan emosiyalarini namoyon qilish imkoniyati orqali keyin xotirjam ishlashga imkon beradi.

7.2. Psixologik o’yinlar va ulardan foydalanish

O‘yin mashg‘ulotlarni rejalashtirayotganda har doim maqsadni hamda mashg‘ulotdan kutilayotgan natijalarni aniqlab olish maqsadga muvofiq. Shundan so‘ng maqsadga erishish uchun qaysi o‘yin, topshiriq yoki mashqdan foydalansa yaxshiroq samara berishi aniqlab olinadi.buning uchun quyidagilarni inobatga olish zarur:

- Tanlab olingan ma’lumotlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda ketma-ketligi;

- Soddadan murakkabga qarab intilish;

- Turli xillilikka e’tibor berish (nutqiy fpoliyatni turli harakatlar bilan, tinch o‘yinlarni harakatli o‘yinlar bilan uyg‘unlashtirib turish);

- Guruhiy yoki kichik guruhlar uchun mashg‘ulotlarni tashkil qilish. Pedagog qachon katta guruh bilan hamda qachon kichik (6-8 boladan iborat guruh) guruh bilan ishlash lozimligini hal etmog‘i darkor;

- Mashg‘ulotlarning vaqt chegaralarini aniqlab olish (qaysi vaqtda bolalar bilan shug‘ullanasiz va qancha vaqt davomida).

Mashg‘ulotlar davomida bolalar o‘z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘lganlaridagina mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishlari va o‘zaro ishonchlari oshib boradi.

Guruhiy o‘yin-mashg‘ulotlari rejalariga mashg‘ulot boshida ham mashg‘ulot davomida ham o‘zgartirishlar kiritib borish mumkin.

O‘yin-mashg‘ulotlarning qator tamoyillari mavjud bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilar:

1.O‘yinlarda erkin ishtirok etish.

2.O‘zaro hurmat.

3.O‘yin qoidalarini anglab olish.

4.Refleksiya.

O‘yinda erkin ishtirok etish tamoyili-agar o‘yin qiziqarli va quvnoq kayfiyat bag‘ishlovchi bo‘lsa, har bir bola bu o‘yinda ishtirok etishga intiladi. Qandaydir sabablarga ko‘ra bola o‘yinda ishtirok etishdan bosh tortsa, u o‘ynashi mumikn bo‘lgan boshqa bir o‘yinni taklif etish mumkin. Bolalarga o‘yindan bemalol chiqishlari ap unga qaytishlariga imkoniyat yaratish lozim.

O‘zaro hurmat tamoyili – bu o‘zaro munosabatlardagi qoidaga o‘xshashdir, ya’ni har bir o‘yin ishtirokchisi o‘z fikrini erkin bildirishga, tanlash xuquqiga ega, hammaningfikri eshitib-tinglanadi.

O‘yin qoidalarni anglab yetish – mashg‘ulotni boshlashdan oldin bolalar o‘yin-mashg‘ulot maqsadlari, qoidalari bilan tanishtiriladi. Agarda bolalarning

ayrimlari bu narsalarni anglab yermasa, o‘yin-mashg‘ulotlar qoidalari takror tushuntiriladi.

Refleksiya – olingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash maqsadida qayta aloqa o‘tkazish muhimdir. O‘yin-mashg‘uloti yakunida boshlovchi bolalar bilan xulosa yasaydi. Bolalardan ko‘proq nimalar yoqqani, nimalar ma’lum bo‘lmagani va nimalarni o‘rganganligi so‘raladi.

Xulosadan keyin yakuniy mashqni bajarish mumkin. Masalan, bolalar doira bo‘lib turib, qo‘llarini ushlashadi. Hamma ko‘zini yumib, yoqimli narsalar haqida o‘ylaydi. Shundan so‘ng boshlovchi ko‘zini ochadi va o‘ng tamonidagi bolaning qo‘lini siqib qo‘yadi. Bu bola o‘z navbatida ko‘zini ochib, qo‘shnisining qo‘lini siqadi. Mashq shu tariqa barcha bolalar ko‘zlarini ochgunlaricha davom etadi. Oxirida bolalarning hammalari biron-bir qo‘shiqni kuylashlari ham mumkin.

Hamkorlikda o‘tkaziladigan o‘yinlar bolalarning bir-birlariga yaqinlashishlariga, birlashishlariga hamda kayfiyatni ko‘tarishga xizmat qiladi. Aynan o‘yinlar pedagogga nisbatan bolalarning ishonchi va moyilliklarini qozonishga yordam beradi.

7.3. Rolli o’yinlar va psixologik trening-o‘yinlar

Rolli o‘yinlar hayotiy vaziyatlar va munosabatlar modellashtiriladigan, maxsus tashkil qilinadigan o‘yinlardir. Ular shaxslararo munosabatlar harakterini anglash, bu munosabatlarni yaxshilash ishida qo‘l keladi. Trening jarayonida rolli o‘yinlar ko‘pincha turli ijtimoiy rollarni bajaruvchi kishilar orasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish uchun taklif qilinadi.

Ijtimoiy rollarga biz hayotda o‘zimiz sezmagan holda juda ko‘p duch kelamiz. Er, xotin, ota, o‘g‘il, ona, qiz, yo‘lovchi, xizmatchi, talaba, o‘qituvchi, boshliq va h.k. bular faqat inson ekanligimizni anglatuvchi tushunchalargina emas, balki muayyan ijtimoiy rollar hamdir. Ulardan har biri o‘z yo‘l-yo‘riqlari va xulq-atvor qoidalari, normalariga ega.

Rolli o‘yinlarda asosan muloqot yoki munosabatga kirishish o‘rganiladi. O‘z pozisiyamizni o‘zgalarnikiga moslashtirish jarayonida munosabatlarning yangi usullarini ishlab chiqishimiz mumkin. Bunda odatlanilgan xulq-atvorning yaxshi va yomon jihatlari yaxshiroq anglanadi yoki boshqa ishtirokchilar bilan bevosita muloqot jarayonida yangi xulq-atvor ko‘rinishlari shakllantiriladi.

Rolli o‘yinlarda xulosa chiqarish, tajriba to‘plash, uni anglash va kundalik hayotga tadbiq etish muhimdir.

Rolli o‘yinlarni o‘tkazish qoidalari

Qoidalar nafaqat o‘yinga, shuningdek uning yakunlarini muhokama qilishga ham tegishlidir. O‘yin qoidalari o‘yinning mazmunidan kelib chiqqan holda ishlanadi, bunda o‘yindagi o‘zaro munosabatlar va tajriba almashishga katta ahamiyat berish zarur.

1. O‘yinda qatnashayotganda har bir ishtirokchi o‘zi va o‘zgalar bilan samimiy munosabatda bo‘lishi, taklif qilingan rolga mas’uliyat bilan yondashishi lozim.

2. Tajribalarni o‘rtoqlashayotganda ishtirokchilarning fikri trenerning fikriga mos kelmagan holda ham trener ularning nuqtai- nazarini hurmat qilishi zarur. Shuning uchun hamma bir-birining fikrini bo‘lmasdan, diqqat bilan eshitib, boshqa ishtirokchilarning o‘yin jarayonida nimalarni his qilganligini tushunishga harakat qilishi zarur.

3. Muhokamada barcha ishtirokchilar faqatgina o‘z kechinma va hissiyotlari haqida gapirishi, boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilmasligi shart. Ularning fikrini, tajribasini o‘zidan eshitgan ma’qulroq.

Rolli o‘yinlar foydali usul bo‘lishi bilan birga uni o‘zlashtirish qiyinroqdir.

Quyidagi tavsiyalar bu usulning foydaliligini oshirishga yordam beradi:

– treningni dastlabki kunlarida o‘yinga ko‘ngilli, sergap va faol ishtirokchilarni tanlab olish lozim;

– trenerning o‘zi ham bosh rollardan birini ijro etishi maqsadga muvofiqdir;

– ishtirokchilarga qaysi yo‘nalish bo‘yicha harakat qilishlari lozimligini tushuntirish yoki ularning ishni boshlab olishlari uchun birorta ssenariyni taklif etish kerak;

– ishtirokchilarga ko‘rsatma berishda kerakli anjomlar shlyapa, ismlar yozilgan kartochkalar, pariklar va h.k.lardan foydalanishlari mumkinligini aytish kerak;

– trener imkoni bo‘lsa, vaziyatni yumor bilan to‘ldirishga harakat qilishi lozim;

– butun guruhni juftliklarga bo‘lib tashlash va har bir juftlik hayotiy vaziyatlardan kelib chiqib ma’lum bir sahnani (masalan, otao‘g‘il kabi rollar) ijro etishini so‘rash kerak.

Shu tarzda butun guruh oldida mavjud bo‘lgan xijolatlilik, bir-biridan uyalish kabilar yo‘qoladi.

O‘yinni o‘tkazish bosqichlari

-o‘yin qoidalarini o‘yinning mohiyati va mazmunini tushuntirmasdan oldin tanishtirish maqsadga muvofiq va bunda eng yaxshi usul – har bir ishtirokchi qoidalarga rioya qilishini og‘zaki tasdiqlashi lozim;

-rolli o‘yinlar o‘tkazilishi uchun ma’lum vaqt belgilanishi kerak, belgilangan vaqt ishtirokchilarga e’lon qilinadi va trener tomonidan nazorat qilib boriladi;

-trener o‘yin qoidalaridan so‘ng o‘yin maqsadini tushuntiradi (nima uchun bu o‘yin o‘tkazayapti). O‘yinning mazmuni o‘qib beriladi yoki u aks etgan kartochka ishtirokchilarga tarqatiladi va ularga o‘zini qanday tutishi lozim bo‘lgan ma’lum bir vaziyat yoki holat taklif etiladi;

-rolli o‘yin tugaganidan so‘ng hosil qilingan tajriba muhokama qilinadi. Trener rolli o‘yin qatnashchilariga fikrlarini bayon qilishlari uchun ko‘maklashadi. Fikrlarni bayon etish ham qoida asosida - ma’lum tartib va shaklda amalga oshiriladi. Har bir qatnashchining o‘z kechinmalari va fikrlarini bayon qila olishi juda muhimdir, buning uchun trener o‘yin jarayonida qatnashchilarda namoyon bo‘lgan har bir hissiyotning yuzaga chiqishini qo‘llab-quvvatlab, rag‘batlantirib borishi zarur;

-agar birorta o‘yin qatnashchisi o‘z kechinmalari bilan o‘rtoqlashishni istamasa, uning bu istagini albatta inobatga olish kerak.

Guruhlarda birgalikda o‘tkaziladigan o‘yinlar

Guruhlarda birgalikda o‘tkaziladigan o‘yinlarda g‘olib va mag‘lublar bo‘lmasligi va hech kim o‘zini yakkalanib qolganday his qilmasligi kerak. O‘yin bu – vaqtixushlik qilishdir va u o‘yin ishtirokchilarida umumiylik, mushtaraklik hissini vujudga keltiradi. O‘yinlar bolalarda ham, kattalarda ham boshqalarga ishonch, diqqatni jamlash, kirishimlilik va o‘zaro muloqot kabilarga ko‘nikma, malakalar hosil qiladi. Shu tarzda o‘yinlar ishtirokchilarning nafaqat aqliy jihatdan, balki umuman shaxs sifatida rivojlanishiga ham katta yordam beradi. Shuningdek, uzoq davom etgan zo‘riqtiruvchi mashg‘ulotlar yoki noxush hayotiy vaziyatlardan so‘ng o‘zini tiklab olishiga yordam beradi. Guruhdagi barcha ishtirokchilar ham o‘yinda ishtirok etishni istayvermaydilar va ularni majburlash shart emas. Agar ular bitta o‘yinda qatnashsalar, o‘z-o‘zidan keyingi o‘yinlarda ham ishtirok etishni xohlab qoladilar. Trener har doim yelib-yugurib ishtirok etishi shart. Bu esa guruhda xush kayfiyat, do‘stlik muhitini yaratishga yordam beradi.

Treningda foydalaniladigan o‘yin turlari

Tanishuv o‘yinlari

Har bir guruh bilan olib boriladigan mashg‘ulot qanday maqsadda o‘tkazilishidan qat’iy nazar “tanishish” o‘yini bilan boshlanadi, chunki guruh a’zolari bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlari lozim. Ayniqsa, birinchi o‘yindayoq ishtirokchilar faqat ismlarinigina aytish bilan kifoyalanib qolmasdan, o‘zining holati, kayfiyati va hatto harakterini ham ifodalay olsa, bu juda yaxshi samara beradi.

Guruh a’zolari bir-birlari bilan muloqotga kirishishlari oson bo‘lishi uchun bir-birlarining ismlarini eslab qolishga yordam beruvchi o‘yin o‘tkazish lozim. “Tanishuv” o‘yini - guruhning barcha a’zolari o‘zlarini har jihatdan qulay, dadil tutishlari, shuningdek, o‘zaro ishonch hosil qilishlari uchun birinchi va eng muhim qadamdir.

“Tana (taktil) to‘siqlarini bartaraf qilish” o‘yini

Odam notanish guruhga tushib qolsa, u albatta o‘zini noqulay his qiladi, uyaladi. Agar biz kimningdir yelkasiga qo‘limizni qo‘yishga, soch turmagining u yoq bu yog‘ini to‘g‘rilab qo‘yishga haddimiz sig‘sa, o‘sha odam yonida o‘zimizni dadil va xotirjam his etamiz. Agar odamlar bir-birini yaxshi tanimasa, bilmasa, bunday xatti-harakatlarni bajara olmaydilar va o‘zaro muloqotda ruhiy zo‘riqish, noqulaylik kabi hislar paydo bo‘ladi. Lekin shunday o‘yinlar borki, ular bunday to‘siqlarni bartaraf etishga yordam beradi. “Tana to‘siqlarini bartaraf qilish” o‘yinlarining mohiyati shundaki, guruh a’zolari bir-birlariga “tega olish”lariga imkon yaratiladi.

Guruh a’zolari o‘rtasida o‘zaro ishonch va ishchanlik muhitini yuzaga keltirish uchun bu o‘yinni “Tanishuv o‘yinlari” o‘tkazilganidan keyinoq boshlash maqsadga muvofiqdir.

Ishchanlik muhitini yaratish bo‘yicha o‘yinlar

Bu xildagi o‘yinlar guruh ishtirokchilariga ma’lum bir muhitda o‘zini qulay his qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Bu o‘yinlarda ishtirokchilar bino (xona, maydoncha) bo‘ylab yurishlari, hatto yugurishlari, sakrashlari mumkin. Bundan ko‘zlangan maqsad – ularga o‘yin o‘tkazilayotgan joyning har bir burchagida o‘zini dadil, ishonchli sezishi uchun sharoit yaratib berishdir.

“Kuzatish va eshitish” o‘yinlari

Bu xil o‘yinlar ishtirokchilardan boshqa ishtirokchilarning ko‘rinishi, ularning nimalarni gapirayotgani, nimani his qilayotganligiga (masalan, qaerda yashashi, qachon tug‘ilganligi kabilarga) e’tibor berish talab qilinadi. Ya’ni bu o‘yinlarning qatnashchilari norasmiy sharoitda, norasmiy holatda bir-birlari haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladilar.

“Ishonchga asoslangan” o‘yinlar

Bunday o‘yinlarning asosiy maqsadi ularning nomlanishidayoq namoyon bo‘ladi. Ular yordamida guruhda o‘zaro ishonchli munosabatlarni shakllantirish mumkin.

Bu o‘yinlarni guruh bilan ish boshlagan dastlabki paytda emas, balki boshlovchi va guruh a’zolarida guruhga nisbatan qandaydir ishonch hissi paydo bo‘lishi uchun, keyinroq o‘tkazish ma’qulroq. Bu o‘yinlarda guruh ishtirokchilari o‘rtasida taktil aloqalar bo‘lishi natijasida ular orasida o‘zaro ishonch, ahillik paydo bo‘ladi. Shuningdek, bunday o‘yinlarni o‘tkazish jarayonida ishtirokchilarning bir-birlariga nisbatan o‘zaro mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishi ham namoyon bo‘ladi.

Guruhning kayfiyatini ko‘taruvchi o‘yinlar

Bu tipdagi o‘yinlarga quvnoq, kayfiyatni ko‘tarishga asoslangan hazil o‘yinlar kiradi. Shuningdek, ularga guruh a’zolari bir-birlariga minnatdorchilik bildiradigan, iliq so‘zlar aytadigan, tilaklar, komplimentlar, ijobiy psixologik muhit yaratadigan va kayfiyatni ko‘taradigan o‘yinlarni misol qilib keltirish mumkin. Bu o‘yinlarni uchrashuvning samarali tugashini ta’minlash uchun mashg‘ulotning oxirida o‘tkazish tavsiya etiladi.

O‘g‘il bolalar va qizlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga doir hazil o‘yinlar. Ishtirokchilarning talablari asosida oilaviy hayotning ikir-chikirlari bilan bog‘liq ba’zi mashg‘ulotlarda intim munosabatlarga doir mavzular ham bo‘ladiki, bu shundoq ham zo‘r diqqat bilan qatnashayotgan ishtirokchilarni juda hayajonlantirib yuborishi mumkin. Ayrim holatni hazil o‘yinlar vositasida yo‘qotsa bo‘ladi. Bu o‘yinlarda ular bir-birlariga iltifot qilishi, qo‘ltiqlashishi, xullas o‘zlari xohlaydigan, biroq ifodalashga uyaladigan, ijtimoiy- madaniy hayotda qaysi jihatdandir yo‘l qo‘yilmaydigan xatti-harakatlarni bajarishlari mumkin. Bunday o‘yinlar umumiy kulgu ostida quvnoq va jonli o‘tadi. Shu bilan birga guruhda o‘zaro ishonch darajasi oshadi, ahillik kuchayadi.

Biroq ularni guruhda muloqot yuzasidan va taktil to‘siqlar yo‘qotilgach, o‘zaro xayrixohlarcha munosabat vujudga kelgachgina o‘tkazish tavsiya etiladi.

7.4. Psixokorreksiyada o’yinlardan foydalanish

Psixokorreksiyaning asosiy maqsadi mijozning yosh va tur xususiyatlaridan, uning subyektiv voqyeligidan kelib chiqib shaxsiga doir resurslarini faollashtiruvchi va me’yorga mos keluvchi holatga olib kelishdir.

Psixokorreksiyalovchi ta’sirning asosiy quroli sifatida psixolog ilgari suriladi, korreksion jarayen psixolog - mijoz juftligida kechadi. Mazkur jarayonni aks ettiruvchi to’rtta asosiy strategiya mavjud:.

1) vaziyatni o’zgartirish;

2) vaziyatni o’zgartirish uchun o’zni o’zgartirish;

3) vaziyatdan chiqib ketish;

4) mazkur vaziyatda xayotining yangi jihatlariga e’tibor berish.

Psixokorreksiyaning so’ngi vazifalari uchta asosiy sohalardagi istalgan o’zgarishlarga erishishdir:

- kognitiv;
- emosional; (his- tuyg’u).
- o’zini tuta bilish.

Shaxsiy psixokorreksiyaning xususiyatlarini hisobga olib mazkur uchta alohida sohalarning har birida aniq vazifalarni qo’yish mumkin.

Kognitiv soha:

1) o’z xulq – atvori, munosabati, reksiyasi sababini anglash;

2) his-tuyg’u va xulq – atvor stereotiplarni anglash;

3) psixologik omillar va somatik buzilishlar orasidagi bog’liqlikni anglash;

4) mojarolar va ruhiy jarohatlovchi vaziyatlarni kelib chiqishida o’zining roli va javobgarligini his qilishi;

5) munosabat usullarini, o’zining munosabati shakllanishi sharoitlarini anglashi.

Emosional sohada:

1) mijozning mutaxassis tomonidan emosional qo’llab—quvvatlanishi;

2) mijoz o’z tuyg’ularini anglashi va yuzaga chiqarishi;

3) o’ziga nisbatan yanada samimiy munosabatni shakllantirish;

4) boshdan o’tkazish va emosional munosabatlar usullarini o’zgartirish;

O’zini tuta bilish , xulq- atvor- sohasi:

1) mijozdagi noadekvat reaksiyalarni korreksiyalash;

2) xulq – atvorning effektiv usullarini o'zlashtirish.

Individual psixokorreksiyani o'tkazish shartlari:

1) mijozning psixologik yordam olish uchun ixtiyeriy roziligi;

2) mijozni mutaxassisga ishonchi;

3) mijozni tadqiq qilish jarayonida, korreksion dasturni shakllantirish va uni amalga oshirilishida mijoz faolligi.

Murakkab - eslab qol!

Psixolog bolalarga yozilishi murakkab bo'lgan 10 ta so'zni 25-30 sek. davomida ko'rsatadi va ularni olib qo'yadi. So'ngra diktovka ostida bolalar bu so'zlarni varaqqa yozadilar. Bu xolatda ko'rish xotirasi eshitish xotirasiga "yordam beradi". Barcha so'zlarni to'g'ri yozganlar yutadi.

Assosiasiya

Psixolog bolalarga "Xotirangizni yaxshilash uchun ishlashga tayyorlaning. Xotira yaxshi bo'lishi uchun uni bu ishni bajarishga harakat qilamiz. Sizlarga eslab qolishingiz uchun 50 ta so'z o'qib beriladi. So'zlarni mustahkam va to'g'ri ketma-ketlikda eslab qolish lozim" deb aytadi.

Demak, hozir so'zlar eslab qolishingiz lozim bo'lgan 50 ta so'zni eshitasiz. Qo'rqmang! Sizni qarshingizdagi ekranda ko'rayotgan tayanch so'zlar yordam beradi. Bu tayanch so'zlar doimo ko'z oldingizda bo'ladi. Ammo, ular sizga qanday yordam beradi? Mana bunday. Biz sizga o'qib eshittiradigan so'zlar qatorini siz obrazli, ko'rgazmali ravishda ekrandagi tayanch so'zlarga bog'lashingiz lozim. Masalan, birinchi so'z o'qildi: "shahar". Siz ekranga qaraysiz, tayanch so'zlar qatoridagi "velikan" so'zini topasiz va liliputlar shahridagi ko'chalarda kichikina uylar orasidan ehtiyotkorlik bilan o'tayotgan baxaybat odamni tasavvur qilasiz.

Masalan, eslab qolish lozim bo'lgan ikkinchi so'z "samolyot" bo'lsin. Ekrandagi tayanch so'z esa – "eshkak". Siz darrov suvda suzayotgandek bulutlar orasidan eshkaklar yordamida yangi konstruksiyasi samolyotni tasavvur qilasiz. Bunday obrazli assosiasiyalar turli uzunlikdagi so'zlar qatorini yaxshi esab qolishga yordam beradi.

Keling, urinib ko’ramiz! Marhamat! Biz so’zlarni, atigi 50ta so’zni sekin o’qiymiz, siz esa bu vaqtda ekrandagi tayanch so’zlar yordamida ularning assosiasiyasini o’rnatasiz. Boshladik!

Uzum, balkon, ko’ylak, tomorqa, tashrif, cho’ntak, stanok, tajovuz, kobra, sirg’a, ari, chiziq, shovqin, silliq, urushqoq, qum, bigudi, quvnoqlik, qaymoq, ko’rsatgich, marganes, sichqon, admiral, asteroid, chinni, kit, aka, usta, diviziya, qiz bola, marka, bo’yin, tarozining toshi, auksion, farzin, bayan, konsensus, shakl, issiq, zig-zag, telefon.

Juda yaxshi. Siz hozir 50 ta so’zni eslab qoldingiz. Biz bu so’zlar sizning xotirangizda yorqin aks etdi, deb o’ylaysiz.

Hozir esa qog’oz varag’i olib bu so’zlarni ekrandagi tayanch so’zlardan foydalanib yozib esga tushiring. Agarda qandaydir so’zlarni eslay olmasangiz, o’zingizdagi ro’yxatda bu so’z o’rniga qo’ying. Marhamat. Rahmat. O’ylaymizki, siz so’zlarni esga tushura oldingiz. Hozir esa so’zlar ro’yxatini yana bir marta tanlang. Siz to’g’ri eslagan so’laringizga belgi qo’ying. Marhamat. Uzum, balkon, ko’ylak, tomorqa, tashrif, cho’ntak, stanok, tajovuz, kobra, sirg’a, ari, chiziq, shovqin, silliq, urushqoq, qum, bigudi, quvnoqlik, qaymoq, ko’rsatgich, marganes, sichqon, admiral, asteroid, farfor, kit, aka, usta, diviziya, qiz bola, marka, bo’yin, tarozining toshi, auksion, farzin, bayan, konsensus, shakl, issiq, zig-zag, telefon so’zlarni takrorlab yozish.

Endi so’z to’g’ri eslagan so’zlaringizning sonini sanab chiqing. Bu test o’tkazishdagi sizning ko’rsatgan natijalaringiz bo’ladi. Demak, siz to’g’ri eslab qolgan so’zlaringizning sonini sanang. Marhamat. Rahmat. Shuning bilan assosiativ testimiz yakunlandi.

Adashib qolgan hikoyachi

Qatnashchilar doira bo’lib o’tiradilar. Yetakchi suhbatning mavzusini belgilaydi. Qaynatgichlardan biri uni davom ettiradi, so’ngra tasodifiy assosiasiyalarga berilib suhbatni boshqa mavzuga buradi. U bir mavzudan boshqasiga, so’ngra uchinchisiga o’tadi, “hikoyachini”, “so’zlab berishni” chigallashtirishga harakat qiladi. So’ngra so’zlovchi imo-ishora bilan so’zni boshqa qatnashchiga beradi. So’z har kimga

berilishi mumkin, shuning uchun o’yinning borishini barcha kuzatib boradi. Kimga “tanlov” tutgan bo’lsa, o’sha odam so’zlashuvning “chigalni” yechishi, ya’ni o’zidan avvalgi so’zlovchining barcha assosiativ o’tmishlariga qisqa izox berishi, oxiridan boshiga kelishi lozim. U yetakchi taklif etgan dastlabki mavzuga qaytadi. So’ngra uning o’zi so’zlashuvni chigallashtiradi boshqa ishtirokchiga so’z beradi va shu tarzda davom ettiriladi.

Assosiasiyalardan qochish

Qatnashchilar doira bo’lib o’tirishadi. Yetakchi tasodifiy ikkita so’z aytadi. Qatnashchilardan biri yetakchi aytgan ikkinchi so’zni birinchisi bilan bog’laydigan obrazni ovoz chiqarib tasvirlaydi. So’ngra obraz hosil qilgan qatnashchi so’zni keyingi qatnashchiga, undan chap qo’l tomonda o’tirgan o’yinchiga beradi. U uchinchi so’zni yetakchining ikkinchi so’zi bilan bog’laydi, o’zining so’zini- endi zanjirdagi to’rtinchi so’zni – topshiriq sifatida o’zining chap tomonida o’tirgan qatnashchiga uzatadi. O’yin doira bo’ylab aylanadi va har bir doiraning oxirida yetakchi sekundamer bo’yicha sarflangan vaqtni aytadi. Yetakchi to’satdan o’yinni to’xtashi va qatnashchilarning birortasiga barcha so’zlarni takrorlashni taklif etish huquqiga ega. Agarda qatnashchi faqatgina o’zining so’zlarini eslasa, demak u shaxsiy muvaffaqiyat tarafdori bo’lib o’yinda ishtirok etmaydi.

Domino

Bu o’yinni o’tkazish uchun otkritkalar to’plami yoki bolalar lotosidan rasmlar, yoki alifbo rasmlari kerak bo’ladi. Har bir qatnashchiga rasmi berkitilgan holda bir necha karta taqsimlanadi. Birinchi qatnashchi o’zining kartalaridan birini rasmini ko’rsatgan holda oldiga qo’yadi va hikoya qilishni boshlaydi. Bu hikoya, ertak, fantaziya, xajviy hikoya, be’mani tush – nima bo’lishidan qat’iy nazar o’zining syujetiga rasmda tasvirlangan narsa kiritishi zarur. O’zining hikoyasi parchasini tugatib, o’yinni boshlagan qo’lini tekkazish yo’li bilan so’zni qo’shnisiga beradi. U o’zining kartasini rasmini olib stolga qo’yadi to’xtatilgan syujetni shunday tarzda davom ettiradiki, hikoya uning rasmini ham qamrab olgan bo’lishi lozim. O’yin doira tarzida harakat qiladi. Har bir qatnashchi umumiy hikoyaga o’zining rasmlarini

qo’yadi va doira bo’ylab qo’yilgan rasmlar to kartalar tugaguncha uzun bo’lib joylashadi. O’yin tugaganida yetakchi kartalarning rasmlarini berkitib boshqa tomoni bilan qo’yish va guruhga xotirasi bo’yicha ularning qo’yilgan ketma-ketligini tiklashni taklif etish mumkin.

Kaleydoskop

O’yinning barcha ishtirokchilari ekran oldida yarim doira bo’lib turadilar. O’yin boshi ekran oldiga chiqib, ishtirokchilarga yuzi tomoni bilan turadi. O’yinchilar o’yin boshiga navbat bilan o’zi yoqtirgan rangni aytadilar. So’ngra o’yinboshi orqasi bilan o’giriladi, o’yinchilar tezda o’rinlarini almashtiradilar. O’yin boshi yana o’yinchilar tomonga o’girilganda unga qaysi o’yinchiga qanday rang yoqishini aytish lozim. Psixolog: “Menimcha, hammasi juda oson-a?” keling, bir o’ynab ko’ramiz. Demak, ekranga qarab turinglar. O’yinboshi, ranglarni eslab qolinglar va o’girilinglar, so’ngra, avvalgi xolatga qaytib bu ranglarni topinglar”. Kimni rangi topilmasa o’sha keyingi o’yinboshi bo’ladi, so’ngra barcha boshqalar. Demak, boshlaymiz. Rahmat, o’yin tamom bo’ldi.

Taxistoskop

Guruh doira bo’lib o’tiradi. Qatnashchilarning bittasi yoki ikkitasi doiraning markazida turadi. Chiroq o’chiriladi va doira ichida turgan qatnashchilar turli xolatda qimirlamay turadilar. Signal bo’yicha qisqa vaqtga chiroq yoqiladi va shu zahotiyoq o’chiriladi. Chiroq yoqilgan onda doira bo’lib o’tirganlar doira markazida turganlarning xolatini iloji boricha aniq eslab qolishga harakat qiladilar. Chiroq o’chganida qorong’ilikda doira markazidagilar o’zlarining joylariga qaytadilar. So’ngra chiroq yoqiladi, va guruh a’zolari (markazda turganlardan tashqari) birgalikda nimani ko’rganlarini eslashga harakat qiladilar. Naturachilarni markazga qaytaradilar va guruhning fikri bo’yicha chiroq yoqmaganda qay xolatdaligini yana tiklaydilar. Guruh bir umumiy fikrga yoki bir necha alternativ yechimga kelganidan so’ng doira markazidagi qiyinchiliklar o’zlarini xolatlarini takroran ko’rsatadilar.

Chalkashlik

O’yinboshi tanlanadi. Boshqa o’yinchilar bir-birlarini qo’llaridan ushlab doira hosil qiladilar. Marhamat! Ko’rsatma bo’yicha o’yinboshi xonadan chiqadi va qachon chaqirishganda o’sha yerga qaytadi. Uning yo’qligida boshqa o’yinchilar o’zining doirasidagi xolatini o’zgartirib chigallashadilar, ammo qo’llarini qo’yib yubormaydilar. O’yin boshi xonaga qaytganida ishtirokchilar dastlab qay xolatda turganliklarini aniqlash lozim.

Psixolog: “Demak, bir-birimizni qo’llarimizni ushlaymiz. O’yinboshi, qarang-chi, kim-kimdan keyin turibdi. Xonadan chiqing, chaqirilganda qaytasiz. Boshladik! O’yin boshi, kiring, dastlabki ketma-ketlikni aniqlang. Marhamat!

Endi sizning istaganingiz o’yin boshi bo’lishi mumkin. O’yinni bir necha bor takrorlaymiz. Rahmat, o’yin tugadi”.

Ayg’oqchi

Qatnashchilardan birini – “ayg’oqchi” kilib tanlanadi. Yetakchi aytadi: “Hamma jim, qotib tursin” – guruh qimirlamay turadi. Har bir ishtirokchi o’zining xolatini eslab qoladi, “ayg’oqchi” esa barchaning xolatini eslab qolishga harakat qiladi. “Ayg’oqchi” o’yin qatnashchilarining xolati va tashqi ko’rinishini diqqat bilan o’rganib ko’zini yumadi (yoki xonadan chiqadi). Bu vaqtda qatnashchilar o’zlarining kiyimlarida, xolatlarida atrof yoki biror narsada bir necha o’zgarishlar qiladilar. O’zgarishlar amalga oshirilgandan so’ng “ayg’oqchi” ko’zini ochadi (yoki xonaga qaytadi). Uning vazifasi – barcha o’zgarishlarni aniqlash.

7.5. Psixologik kouching va o’yinlar

Kouching - XX asrning 80 yillarida shakllangan.[35] Psixologiya, falsafa, sport va menejment chorrahasidagi o’quv konsepsiyasi. Dastlab kouching faqat biznes maydoniga yo’naltirilgan bo’lsa, hozirda deyarli barcha ijtimoiy guruhlar uchun muvaffaqiyatli qo’llanilmoqda. Kouching mashg’ulot yo’nalishlari qatoriga kiritilgan, ammo aslida bu norasmiy mashg’ulotlardir. Murabbiylik metodologiyasi murabbiy va mijoz-o’yinchi o’rtasidagi psixologik (to’liq tushunilmagan) o’zaro

ta’sir natijasida insonning dastlab mavjud bo’lgan ichki potensialini blokdan chiqarishga asoslangan. Eng mashhur mashg’ulotlarning ko’plab ta’riflari mavjud:

1. Kouching - bu suhbatlashish va xulq-atvor orqali insonning kerakli maqsadlar sari qoniqarli tarzda harakatlanishini osonlashtiradigan muhit yaratish san’ati.

2. Kouching - bu murabbiy tomonidan mijoz shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun sharoit yaratish jarayoni.

3. Kouching - bu boshqa odamning ishlashi, o’rganishi va rivojlanishiga hissa qo’shish san’ati. (Maylz Dauni, samarali kouching).

4. Kouching - bu odamlar hayotida, martaba, biznes yoki jamoat ishlarida ajoyib natijalarga erishishda yordam beradigan doimiy munosabatlardir. Kouching orqali mijozlar o’z bilimlarini kengaytiradilar, hayotlarining samaradorligi va sifatini oshiradilar.

5. Kouching - bu maksimal darajada samarali natijaga erishish uchun rivojlanish jarayoni ishtirokchilarining birgalikdagi ijtimoiy, shaxsiy va ijodiy salohiyatini ro’yobga chiqarish tizimi.

Kouchingning to’rtta asosiy bosqichi: maqsadlarni belgilash, haqiqatni tekshirish, erishish yo’llarini qurish va aslida yutuq (bu ham iroda bosqichi deb ataladi). Kouching va barcha turdagi konsalting o’rtasidagi farq mijozning o’z imkoniyatlarini amalga oshirish uchun garovdir.

Kouching - bu juda samarali mashg’ulot, buning natijasida mijoz o’zgaruvchan muhitda samarali harakat qilish qobiliyatini oladi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, mijoz - o’yinchi ongining ochilishi fikrlash va qaror qabul qilishning butun murakkab va ko’p o’lchovli tuzilishidan ancha cheklangan sohada sodir bo’ladi. Barcha Kouching markazida quyidagi prinsip yotadi: mijoz o’zi javoblarni biladi yoki topishi mumkin. Kouching nuqtai nazaridan, mijozda tuzatilishi kerak bo’lgan kamchiliklar yo’q. Murabbiyning javoblari yo’q; uning savollari bor. Murabbiy yordamida ichkariga qarab, odam o’zini, kuchli va zaif tomonlarini bilishini anglab etadi. U nimani xohlashini, nimadan qo’rqishini, nimaga turtki

berayotganini va nimani to’xtatib turishini, uning maqsadlari va qarashlari nima ekanligini va qaerda imkoniyatlarni boy berayotganini tushuna boshlaydi.

Kouching – mijozlar bilan muammoni yechimini topishga qaratilgan konsultasiya yoki ta’lim jarayoni. Kouching mijozning maqsadlarini anglashida aniqlik tizimini yaratishga xizmat qiladi, shu tariqa mijoz o’zining asosiy maqsadi, uning uzoq muddatli maqsadlari bilan bog’liqligi va ularga erishish yo’llarini aniqlab olishiga yordam beradi. Shu bilan birga kouching bu muallif pozisiyasida turgan mijozga psixologik yordam. Psixologik ko’mak ko’p hollarda kouchingga o’xshaydi, lekin uni butkul kouchingga yo’naltirish bu noto’g’ridir. Agar couching - bu mijozga yo’naltiruvchi savollarni berib ko’maklashish mahorati bo’lsa, u holda psixologik ko’makning boshqa ko’rinishlari mentoring (ustozlik) va treningdir.

Mijozga juda qiziq: ―Qanday qilib qaror qabul qilishdan qo’rqmaslik kerak? Maqsadni qanday qilib ko’rish va unga borish mumkin? To’g’ri qilyapmanmi?. Yoki undanam yaxshi: ―Menda shunaqa maqsadlarim bor, ularga erishishning shunday yo’llarini ko’ryapman. Menga sizning uzoq muddatga ko’magingiz, tanqidingiz va qo’llab quvvatlashingiz kerak. Mana shu kouching hisoblanadi, mijozni ma’lum maqsadga erishishiga ko’maklashish. Shu qatorga psixologik konsultasiya va mijozning ma’lum bir ko’nikmalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan individual trenirovkalar ham kiradi. Shu bilan birgalikda biz ularning vazifalarini, hayotni idrok qilishlarini, qadriyatlarini hal qilishlarida yordam beramiz va yo’l yo’riq ko’rsatib boramiz. Ba’zida psixoterapiyaga ham yuzlanamiz, lekin mijozning asosiy talabi da’vo emas balki ta’limdir. Kouching yondashuv bu terapevtik yondashuv emas. Uning kelib chiqishi inson avvaldan o’z oldiga qo’ygan maqsadalriga erishishida namoyon bo’ladi. Har bir inson o’z maqsadi, unga erishish yo’llari va natijalari uchun javobgardir. Kouchingning vazifasi shaxsni o’zini takomillashtirish va yanada yaxshi hayotga erishish uchun yordamlashidir. Kouchingda asosiy fokus tayyor qarorlarni taqdim etishga emas, balki mustaqil tarzda javoblarni izlashga, fikrlash qobilyatini rivojlantirishga, sodir bo’layotgan jarayonlarni tahlil qilishga yo’naltirilgan. Kouching va psixologik konsultasiyaning juda ko’p umumiy jixatlari mavjud. Asosiy farqi psixologik konsultasiyadan ko’proq foydalaniladi. Kouchingda bo’lsa shaxsning

o’zi ko’proq ishlashiga to’g’ri keladi. Bu jarayonda asosiy faoliyatni mijozning o’zi bajaradi (oldiga maqsad qo’yadi, amalga oshirish vositalarini izlaydi), kouch maslaxatchi uni faqatgina qo’llab quvvatlab turadi.

Kouching kichik guruhlarda ham olib borilishi mumkin, unda turli o’yinlardan ham foydalanish samarali bo’ladi.

“Kimni nima uchun yoqtiramiz?” o’yini

Biz atrofdagilar bilan o’zaro aloqada bo’lib, kimnidir yoqtirishimiz yoki yoqtirmasligimiz mumkin. Bu insonlarni baholash holatimizni ularning ichki shaxsiy xususiyatlari bilan bog’laymiz. Keling, insonlardagi qanday xususiyatlarni yuqori baholab, qabul qilishimizni aniqlashga urinib qo’raylik. Topshiriqni yozma tarzda bajaramiz. Qog’oz varag’ini olib, guruh azolari orasida o’zingizga ko’p tomonlari bilan yoqadigan shaxsni tanlang. Mazkur insondagi shaxsiy xususiyatlardan sizga alohida yoqadigan beshtasini ko’rsating. Shunday qilib, insonni o’zini ko’rsatmagan holda undagi siz uchun alohida ahamiyatga ega beshta shaxsiy xususiyatini qog’ozga yozing. Boshladik!. Vaqt tugadi. Endi marhamat qilib, navbat bilan o’z tavsiflaringizni o’qing. Biz esa ushbu tavsiflar kimga tegishli ekanligini aniqlashga harakat qilamiz. Marhamat, kim boshlaydi? Chapdan o’ng tomonga qilib boshlashimiz mumkin.

Endi yakun yasash mumkin. Boshlovchi, marhamat qilib, ishtirokchilar haqidagi tavsiflardan kimni hammadan avval bilib oldik. Kim eng mashhur shaxs sifatida ifoda etildi. Kimni hammadan tez aniqlash mumkin bo’ldi.

“Davra bo’ylab ip uzatish” o’yini

Oddiygina bir sodda gapni tanlab olamiz. Masalan, "Bog’da olmalar pishibdi"(Silkitib shamollar, do’pir-do’pir tushibdi). Endi o’ng tomondagi birinchi ishtirokchidan boshlab, bu gapni navbat bilan talaffuz etishni so’raymiz. Har bir ishtiroqchi gapni yangi ohang (intonasiya) (so’roq, buruq, his-hayajon, hayrat, befarqlik va boshqalar) bilan ifoda etishi kerak. Agar ishtirokchi yangi ma’no

ohangini o’ylab topa olmasa, o’yindan chiqariladi. O’yin davrada (3-4)ishtirokchi g’oliblar aniqlanmaguncha shu tarzda davom etadi. Shunday qilib, o’ng tomondan o’tirgan ishtirokchilardan boshlaymiz. Birgina oddiy-sodda gapni turli ma’no ohanglarida talaffuz etishni boshladik. Ma’no ohangini takrorlash mumkin emas. Kim yangi ma’no ohangini o’ylab topolmasa, o’yindan chiqadi. O’yin davrada (3-4) ishtirokchi g’oliblar qolmaguncha davom ettiriladi.

Simvolika, ramziylik o’yini

Diqqat! Bugungi uchrashuvimizda har birimiz o’z shaxsiy ramzini o’ylab topishi kerak. Har kim hozir uch ramzni: birinchidan taxallus, ikkinchidan alohida nomli belgi va uchinchidan, shioringizni o’ylab toping. Alohida nomli belgini qog’ozga chizishingiz zarur. U juda oddiy va ramziy bo’lishi kerak. Shior qisqa va obrazli bo’lsin. Demak. tahallus, alohida belgi va shior. Masalan, taxallus - "Sobir amaki", alohida belgi - "belkurak", shior - "Chuqur kavlayman".

Agar topshiriq tushunarli bo’lsa, ishga kirishishingiz mumkin. Takrorlayman, hozir har kim o’ziga taxallus, alohida nomdagi belgi va shior o’ylab topadi. Marhamat. Yaxshi. Endi o’z chizgan rasmlaringizni almashtirib, yig’ilganlar shaxsiga birma-bir ta’rif berib chiqishingiz, muhokama etishingiz mumkin.

Bunday tashqari, siz guruh ishtirokchilari tanlagan ramziy belgilardan eng zo’rini tanlashingiz zarur. Besh ballik mezon asosida har bir ishtirokchini baholab taxallus, aloxida nomdagi belgi va shiorlarigi berilgan baholarining umumiy yig’indisini aniqlang.

Demak, o’z varaqlarimizni davra bo’ylab aylantiramiz. Navbat bilan ularni baholab boramiz. Marhamat. Barakalla. Endi har bir ishga berilgan ballar yig’indisini aniqlab, kim o’zini ramziy belgisini eng zo’r ifoda eta olganini aniqlashimiz joiz. Marhamat. Rahmat

Адабиётлар рўйхати

1. Вохидов М. Болалар психологияси Т., 1982
2. Ғозиев Э., Самарова Ш. Болалар психологияси (ўқув қўлланма) Т., - 2012
3. Ғозиев Е., Анарметова Ш. Ўйин назариялари .Тошкент,1995й
4. Ғозиев Э. Миллий ўйинлар назарияси Т., “Университет” 1994
5. Мухина В.С. Психология дошколника. М., 1989
6. Спиваковская А.С. Игра это серьезно М., 1987
7. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. М-изд-во Смысл, 2004
8. Новоселова С. Л. Игра дошколника. М.,1989
9. Эльконин Д.Б. Психология игры. М.,1999
10. Норбошева М.А. Из Истории Детских Народных Игр Узбекистана // ESLSS международная конфернция – 02 – 03, 2021, Косово, п. 275-280
11. Норбошева М.О. Болалар психологияси ва психодиагностикаси (ўқув қўлланма) Т., 2020
12. Норбошева Мақсуда. Таълим-тарбияда миллий кадриятлар ва маънавий тарбия анъаналаридан самарали фойдаланиш ж: Мугаллим хем узликсиз билимлендириу. Илмий-методик журнал - 2020-№3. б.112-116
13. Нарбашева М.А., Бобокелдиева А.А**.** Народные игры в контексте проблемы обогащения психического развития ребенка . ж. Педагогическое образование и наука, 2020, № 1 с.137-141
14. Норбашева М.А. Игра человеческой жизни и развитии ребенка\\ ж.Психология №2 2014 с.72-
15. Норбошева М.А. Оилавий муносабатларнинг таълим-тарбия самарадорлигига таъсири. Ж. Таълим ва инновацион тадқиқотлар, 2021 – махсус сон, 165-170 б
16. Спиваковская А.С. Психотерапия: игра, детство, семья. Том 1
17. . - ООО Апрель Пресс, ЗАО Изд-во ЭКСМО-Пресс, 2000. - 304 с.
18. Основы сказкотерапии / Т. Д. Зинкевич-Евстигнеева. — СПб. : Реч, 2010. — 172 с.
19. Вачков И. В. Сказкотерапия. Развитие самосознания через психологическую сказку. — М.: Ос-89, 2007.
20. Ладыгина-Котс Н.Н - Дитя шимпанзе и дитя человека в их инстинктах, эмоциях, играх, привычках и выразителных движениях**.** Игры человека и шимпанзе 1935.

MEXRI NORBOSHEVA

O‘YIN PSIXOLOGIYASI

Bosishga ruxsat etildi. 25.12.2023 y.
Qog`oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman garniturasida terildi.
Ofset uslubida oq qog`ozda chop etildi.
Nashriyot hisob tabog`i 4.0, Adadi 200. Buyurtma № 96
Bahosi kelishuv asosida

“BROK CLASS SERVIS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar Zargarlik ko'chasi, Segizbayeva 10a.